

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANI BO'YICHA
MA'Ruzalar MATNI

(FILOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI UCHUN)

MURODOVA N
ALLABERDIYEV A

Navoiy – 2008 y

Mazkur ma`ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2006 yil 26 iyunda tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Taqrizchi :

f.f.n Zaripov B P

Ilmiy-uslubiy kengashining 2008- yil 15-sentabr 2-son qarori bilan tasdiqlangan.
Ushbu ma`ruzalar matni O`zbek filologiyasi fakulteti birinchi bosqich bakalavr yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

Reja

- 1.Shevashunoslik fani haqida tushuncha.
- 2.Sheva ,dialekt,lahja tushunchalari.
- 3.O'zbek tili dialektal tarkibining murakkab bo'lish sabablari.
- 4.O'zbek shevalari va qiyosiy-tarixiy metod.
- 5.Adabiy til va dialekt munosabati.

Adabiyotlar

- 1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov.Sh . “O'zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O'qituvchi”, 1978- yil
- 2.Mirzayev M M , “O'zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969 -yil.
- 3.Ashirboyev S, “O'zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000 -y / ma'ruza matni/
- 4.Rajabov N “O'zbek shevashunosligi” Toshkent, “O'qituvchi” 1996-yil.
- 5.Murodova N “O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”, Toshkent , “Fan” 2007 yil
- 6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997- yil.

Shevashunoslik fani tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u biror milliy til tarkibidagi mahalliy lahja va shevalarning o'ziga xos muhim xususiyatlarini, ularning adabiy tildan va o'zaro bir-birlaridan farqlarini, shevalarning adabiy tilga munosabatini, adabiy tilni boyitishdagi ahamiyatini, shuningdek o'rganilayotgan shevalarning qanday guruhga bo'linishi, ularning tarixi va keljak taqdiri kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

SHevashunoslik qo'shma so'zga yaqin bo'lib,sheva forschada so'zlashish, ovoz, odat, til kabi ma'nolarni bildiradi, shunos esa bilish, o'rganish demakdir. Demak, shevashunoslik mahalliy shevalar va ularning yig'indisi bo'lган lahjalarni o'rganish haqidagi fandir. O'zbek shevashunosligi O'zbekistonda mavjud bo'lган hamma lahja va shevalarni o'rganadi.

O'zbek urug'lari miqdorini aniq aytish mumkinmi? Ha, xalq orasida «92 bovli o'zbek urug'i» degan ibora keng tarqagan, lekin yozma manbalarda ular to'liq aniqlangan emas. To'g'ri bu haqda turli shevalarda yozib qoldirilgan ma'lumotlarda qayd etiladi. Yozma manbalarda, jumladan, «Devonu lug'otit turk» da qabilalarning nomlari ko'rsatilib, har bir qabilaning son-sanoqsiz urug'i borligi aytildi. M. Qoshg'ariy turkiy tillar 20 ta til va lahjalardan iborat ekanligini yozib, ularning nomlarini birma-bir sanab o'tadi; bular bijanak, qipchoq, o'g'uz, yag'mo, boshqirt, basmin, qay, yaboqu, tatar, qirg'iz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig' roq, joruq, yumul (jumul), uyg'ur, tung'o't, tabg'ach, xitoy (DLT, 1, 64 - bet) «Xitoy - Chin» dir va tabg'ach «Mochin» dir deb alohida izoh beriladi.

«Devon» ning 65 – betida Chin va Mochinlarning musulmon emasligi hamda ularning maxsus o'z tillari borligi qayd qilib o'tilgan.

«Devonu lug'otit turk» da qarluqlar qabilalar ro'yxatida u chramaydi, lekin «Lug'at» da 9 joyda tilga olinadi. Demak, qarluq u paytda yetakchi qabila hisoblanmagan va yuqorida sanab o'tilgan qabilalar mavqeiga ega bo'lman bo'lishi mumkin. Shuning u chun bo'lsa kerak, prof. S. Mutalliboyev qarluq qabilasining tilini o'g'uzlarga, yag'mo va

chigillarga qo'shish mumkinligini izohlab o'tadi. «Devon» ning III jildi 22 – betida qarluq qabilasining nomi ham keltiriladi. M. Qoshg'ariy, Abulg'ozi Bahodirxon va boshqa mualliflarning asarida keltirilgan urug'larning nomlari hozirgi vaqtida ham ona zaminimizning ayrim joylarida uchrab turadi. Masalan: bijanak (Xorazm viloyatining Yangiariq tumanı), bayot (shu viloyatning Xazorasp va Yangiariq tumanları), qiniq (Xiva shahri yaqinidagi bir ariqning nomi) kabi.

Biz yuqorida o'g'uz lajhasi bilan bog'liq shevalarga to'xtalib o'tdik. Endi qipchoq lajhasi haqida to'xtalamiz. G'ozi Olim Yunusov «O'zbek lajhalarini tasnifida bir tajriba» (1935) degan tadqiqotida o'zbek urug'larining 92 ta ekanligini qayd etadi va ulardan 70 ga yaqinini shaxsan o'zi o'rganib chiqqanini aytib o'tadi. So'ngra, qipchoq lajhasinga alohida to'xtalib, 40 tasining nomini birma bir keltiradi. Bular qirq, ming, yuz, nayman, qipchoq, boshg'irt, uyg'ur, qo'ng'iroq, laqay va boshqalardan iborat.

Olim qipchoq lajhalaridagi urug'lar vakillarining yashash joylarini ham ba`zan aniq ko'rsatib o'tadi: boshgirt, uyrat (Xorazmda) va boshqalar.

Biz O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari tili to'g'risida gapirganda, uni, albatta, qarluq, chigil, o'g'uz, qipchoq, yag'mo singari urug' qabilalar nomlari bilan bog'lab o'rganamiz. Ular tillarining ta'siri XII – XIII asrlar yozma manbalarida ham saqlanib qolgan. Bu manbalarga «Devonu lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq», «Qissai Rabg'o'ziy», «O'rta Osiyo tavsifi», «Attuhfatuz zakiyatu fil lug'oti turkiya» - «Turkiy til haqida noyob tuhfa» (XIII – XIV, muallifi no`malum), «Guliston bit turkiy» (S.Saroiy XIV) kabi ona tilimizning boyligini o'ziga saqlab qo'ygan manbalar o'zbek xalq shevalarini tarixiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda batafsil ma'lumot olish u Chun yana quyidagi ilmiy ishlarga murojaat qilish mumkin: I. Sulton, Navoiyning qalb daftari. – Toshkent, G'. G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1962 y., 252 – bet; Nazar Rajabov, O'zbek dialektologiyasidan ocherklar. - Samarqand, Sam DU nashri, 1971 yil. Qozoqboy Mahmudov, O'zbek tilining tarixiy dialektologiyasiga doir. – O'TA, 1984 yil, 6 – son, 8-13 – betlar; Tohir Sodiqov, Bitiklarning o'zbek shevalariga munosabati. – O'TA, 1989 yil, 6 – son, 40 - 42 – betlar; N. Rajabov, O'zbek tilining g'arbiy Samarqand shevalari. – Toshkent, Fan, 1977 yil; N. Rajabov, O'zbek xalq shevalarida fe'lning morfologik tuzilishi. – Toshkent, Fan, 1990 yil kabi.

Demak, sheva va lajhalarini tarixiy jihatdan tekshirishda apchagina tarixiy shakllarni o'zida aks ettiruvchi an'anaviy sheva, lajhalar tekshirish u chun asos qilib tanlanadi. Ularni atroflicha yoritib berish talab qilinadi. An'anaviy lajha vakillari nutqidagi o'ziga xos xususiyatlar uzoq vaqtlardan beri saqlanib keladi va shevalarni tarixiy jihatdan tavsiflab beruvchi asosiy omil sanaladi.

Shevalar va lajhalarini tarixiy jihatdan urgashanish o'z navbatida xalq tarixi va til tarixi uchun ham ko'p material berishi mumkin. Chunki xalq tarixi va til tarixida o'z ifodasini topmagan hamda aniq bo'lмагan fikrlar sheva va lajhalarini tekshirish davomida aniqlab boradi. Masalan, Paxtachi tumanida hayot kechiruvchi qarnobliklarning qaysi urug' qabiladan ekanligi va qachon joylashib qolganligi va ularning o'troq hayot kechirishga o'tganligi haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar u chratmaymiz. Qarnob shevasiga xos bo'lgan xususiyatlarni tekshirish orqali uning «qarluq-chigil-o'g'uz» guruhidan bo'lgan Toshkent, Farg'ona shevalari turiga taalluqli ekanligi aniqlangan.

Ana shu til xususiyatlari va saqlanib qolgan ba`zi urf-odatlar hamda qariyalarning fikriga asoslanib, qarnobliklarning qarluq, chigil va uyg'urlar bilan bevosita aloqador ekanligi ularning X-XII asrlarda hozirgi yashayotgan joylarda doimiy o'troq hayot kechirishga o'tganliklari haqida hukm chiqarish mumkin.

Shevashunos sheva va lahjalarni tarixiy jihatdan yoritar ekan, albatta, uning hozirgi holatiga ham to'xtalishi va mavjud muhim xususiyatlarni qayd etishi zarur. Bu tarixiy tasviriy tekshirishlarning bir-birlari bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shevalarni hozirgi nuqtayi nazardan o'rganish shevashunoslik bilan shug'ullanuvchining ko'pchiligi, ayniqsa, yosh shevashunoslar faqat shu usul bilan ish ko'rishlarini ko'rsatdi. Chunki ularning dastlabki ishlarining deyarli hammasi tasviriy tekshirish holatida bo'ladi. Tasviriy chevashunoslik u yoki bu tildagi lahjalarning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at boyligining hozirgi holati, uning hozirgi taraqqiyot bosqichidagi mavqeい haqida to'laroq ma'lumot beradi. Unda ayrim fonetik o'zgarishlar va jarayonlar, grammatik shakl va qo'shimchalarning qanday yuzaga kelganligi, ulardagi o'zgarishlarni tarixiy jihatdan tekshirish tadqiqotchining diqqat markazida bo'lmaydi. Sheva va lahjalarning hozirgi holatini tekshirganda, ayni vaqtida mavjud bo'lgan shevalar vakillarining og'zaki nutqi va o'sha aholi orasida keng tarqalgan turli xalq og'zaki ijodiyoti materiallarining tilini tekshirish uchun asos qilib olinadi. Chunki xalq og'zaki ijodiyotida ham ko'pgina shevalarga xos bo'lgan xususiyatlarni saqlangan bo'ladi. Shuningdek tarixiy faktlarni o'zida aks ettiruvchi an'anaviy shevalar vakillarining nutqlarini o'rganish va ularni hisobga olish ham foydalidir.

O'zbek xalq shevalari leksikasi materiallarini o'rganish va tahlil qilishda uch tomon alohida olib tekshiriladi.

1. faqat u yoki bu o'zbek xalq shevalari u chun xos bo'lib, adabiy tilda uchramaydigan atamani aniqlab chiqish va tahlil qilish, masalan, qipchoq shevalarida kiulamiuk – yupka, kiuchan – tez, talli – shirinlik, baviur (bagir) – jigar, urt – ourt – lunj, dolcha – sarximcha – krujka, mechkey – eb tuymas kabi. Bunga o'g'uz shevalaridan yashulliu – oqsoqol, kiusiunma – xafa bulma, ejek – buzoq, labir – tez so'zlaydigan kishi kabilarni keltirish mumkin. Malax – chigirtka, inak – sigir kabilar esa Samarqand – Buxoro shevalarida uchraydi.

2. Adabiy tildagi so'z atamalarning shevalararo boshqa ma'nolarga ega bo'lishini belgilab chiqish. Masalan, chorsu – belbog, pochcha – aka, amaki (Qarnob), opa – apa – ona (qipchoq) kabi.

3. Shevalardagi so'z va atamalarning adabiy til holatidan fonetik jihatdan farqlanish holatlarini isbotlab bayon etish. Masalan, oke – aka, sh`g`r – she`r (Toshkent); kepka – kelib qol, ene – ona (qipchoq); diz – tizza, lokki – luppi (o'g'uz) kabi .

Mahalliy shevalarni atroflicha va keng o'rganish orqali tadqiqotchilar oldidagi qator vazifalarning ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. O'zbek milliy tilining shakllanish jarayoni va uning taraqqiyotida shevalarning to'tgan o'rni hamda ularni shu milliy til bilan bo'lgan munosabatini aniqlash. Chunki, Toshkent – Farg'ona shevalari o'zbek milliy tilining asosiga olingan degan fikr tarqalgan va umumiyl qoida sifatida qabul qilinganiga qaramasdan tilshunoslik adabiyotida o'zbek milliy tilining asosiga Toshkent – Andijon o'rta o'zbek dialekti olingan degan fikrlar ham mavjud.

Mavjud bo'lgan faktlar, masalan, qipchoq shevalaridagi kishilik olmoshlarining birinchi va ikkinchi shaxs birlklari men, sen shakllarida qo'llanilishi, aniq hozirgi zamон fe`lining – jatiur – yatiur < - yotir qo'shimchasi bilan hosil qilinishi, x va h fonemalrining farqlari o'zbek milliy tilining shakllanishida boshqa shevalarning ham muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

2.Shevalarning o'zaro munosabatini, ularning adabiy til va qardosh (qozoq, qirg'iz, turkman) tillarga,Shuningdek uzoq yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda hayot kechirib kelgan qo'shni xalqlarning tillariga (masalan, tojik tiliga) bo'lgan munosabatlarini belgilash. Chunki ko'pgina umumiste`mol so'zlarimiz bir xilda qo'llanilib kelmoqda. Ularning aniq tarixini belgilash uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Masalan bиргина - chi qo'shimchasing tarixini ko'zdan kechirganimizda, uning tojik tilida uchrashini XV-XVII asrlar bilan bog'lanishini qayd etish o'rinnlidir. Bir so'z bilan aytganda tillar bir-birlaridan (qarz olmasdan) yashay olmaydi.

3. O'zbek xalq shevalarini o'rganish sohasida apchagina ishlar qilingan va materiallar to'plangan bo'lsa ham ularning ba`zilari etarli darajada o'rganilmagan, ayrimlari esa hatto tilga ham olinmagan. Ularning xarita va atlasini tuzish masalasi hozirgacha shevashunos olimlarning asosiy diqqat e`tiborini jalb qilmagan. Bu sohada qilingan ishlar kam va ommaviy tus olgan emas. O'zbekistonning barcha zaminida shuningdek, Kozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Sibir, Ukraina, Xitoyning Shinjon o'lkasi hamda Shimoliy Afg'onistondagi o'zbek shevalarini chuqur ilmiy asosda o'rganish va ulardagi ilmiy hamda ayrim xususiyatlarni hisobga olgan holda o'zbek shevalarining mukammal tasnifini ishlab chiqish. Bu shevalarni joylashgan o'rinnlariga qarab xaritalarga tushirish va nihoyat o'zbek shevalarining mukammal atlasini yaratish.

4. alohida guruhga kiruvchi shevalarning umumiyl томонлари va o'xshashliklari bilan birga, o'zaro farqlanuvchi tomonlarini va buning sabablarini oolib berish.

5. O'zbek xalq shevalarini o'rganishning nazariy va mazalliy ahamiyati hamda tekshirish usullarini ko'rsatish.

6. O'zbek tilining ko'p shevali ekanligi tarixiy sabablarini aniqlash.

7. Maktab o'quvchilari nutqida. Turli xil yozma ishlarda uchraydigan mahalliy shevalar xususiyatlari va ularni bartaraf qilish yo'llarni hamda usullarini ishlab chiqish, uni amalga oshirish.

Bunday vaziyatlarni amalga oshirish uchun quyidagilarni nazarda to'tish talab qilinadi:

A) juft holda ishlatiladigan unlilarni aniqlash, ularni tanglay ohangi va lab ohangi deb ikkiga bo'lib o'rganish, ular o'rtasidagi munosabatni belgilash;

B) ohangdoshlik hodisalarining tarixiy davrlarga qarab o'zgarib turishi, bu qonunning o'zbek shevalarida qay darajada ekanligini va shu bilan bog'liq holda unli fonemalar miqdorining qisqaligini aniqlash;

V) O'zbek tilining Qorabuloq, Inoq, Forish – Bog'don, janubiy Xorazm kabi ba`zi shevalari uchun xos bo'lgan birlamchi. Ya`ni qadimgi turkiy tilga xos cho'ziq unlilarning tekshirilayotgan shevada mavjudligi yoki mavjud emasligini ko'rsatish;

G) ayrim fonemalarning tushib qolishi natijasida yuzaga keladigan ikkilamchi cho'ziq unlilarning paydo bo'lish yo'llarini va ularning shevalararo qay darajada tarqalganligini belgilash;

D) qo'sh unlilik hamda ularning ohangdoshlik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan fonetik munosabatni ko'rsatish;

E) yangidan paydo bulayotgan fonemalarning chunonchi janubiy Xorazm va ayrim qipchoq shevalarida e fonemasining yuzaga kelishi imkoniyatlarini tushuntirish, ya'ni bunday unlini mazkur sheva materiali asosida unlilar tarkibining tarixiy fonetik taraqqiyoti jarayonida o'zbek adabiy tili ta'sirida paydo bo'lganligini aniqlash;

J) ayrim undoshlarning, masalan, shahar va shahar atrofidagi ko'pgina shevalarda r fonemasining talaffuzda ishlatilmasligi sabablarini olib berish;

Z) u yoki bu unlining lablanish va lablanmaslikka moyil bo'lismida yonma-yon kelgan undoshlarning qanchalik ta'sir ko'rsatish kerakligini belgilash.

SHEVA, LAHJA VA DIALEKT.

O'zbek shevashunosligida mavjud bo'lgan ilmiy adabiyotlarda, sheva, lahja va dialekt atamalari turlicha ma`nolarda qo'llanib kelmoqda. Bu atamalarning ma`nosi ham har xil emas. Chunki o'zaro ba`zi farqlarga ega bo'lgan shevalar birlashib, lahjani tashkil qiladi. Ikki yoki bir necha lahja birgalikda milliy til asosiga aylanadi. Shunday qilib shevalar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lganliklari holda, tilimizning eng kichik bo'lagini tashkil qiladi. Dialekt atamasi keng va tor ma`noda qo'llaniladi. Bu jihatdan «lahja» atamasi ham «dialekt» ga teng keladi.

Sheva. U forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi ma`nolarni bildiradi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan kichik bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiyo o'rinnari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Masalan, O'zbek tilining qorluq-chigil-uyg'ur guruhiba kiruvchi Toshkent. Andijon, Marg'ilon, Samarqand, Buxoro, Kattaqurg'on, Jizzax, Qarnob, Qarshi, Parkent, Urgut singari kichik tarmoqlari shevalarni tashkil etadi. Yoki qipchoq guruhibi tashkil etuvchi ming, Mang'it, yuz, saroy, nayman, qipchoq, qoraqalpoq, xitoy, jaloyir, chig'atoy kabilari ham o'zbek tilining eng kichik bo'laklaridandir. Shevalar o'zaro birikib, lahjani yuzaga keltiriadi. Lahja va shevalar o'zbek milliy tili tarkibida o'rganiladi. Chunki o'zbek milliy tilining qo'llanilish doirasi kengdir. Lahja va shevalar o'zbek adabiy tili tushunchasiga kirmaydi. Bi roq ular o'zbek tilining quyi shakli tarmoqlari hisoblanib, o'zbek adabiy tilini boyitish uchun xizmat qiladi. Bu ayniqsa leksika bobida yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Chunonchi hozirgi paytda adabiy tilimizda ham «beda» deb yuritiladigan tuyimli ozuqa qipchoq lahjasini tashkil etuvchi shevalarda «yungichka», «o't», «beda» kabi nomlar bilan yuritiladi. Demak, «yungichka» so'zini adabiy til me'yoriga kiritish foydadan holi bo'lmaydi. Yana «bula», «kilamik», «bo'tana», «ungir» singari so'zlari ham adabiy til doirasida keng iste'mol qilishni uylab ko'rish foydali bo'lishi mumkin.

Lahja. Lahja aslida arabcha so'z bo'lib, ifoda, so'z, sheva, ovoz kabi ma`nolarni o'zida mujassamlashtiradi. O'zbek shevashunosligida lahja shevalardagi asosiy xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisini bildiradi. Bu esa lahja atamasining keng ma`noda qo'llanilishidir. Masalan, o'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasini, qipchoq lahjasini, o'g'uz lahjasini.

Dealekt. Dialekt lotincha so'z bo'lib, shevaga nisbatan keng ma`noda qo'llaniladi. Adabiy tilda o'zining ba`zi bir xususiyatlari (fonetik, grammatik, leksik) bilan farqlanadigan biror umummilliy tilning yirik roq bo'lagi dialekt deb yuritiladi. Amaliy hayotda esa o'zaro anglashish va anglashilmaslik hisobga olinadi. Masalan, o'zbek tilining o'g'uz dialekti, qipchoq dialekti kabi.

O'ZBEK ShEVASHUNOSLIGINING FAN SIFATIDA TASHKIL TOPISHI.

Turkiy tillar lajhalarini o'rganishga bo'lган qiziqish eng qadimgi davrdan boshlangan. Hali u vaqtarda turkiy xalqlar vakillari urug'-urug' va qabila- qabila bo'lib yashab kelar edilar. Ulardan qabilalar ittifoqlari va xalqlar shakllanadi. Shuning uchun ham O'rxun-Enasoy daryolari yoqasidan topilgan yozma yodgorliklar boshqa turkiy xalqlar bilan birgalikda o'zbeklarning ham eng qadimgi yozma manbalaridan deb qaraladi. Bu yozma yodgorliklar o'zbek shevashunosligi tarixini o'rganish uchun ham muhim bo'lган boy materialllar beradi.

Ularni o'rganishda « Qadimgi turkiy yozma yodgorliklari» (1951), « Qadimgi turkiy til» (1982) kabi asarlarning ahamiyati kattadir. Ular ilmiy tadqiqotlarni bajarish uchun ham oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitish uchun ham birday qimmatlidir. Chunki bu yozma manbalar barcha turkiy xalqlarning, jumladan o'zbek tilining ham qadimgi zamonalarda boy adabiy til an`analariga ega bo'lganligini va O'rxun-Enasoy yozuvi hozirgi o'zbek tilining ham qadimgi yozma yodgorliklardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, A. Navoiy asarlarining tili qarluq-chigil- uyg'ur guruhiga kiruvchi shevalar tiliga, ayniqsa Andijon shevasiga, yaqin keladi. Hatto shoir asarlaridan bir necha asr oldin yuzaga kelgan asarlar ham ana shu guruhga mansub qabila tillarida yozilgan. Masalan, Yusuf Xos Xojibning « Qutadg'u bilig» nomli yirik asari chigil qabilasi tilida yozilgan. Bu esa chigil qabilasi tiliga asos bo'ladi. O'zbek xalq shevalarini o'rganish natijasida adabiyot tarixi va xalq og'zaki ijodiyotiga taalluqli ko'pgina qimmatli materiallarga ega bo'lish mumkin. Chunonchi, bundan qariyb o'n asr ilgari maydonga kelgan M. Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk», Y. X. Hojibning « Qutadg'u bilig» asarlari o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek shevashunosligi va til tarixi uchun ham zarur manba bo'lib xizmat qiladi. Shevashunoslik fani sohasida yetarli ma'lumotga ega bo'lish har bir yozuvchi, shoir hamda dramaturg uchun suv va havo singari zarurdir.

Mahalliy lahja va shevalar xususiyatlарини yaxshi bilgan shoir, dramaturg va yozuvchilar asar qaxramonining bilim saviyasi, madaniyat darajasi, uning adabiy tilda yaxshi gaplasha bilishi yoki uni yetarli bilmasligi, qaysi shevada gapirishi, mashg'uloti kabilalar to'g'risida uzundan- uzoq tushuntirishlar va izohlar berish yo'li bilan tasvirlab o'tmasdan, shu umumiyl xususiyatlarning hammasini bir xususiyat orqali, ya`ni personaj tilida qo'llaniladigan sheva orqali ochib berish mumkin.

Muqimiyl, Furqat, A. Qodiriy, H. H. Niyoziy, H. Olimjon,G'. G'ulom, Oybek, A.Qahhor, M. Ismoiliy, K. Yashin kabi san`atkorlar o'z asarlarida o'zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalanganliklari o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi. Shuning uchun ham bu asarlar kitobxonning qo'lidan tushmaydigan sevimli asarlariga aylanib qolgan.

O'zbek shoir-yozuvchilar asarlaridan ba`zilarini qayd etish o'rinnlidir. Masalan, A. Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» romani va «Sinchalak» qissasi Farg'ona shevalariga xos xususiyatlar, Oybekning «Qutlug' qon», «Oltin vodiyyadan shabadalar» romanlarida Toshkent va ularga o'xshash shevalarning xususiyatlari; M. Ismoiliyning «Farg'ona tong otguncha» romanida Farg'ona shevalarining o'ziga xos belgilari; J.Sharipovning

«Xorazm» romanida janubiy Xorazm shevalarining xususiyatlaridan foydalanib ish ko'rildi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sheva deb nimaga aytildi ?
2. Dialekt deb nimaga aytaladi ?
3. Lahja deb nimaga aytildi ?
4. O'zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi sabablar bilan bog'langan ?
5. O'zbek shevalari qaysi metodlar bilan o'rganiladi ?
6. O'zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o'zaro bog'langan ?
7. Shevaning o'zbek adabiy tiliga ta'sir ko'rinishlarini aniqlang ?
8. Yozma yodgorliklarda hozirgi kunda shevada qo'llaniladigan qanday so'zlar uchraydi ?

Tayanch tushunchalar:

O'zbek dialektologiyasi – o'zbek shevalarini ilmiy ravishda o'rganadigan fan.

Sheva – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.

Dialekt – o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Lahja –shakllanish jihatidan umumiy tarixga ega bo'lgan dialektlar yig'indisi.

Qarluq – chigil – uyg'ur lahjası – o'zbek tilining shu nom bilan ataladigan urug'-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialekt uyushmasi.

O'g'uzxon – afsonaviy podshoh. "Shajarai turk"da aytishicha undan olti nafar o'g'li bo'lgan .Har o'g'lidan to'rtadan nabira ko'rib,jamisi 24 ta. Shulardan tarqalgan avlodlar o'g'uzlar nomni olgan deb rivoyat qilinadi.

Qipchoq – qadimgi turkiy tilda ichi qo'sh yog'ochni qipchoq deyishgan.Rivoyatda keltirilishicha, shu daraxt orasida tug'ilgan bolaning ismini Qipchoq deb qo'yishadi. Avlodlari qipchoqlar deyilgan.

Qorluq – baland tog'likda yashagan aholini O'g'uzxon shunday atashni buyurgan.

Qipchoq lahjası – o'zbek tilining asosan qipchoq urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar uyushmasi.

O'g'uz lahjası - o'zbek tilining asosan o'g'uz urug' va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar uyushmasi.

Tavsifiy (sinxron) metod –shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy-tarixiy metod - tillarni ham tarixiy taraqqiyot,ham boshqa yondosh tillarga qiyoslab o'rganish metodi ,bu metoddan shevalarni o'rganishda ham o'rganiladi.

2 – MAVZU: O’zbek tilining dialektal bo’linishi.

Reja

1.O’zbek shevalarini tasnif qilish tomoiyillari.

2.K K Yudaxin ,E D Polivanov, A K Borovkov, G’ozi Olim, V V Reshetov tasniflari.

3.O’zbek dialektologlari.

Adabiyotlar

1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O’zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O’qituvchi” , 1978- yil

2.Mirzayev M M , “O’zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969- yil.

3.Ashirboyev S, “O’zbek dialektologiyasi”Toshkent, 2000 -y / ma’ruza matni/

4.Rajabov N “O’zbek shevashunosligi” Toshkent, “O’qituvchi” 1996 -yil.

5.Murodova N “O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”,Toshkent , “Fan”2007- yil

6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan” , 1997- yil.

O’zbek shevalarini tasnif qilish tomoiyillari.O’zbek asosan 20-30 yillardan boshlab ilmiy asosda o’rganila boshlandi va uning dastlabki tasniflari paydo bo’la boshladi.Inqilobgacha bo’lgan davrda V Nalivkin, M Nalivkina, A Starchevskiy, A Vishnegorskiy, Z Alekseyev, N Ostroumov, T G’iyosbekovlar jonli til faktlari asosida o’zbek tili lug’ati,qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar.Ularni sof dialektologik ishlar deb ham , adabiy til faktlari deb ham qarash qiyin, inqilobdan keyingi yillarda o’zbek adabiy tiliga asos bo’ladigan sheva va dialektlarni aniqlash , milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o’zbek shevalari keng miqyosda o’rganila boshlandi.Shu jarayonda o’zbek shevalari tasnif qilindi.

O’zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tomoiyillardan foydalilanadi. Ular quyidagilar:

- o’zbek (turkiy) tilga xos bo’lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo’lishi;
- ma’lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi jumladan singormanizm va umlaut.
- tarixiy qatlamga oid leksik birliklarning miqdori, o’zlashgan qatlam so’zlarining ishtirogi.
- o’zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo’lmagan til va shevalarning ta’siri.
- shevaning asosiyxususiyatlarini belgilovchi xarakterga ega bo’lgan tovush va fonemaning tarqalish darajasi.
- so’zga affikslarning qo’shilish xususiyatlari, so’zning fonetik strukturasi va boshqalar.

O’zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan.O’zbek shevalarini I I Zarubin ham tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg’ona , Toshkent va

Samarqand-Buxoro kabi to'rt guruhga bo'linishini ta'kidlaydi, lekin ularga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto "j" lovchi va shimoliy o'zbek shevalari uning e'tiboridan chetda qoladi.

O'zbek shevalarini dastlab professor K K Yudaxin tasnif qilishga musharraf bo'ladi.U o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singormonizmni saqlash darajasiga ko'ra tasnif qilib,4 guruhini belgilaydi:

- asl turkiy tovush tizimi va singormonizmni saqlagan o'zbek shevalari;
- o'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singormonizmni yo'qotgan Shevalar;
- eron tili unlilar tizimini saqlagan o'zbek shevalari;
- o'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik olim K K Yudaxin o'zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib , uni 5 guruhga ,ya'ni Toshkent, Farg'ona, Xiva, qipchoq va Shimoliy o'zbek shevalariga ajratadi.

O'zbek shevalarini o'rganish va ilmiy asosda tasnif qilishda professor Y D Polivanovning ulug' xizmatlari bor. U o'zbek tili va shevalari bo'yicha 250 ta nomda yirik asarlar va ilmiy ishlarni yaratgan. Hozirgi kunda uning 150 dan ortiq ishlari e'lon qilingan.Professor Y D Polivanov o'zbek shevalari bo'yicha "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili"(1933 y), "Toshkent shevasining tovush tizimi"(1922 y), "O'zbek tilining singormanizmni yo'qotgan shevalari namunalari" (1928 y) kabi ishlar mavjud .

Professor Y D Polivanov o'zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan . Keyingi davr dialektologlari Y D Polivanov o'zbek shevalarini tasnif qilishda 2 ta tomoiyilni – birinchisi-metisatsiya (qardosh tillar chatishuvi) va ikkinchisi-gibridizatsiya (qardosh bo'limgan tillarning aralashuvi)ni hisobga olgan holda tasnif qilgandegan fikri ilgari suradilar.Bu e'tibordan chetda qoladigan fikr emas , lekin Y D Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog'lab bog'lab qo'yish ham mumkin emas, balki Y D Polivanov turkiy tillar, o'zbek tili va uning eroniylar bilan munosabati kabi holatlarni hisobga olgan . Aslida ,u deyarli, barcha o'zbek shevalarini o'rganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi , urug' , qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtai nazardan shevalarni tasnif qiladi hamda o'zbek tili tarkibida uch lahja mavjudligini belgilab beradi:

1.Chig'atoy lahjası. Bu lahjani 7 ta tipga ajratadi:1.Samarqand-Buxoro, 2.Toshkent, 3.Qo'qon-Marg'ilon, 4.Andijon-Shahrixon, 5.Namangan guruh shevalari, 6.Shimoliy o'zbek shahar shevalari, 7.Shimoliy o'zbek qishloq shevalari.

2.Qipchoq lahjası. Uni ham bir necha tipga ajratadi:1.O'rta Xorazm (Gurlan, Bog'ot, Shobboz) shevalari, 2. "a" lovchi qozoq-nayman,Farg'ona-Qoraqalpoq shevalari, 3. Qurama shevalari, 4. Shimoliy o'zbek (So'zoq, Cho'laqo'rg'on) , 5.O'rta o'zbek (qirq) shevalariga janubiy o'zbek shevalari (laqay, Afg'onistondagi qipchoq-o'zbek) .

3.O'g'uz lahjası . Bu 2 tipdagi shevalarni o'z ichiga oladi: 1.Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G'azovot, Xazarasp, Yangiariq) shevalari. 2.Shimoliy o'g'uz guruhi (Iqon,Qorabuloq) shevalari.

Chig'atoy lahjasiga qarashli,ayniqsa,Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli eronlashgan shevalar deb hisoblaydi.

Professor G'ozi Olim tasnifi. U shevalarni leksik, morfologik va fonetik xususiyatlariga ko'ra tasnif qilish lozimligini uqtirgan holda shevalarni 1.o'zbek-qipchoq, 2. turk-barlos, 3.Xiva-Urganch lahjalariga ajratadi.

O'zbek-qipchoq lahjasini qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, gurlan; turk-barlos lahjasini Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos,Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasini Xiva,qarluq guruhlariga ajratadi.

Professor A K Borovkov tasnifi . A K Borovkov shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib,dastlab “a” lovchi va “o” lovchi shevalarni farqlaydi. “o” lovchi shevalarga Toshkent, Xonabod, Xos, Taqachi, Yangiyo'l, Chinoz shevalarini; “a” lovchi shevalarni esa o'z navbatida “y” lovchi va “j” lovchi shevalarga ajratadi, “y” lovchilarga – Chimkent, Mankent, Turkiston, “j” lovchilarga – Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A K Borovkov o'zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib , uni 4 dialektga ajratishni tavsiya qiladi:

1.O'rta o'zbek dialekti . Uni ikki guruhga – 1 .O'rta o'zbek shevalari:Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona va boshqalar; 2.Shimoliy o'zbek shevalari:Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2.Shayboniy o'zbek yoki “j” lovchi dialekti .

Bunga Samarqand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangoron vodiysi,Shimoliy Xorazm va Farg'ona vodiysisidagi “j” lovchi shevalarni kiritadi .

3.Janubiy Xorazm dialekti .bunga Xonqa, Hazorasp,Shovot, Yangiariq, G'azovot, Sho'raxon kabi shevalarni kiritadi .

4.Alohida gruppa shevalarga ; 1.Qorabuloq , Iqon , Mankent; 2.umlautli shevalarga (Namangan)ni kiritadi.

Professor V V Reshetov tasnifi .Uning tasnifida professor Y D Polivanov g'oyalari asos bo'lgan va u hozirgi shevalarning shakllanishida muhim ahamiyatga molik bo'lgan qabila-urug'larning tarixiy taraqqiyotini hisobga olgan holda tasnif qiladi. Uningcha , o'zbek shevalarini uch lahjaga birlashtirish mumkin:

Qarluq – chigil – uyg'ur lahjası .Bu lahja uyg'ur tiliga yaqin va oz yoki ko'p darajadatojik tili bilan aloqada bo'lgan. Bu lahjaga O'zbekiston Respublikasidagi yirik shahar (Urganchdan tashqari) va Shahar tipidagi qishloq shevalari kirgan.

Qipchoq lahjası. Bu lahja esa qozoq va qoraqalpoq tillariga yaqin turadi va unga O'zbekiston Respublikasidagi Qurama, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona vodiysisidagi “j” lovchi va singarmonizmli shevalar kiritiladi.

O'g'uz lahjası. Bu lahjaga til jihatidan turkman ,ozarbayjon, turk tillariga yaqin turadi va O'zbekiston Respublikasidagi Xorazm, Qoraqalpog'iston, Turkmanistondagi o'zbek shevalari hamda Qorako'l, Forish shevalari ham shu lahjaga kiritiladi.Bu shevalarning o'ziga xos fonetik, leksi va grammatic xususiyatlari yoritib beriladi.

O'zbek dialektologlari. O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasnif qilinishida jahon ahamiyatiga molik bo'lgan professor ye D Polivanov, mashhur professorlar K K Yudaxin, G'ozi Olim, A K Borovkov , V V Reshetov kabi olimlarning buyuk xizmatlari bor. Bu olimlar rahbarligida mahalliy o'zbek olimlari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh Shoabdurahmonov, professor vafan doktorlari M Mirzayev, F Abdullayev, S Ibrohimov, H Ibrohimov, H G'ulomov, Y G'ulomov, A Aliyev, A Shermatov, O Madrahimov, T Yo'ldoshev, N Rajabov, X Doniyorov, Q Muhammadjonov, T Nafasov, A Jo'rayev kabi olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Bu professor va fan doktorlari bilan birga 50 ga yaqin fan nomzodlari, dotsentlar o'zbek shevalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar.Bu olimlar ishlari tufayli o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va deyarli barcha lahja va shevalar sinxronik tarzda o'rganib chiqildi, lug'atlar tuzildi.

O'zbek dialektlari hamon taqqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin,ya'ni endilikda o'zbek shevalarining barcha masalalari bo'yicha nazariy muammolar : o'zbek shevalari

fonologiyasi, turkiy dialektologiya, etimologiya, turkiy tillar bilan qiyosiy jihatlardan o'rganilishi o'zbek tilshunosligini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Shevalar qanday tamoyillar asosida tasnif qilinadi.
- 2.O'zbek shevalari kimlar tomonidan tasnif qilingan va ulardag'i farqlari nimadan iborat ?
- 3.Professor Zarubin o'zbek shevalarini tasnifi haqida nimalarni bilasiz ?
- 4.K K Yudaxin o'zbek shevalarini qay tarzda tasnif qilgan ?
5. Y D Polivanov o'zbek shevalarini nimaga asoslanib , tasnif qilgan ?
- 6.G'ozi Olim tasnifida asosan tilning qaysi tamanlariga e'tibor berishga harakat qilgan ?
7. V V Reshetov tasnifining mukammallik tomonlari haqida fikrlang.
- 8.Hozirgi kunda shevaning eng dolzarb o'rganilmagan tomonlari haqida to'xtaling.
- 9.Shevashunoslikka oid qanday yangi ko'rinishlar yuzaga kelmoqda.
- 10.Qaysi o'zbek dialektologlarini bilasiz va ular qanday tadqiqot ishi olib borishgan ?

Tayanch tushunchalar:

- 1.Shevalarni tasnif qilish – shevalardagi o'xshash va noo'xshash xususiyatlarini hisobga olib, ularning guruhlarini belgilash.
- 2.O'zbek shevashunosligini birinchi ilmiy tarzda o'rgangan olim Y D Polivanov hisoblanadi.
- 3.O'zbekistonda joylashgan shaharlardan Urganch shahri aholisi shahar shevasida so'zlashmaydi.
- 4.Metisatsiya – qardosh tillar va shevalar chatishuvi.
- 5.Gibrnidizatsiya – qardosh bo'limgan til va shevalarning aralashib ketishi.

3 – MAVZU LINGVISTIK GEOGRAFIYA. LINGVISTIK GEOGRAFIYA HAQIDA QISQAChA MA'LUMOT.

Reja

- 1.Lingvistik geografiyaning mohiyati.
- 2.Milliy til va uning shevalarga ta'siri.
- 3.Shevalarni yozib olib o'rganish.

Adabiyotlar.

- 1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O'zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O'qituvchi” , 1978 -yil
- 2.Mirzayev M M , “O'zbek tilining Buxoro guruhi shevalari” , Toshkent, 1969 -yil.
- 3.Ashirboyev S, “O'zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000-y / ma'ruza matni/

- 4.Rajabov N “O’zbekShevashunosligi”Toshkent, “O’qituvChi” 1996 -yil.
- 5.Murodova N “O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”, Toshkent , “Fan” 2007- yil
- 6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997 -yil.
- 7.Shermatov A “Lingvistik geografiya nima”,Toshkent, 1981- yil

Lingvistik geografiya til hodisalarining tarqalish o’rinlarini, ularda tarixiy taraqqiyot jarayonida yuz bergan o’zgartirishlarni o’rganish uChun xizmat qiladi. Masalan, turkiy tillar geografiyasi haqida so’z ketganda, til egalarining tarix takozosi bilan muayyan o’zgarishlarni o’z boshlaridan keChirishlari, turli joylardan ko’Chib yurishlari va hozirgi vaqtida o’troqlashib qolish sabablarini o’rganish tushuniladi. Jumladan, Turkiyadagi aholining qadimda Turkistonda, ya`ni Sirdaryo buylarida yashab, so’ngra hozirgi zaminga ko’Chib kelganliklari va muqim hayot keChirishga o’tib qolganliklari, skiflarning ham tarixan turkiy xalqlardan bo’lib, eramizgaCha bo’lgan davrning oxirlari va eramizning boshlarida zaminimizdan, jumladan, Movarounnahrdan ko’Chib borib, hozirgi joylarida – Vengriya, Bolgariya kabi Bolqon davlatlari yerlarida o’troqlashib qolganliklari fikrimizning dalilidir.

Lingvistik geografiya lajja va Shevalarni o’rganishda ham ahamiyatlidir. CHunki ularning tarixiy taraqqiyot yo’llarini belgilashda, fonetik, grammatick va leksik xususiyatlarni o’rganishda xalq tarixi va til tarixi bilan ularning tarqalgan joylari bilan o’zviy bog’liq holda olib tekshiriladi. Masalan, o’zaro umumiyligi xususiyatiga ega bo’lgan Toshkent, Parkent, Piskent, Qarnob kabi Shevalarning yoki janubiy Xorazm, Shimoliy Buxoro, Forish-Bog’don, Shimoliy o’zbek Shevalari vakillari kabilarning turli joylarda o’troqlashib qolish sabablari, ulardagagi umumiyligi xususiyatlari tarixi qabilalarni hisobga olish va o’ziga xos tomonlarini asos qilib olib, ularning xaritalarini Chizib berish hamda lingvistik atlasi yaratish muhimdir. Bunday ishlarning amalga oshirilishi ko’rgazmali tavsifiy qurol vositasini o’taydi.

Tillarning,jumladan, ularning quyi tarmoqlari hisoblangan lajja va shevalarning hozirgi vaqtdagi tarqalish holati turli belgilar bilan ko’rsatiladi. Ana shunday belgilar bilan til yoki lahjaning joylashgan o’rinlari ifodalab berilishiga umumiyligi lingvistik geografiyada yunoncha «izoglossa» deb yuritiladi va bir xil, o’xhash, teng kabi tomonlarni bildirishga xizmat qiladi. Bunda fonetik, grammatick va leksik xususiyatlarni aniq ko’rsatish uchun har xil belgilar ishlataladi.

Qisqasi, lingvistik geografiya lajja va shevalarning tarixiy taraqqiyoti yo’llarini aniqroq belgilashga, ularda so’zlashuvchi xalqlarning hozirgi joylarda o’troqlashib qolish sabablarini, guruhlarga aloqadorligini, til taraqqiyoti va xalq tarixi bilan aloqasini to’laroq aniqlashga, ular to’g’risida ishonchli ma’lumotlar berishga xizmat qiladi.

Turkiy tillar geografiyasi ma’lumotlari M. Qoshg’ariy, A. Navoiy, G’ozi Olim Yunusov, A. K. Borovkov, U. Tursunov, V. V. Reshetov, S. Ibrohimov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo’rayev, A. Aliyev, X. G’ulomov, X. Doniyorov, A. Shermatov, A. Jo’rayev, M. Mirzayev, K. Nazarov singari zukko olimlarning nomlari bilan bog’langan. Ular o’zbek xalq shevalarini o’rganish, ularning o’ziga xos xususiyatlarini yozib olish, tahlil etish va ularni xaritalarga tushurib, shevalarimiz atlasi yuzaga kelishiga o’z hissalarini qo’shib kelmoqdalar.

LAHJALARING BOSHQA TIL KATEGORIYASIGA MUNOSABATI. MILLIY TIL VA MAHALLIY LAHJALAR.

Tillar o'zaro hamkorlik, bir-birini boyitish yo'li bilan rivojlanib bormoqda. Faqat qardosh turkiy tillar emas, balki boshqa tillar ham bir-birlarini boyitishi, bir-birlari bilan oziqlanishiga turli yo'llar bilan harakat qiladilar. Xuddi shu sababli ona tilimizga turli tarixiy davrlarda so'zlar, atamalar va ular tarkibida qo'shimchalar, grammatic xususiyatlar o'zlashgan. O'z navbatida o'zbek tili boshqa tillarga samarali ta'siri borligi sezilib turadi. Chunki A. Qodiriy aytganidek, «Tillar bir-birlaridan qarz olmasdan yashay olmaydilar».

Movarounnahrdagi eng qadimgi xalqlardan biri hisoblangan o'zbeklar o'zining ko'p asrlik hayoti davomida boy adabiyot va madaniyatni vujudga keltirdi. Ular o'zining ona tili – o'zbek tilini asrlar davomida ardoqlab va taraqqiy ettirib kelgan. O'zbek tili hamda uning lahja va shevalari jamiyat taraqqiyoti tufayli vaqt o'tishi bilan o'zgarib, taraqqiy etgan va turli shakllarga ega bo'lib kelgan. Bu fikr taraqqiyotning so'nggi davrlarida vujudga kelgan milliy tilga ham bevosita aloqadordir.

Milliy tilning shakllanib borishi feodalizmning emirilishi va kapitalizmning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lsa ham, uning unsurlari uzoq vaqtlar shakllangan va rivojlanib kelgan.

Tarixiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, o'zbeklarda VII asrgacha urug'-urug' bo'lib yashaganlar. Urug'chilik davri kishilik jamiyatining kichik, oddiy va boshlang'ich uyushmasi sanalar edi. Shu bilan birga, u davrlarda kabilalarga xos belgilar ham paydo bo'la boshlagan. O'zbeklar VII – IX asrlarda esa qabila-qabila bo'lib hayot kechirganlar. Bu qabilalarda qabilalar ittifoqiga xos bo'lgan ko'pgina belgilarning shakllanganligi ma'lum. O'sha tarixiy davrlarda qabilalarning har biri o'zlariga xos tillarga ega bo'lgan. Har bir lahja mohiyat e'tibori bilan bir qabilaning tili bo'lib xizmat qilgan. Qadimgi zamonlarda ajdodlarimiz urug'-urug', qabila-qabila bo'lib hayot kechirgan ekanlar, ular boshqa urug'lar va qabilalardan farq qiluvchi o'z tillariga ega bo'lganlar. qabilalarning keyinchalik bir-birlari bilan aralashib, qo'shilib ketishlari natijasida ularning tillari ham aralashib, qo'shilib ketgan. Bu, avvalo, qabilalar ittifoqlari tillari va so'ngra xalq tilining shakllanishiga olib kelgan. Bu o'z navbatida o'zbek adabiy tili, so'ngra milliy tilning shakllanishi va taraqqiyot jarayonini belgilab berdi.

O'zbek millati va milliy tilning tashkil topish jarayoni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 60 – yillaridan boshlab Movarounnahrdagi millat va milliy tilning yuzaga kelishiga zamin hozirlandi. Chunki O'zbekistonda amalda feudal tarqoqlik barham topdi. Xonliklar (Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklari) tugatildi. Bu o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy zamin birligini ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston va umuman Movarounnahrga temiryo'l o'tkazilib, xalqlar o'rtasidagi aloqa apcha keng darajada yoyila boshladи. O'zbekistonda paxta etishtirishni rivojlantirish va Shu bilan bevosita bog'liq holda paxta va yog' zavodlari singari sanoat tarmoqlari vujudga keltirildi.

Sharqshunos olimlar o'z asarlari bilan fanning turli tarmoqlarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shdilar. O'zbek milliy tilining shakllanishiga zamin hozirlashda Muqimiy, Furqat, Zavqiy, H. H. Niyoziy, A. Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi shoir va

yozuvchilarning g'oyat katta xizmatlari bo'lganligini qayd etish lozim. Bu sohada E. Bertel's, E. Polivanov kabi olimlarning ham hissalari bor.

Shunday qilib XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonda xo'jalik, madaniyat va adabiyot sohalarida birmuncha o'sish va rivojlanish ko'zga tashlandi.

O'ZBEK ADABIY TILI VA UNING ShEVALARGA MUNOSABATI.

Xalqimiz o'zining ko'p asrlik hayoti davomida boy madaniyat va adabiyotni vujudga keltirdi. O'zbek xalqi boy an`analari asosida o'zining adabiy tilini yaratdi. Adabiy til xalq tili asosida shakllandi, o'zining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at boyligini ma'lum bir me`yorga kiritdi va qoidalarga bo'ysundirdi.

Adabiy tilning ikki asosiy shakli – og'zaki adabiy til va yozma adabiy til ko'rinishi mavjud. Yozma adabiy til ham, og'zaki adabiy til ham o'zining boy an`analariga ega. Lekin og'zaki adabiy til yozma adabiy tildan ilgari paydo bo'lgan.

Yozma adabiy til materiallari sifatida qo'llangan so'zlar umum xalq tili asosida adabiy tilning shakllanishiga xizmat qiladi va uzoq vaqt iste`molda bo'ladi, ularninng ayrimlari vaqt o'tishi bilan tarixiy so'zlarga aylanib qoladi.

«Adabiy til» atamasi ikki ma`noda qo'llaniladi. Bu, bir tomondan, feodal tarqoqligi davrida davlat idoralarida ish yuritish, adabiyot, din, ilm-fan kabilar uchun ishlatiladigan til bo'lsa, ikkinchi tomondan, adabiy asarlar tilidir. Shu bilan birga, turli iqtisodiy-ijtimoiy va tarixiy sabablarga ko'ra, adabiy til ma'lum lahja asosida tashkil topgan yozma adabiy til yoki majburan qabul qildirilgan boshqa adabiy til sifatida mavjud bo'lishi mumkin.

XI – XI asrlardan boshlab, Markaziy Osiyodagi va boshqa zaminlardagi turkiy tillarning, jumladan o'zbek tilining ahamiyati kuchaya bordi. Bu esa o'z navbatida o'zbek adabiy tilining shakllanishini o'zida aks ettira boshladi. U jonli xalq tili asosida vujudga keldi. Demak, o'zbek xalqining tashkil topishi bilan asta-sekin adabiy tilga xos xususiyatlarShakllana boshladi. Biz bu holni o'sha davrda maydonga kelgan M. Qoshg'ariyning mashhur «Devoni lug'otit turk» nomli lingvistik asari Y. X. Hojibning «Qutadg'u bilig», A. Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» kabi ilmiy va badiiy asarlari namunasida ko'ramiz. Yuqoridagi kabi asarlar o'zbek xalq tili va adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan nodir durdonalardir.

A. Navoiydan so'ng ham o'zbek adabiy tili rivojlanib keldi. Masalan, XVII asrda yashab ijod etgan Abulg'oz Bahodirxonning «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari o'zbek adabiy tili tarixini o'rganishda ayniqsa qimmatlidir. Muallif o'z asarlari tilini xalq tiliga yaqinlashtirib, sodda bir holda ifoda etishga harakat qilgan, mumkin qadar chet tillar xususiyatlarini qo'shmaslikka uringan. Bu esa uning «Besh yashar og'lon ham tushunsin uchun» degan so'zlaridan ham ko'riniib turibdi.

O'zbek adabiy tili XVIII– XIX asrlarda ham boyidi va taraqqiy etdi.

MAHALLIY LAHJALAR VA IJTIMOIY JARGONLAR.

Mahalliy lahjalarni atroflicha o'rganish, ularning farqlarin ko'rsatish va adabiy tilga bo'lgan munosabatini aniqlash o'zbek tilshunosligidagi hozirgi muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy lahjalar umum xalq tilining quyi bosqichini tashkil etadi. Ular ma'lum davrda milliy tilga asos bo'lishi va rivojlanib milliy til darajasiga ko'tarilishi mumkin. Ularning grammatik qurilishi va asosiy lug'at boyligi mavjud. Bu holat ularning milliy adabiy til uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy jargonlar esa milliy tilning buzilgan, tubanlikka va chirishga yuz tutgan shaklidir. Ularning rivojalmib, mustaqil milliy til darajasiga ko'tarilishi haqida mulohaza yuritmasa ham bo'ladi. Chunki ular xalq ommasiga emas, balki ba'zi bir ijtimoiy qatlamlarga, ayrim guruh kishilariga (o'g'ri, savdogar, qassob kabi) xizmat qiladi. Buning ustiga jargonlar grammatik qurilishga va lug'at boyligiga ega emas. Ularda chet tillardan kirgan yoki umum xalq tilidan olinib, boshqacha ma'noda ishlataladigan ayrim so'zlar uchraydi, holos.

KASB - XUNAR LEKSIKASI VA IJTIMOIY JARGONLAR.

Kasb-xunar egalariga oid so'zlar xalq xo'jaligining turli ishlab chiqarish sohalarida xalqimiz tomonidan uzoq yillar, hatto bir necha asrlar davomida, ularning mehnat jarayonida bunyod qilinadi. Bunday so'z va atamalar har xil kasb egalarida turli ma'nolarda qo'llaniladi. Bunda leksik farqlardan tashqari, fonetik va morfologik o'zgarishlarning ham mavjudligi Shubhasizdir. Masalan, chaydish – choydish (choyjush); abdasta – obdasta; pichaq – pichoq; ketman – ketmon; nay – noy; parma – parmi; chumak – jumak; ko'zliy uzuk – ko'zli uzuk – ko'zli jujuk; bilag o'zuk – bilarzik – bilanzik – bilovzik; do'ppi – kalavach – kalapush – kalavash – to'ppi va boshqalar shular jumlasidandir.

Kasb-xunar leksikasida u yoki bu buyumlar yoki narsalarning nomlari butun turlari bo'yicha ifoda qilinadi. Ma'lumki, adabiy tilda bularning umumiyl nomi yoki qismi aytildi, holos. Chunki kasb-xunar egalari o'z sohalaridagi har bir narsani, uning mayda-chuydalarigacha nomlash va o'zlari ishlab chiqargan joyi bilan bog'liq bo'lган hayotdagi buyum va narsalarning atroflicha tushuntirishga harakat qiladilar. Jumladan qulfning turlari: burama qulf, zanjirgar qulf, katta qulf, kichik qulf, kishan qulf, o'roq-bolg'a qulf, shkaf qulf, sandiq qulf, darvoza qulf, kalitsiz qulf. Yoki qaychi so'zini olib qaraylik: latabur qaychi, mashina qaychi, uy qaychi. Dukart, dukartcha, tokbur, tok qaychi, katta qaychi, Qirqlik va boshqalar.

ShEVALARNI O'RGANISH, YOZIB OLISH, MATERIAL TO'PLASH USULLARI.

XI asrda hayot kechirgan mashhur olim M. Qoshg'ariy (uning to'liq ismi Mahmud Ibnu Xusayn ibn Muhammad-il Qoshg'ariydir) turkiy tillarning dastlabki tasnifini yaratgan. Bu turkiy tillar sohasidagi yagona tasnif edi. Mahmud Qoshg'ariygacha turkiy tillar tasnifi bilan maxsus shugullangan olimni uchratmaymiz. Shuning bilan birga u o'z davrining ulug'Shevashunos olimi sifatida chindan boshlab, butun Movarounnahr,

Xorazm, Buxoro, Farg'ona kabi keng zaminda yashagan urug' – kabilarning tillarini sinchiklab o'rgangan.

Mahmud Qoshg'ariyning bu ishi turkiy tillar, jumladan, shevashunoslik tarixida tung'ich va yagona bo'lib, uni yakka holda tekshirish usuli bilan qilingan ish deb aytishimiz mumkin. Demak, yakka holda shevalarni o'rganish tirixi Mahmud Qoshg'ariy nomi bilan chambarchas bog'lanadi.

Lahjalar va shevalarni yakka holda o'rganishni istagan har bir shaxs o'zini qiziqtirgan shevani tekshirish asosini tanlab olishi mumkin. Shevashunos tekshiriladigan joyga borib, mahalliy sharoit va aholi bilan tanishadi hamda sheva ustida kuzatish ishlari olib boradi. Shevalarni tekshiruvchilar o'zlarini qiziqtirgan sohalarga alohida e`tibor beradilar va uning o'ziga xos xususiyatlarini yozib olishga kirishadilar. Ba`zan savol-javob usulidan ham foydalanish qimmatli materiallar yig'ishga yordam beradi. Ishning muddati tadqiqotchining oldiga qo'ygan maqsad va rejasid bilan belgilanadi. Masalan, Mahmud Qoshg'ariy o'z ishi uchun 15 yilcha vaqt sarflagani ma'lum.

M. Qoshg'ariydan so'ng o'zbek xalq shevalarining maxsus holda tekshirilganligi aniq emas. Bu usul bilan material yig'ish XIX asrning XX yarmi va XX asrning boshlarida bir mucha rejali yo'lga quyildi. Shevalarni shu tariqa o'rganish 20 – 30 – yillarda, ayniqsa, keng miqyosga ega bo'ldi. Bu sohada G'ozi Olim Yunusov, Ulug' Tursunov, E. D. Polivanov, Sobirjon Ibrohimov, V. V. Reshetov, Abdurauf Fitrat, Shonazar Shoabdurahmonov-larning ajoyib tadqiqotlari bor. Shevalarni yakka holda o'rganishda respublikamizdag'i ko'pgina oliy o'quv yurtlari va ilmiy- tadqiqot institutlarining ilmiy xodimlari faol ishtirok etmoqdalar.

Shunday qilib o'zbek xalq shevalarini o'rganishda qo'llaniladigan usullarning eng muhimlari uch xil ekan, degan xulosaga kelish mumkin: a) yakka holda o'rganish; B) tajriba o'tkazish usuli; v) savol-javob usuli.

Kuzatish joyini tanlash. U tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari bilan bog'liq bo'ladi. Agar shevashunos o'z oldiga tarixiy vazifalarni yoritib berishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u vaqtda muayyan shevaning tarixiga oid materiallarni to'plashi lozim. Shu bilan birga, mahalliy xalq ichidagi eng eski an'anaviy shevalarni ham tasvirlab berishi kerak.

An'anaviy shevalar o'zlarining joylashgan o'rinaliga qarab, bir-birlaridan tarixiy, hozirgi nuqtayi nazaridan apcha farq qiladi. Agar biz an'anaviy shevalarni o'rganmoqchi bo'lar ekanmiz, birinchi navbatda ularning asosiy xususiyatlarini tashuvchi shevalar ustida ish olib boramiz. Shuningdek, xalqning ilg'or guruhi – yoshlar va qishloq, faollarning ham nutqi ustida ish olib borishi lozim bo'ladi. Bunday kuzatishlar lajjalardagi xususiyatlarning saqlanganligi, ilg'or aholi nutqida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va aksincha, ba'zi bir so'zlarning yo'qolib borishini ko'rsatib beradi.

Biroq shevani tasvirlash o'z oldiga boshqa vazifalarni ham qo'yadi, ya`ni Shevalarning tarixiy va kelib chiqish tomoniga e`tibor bermay, hozirgi zamon shahar va qishloq shevalarining xususiyatlarini o'rganishni ham o'z oldiga maqsad qilib kuyadi. hozirgi zamon shevalarini tekshirganda, kariyalar va yoshlar, xotin-kizlar, erkaklar va turli kasb egalari bo'lgan kishilarning nutqlari ustida tadqiqot ishlari olib boriladi. Bir guruuh aholining o'zida turli uslublar va lahja turlari bo'lishi mumkin. Ularning turmushdagi erkin suhbatlari, majlislardagi nutqlari, xalq og'zaki ijodi materiallarining tili turlicha bo'ladi. Bunday hollarda ularning har biriga xos bo'lgan muhim til xususiyatlari ham alohida hisobga olinadi.

Shevalarni o'rganishning asosiy yo'llaridan biri shu shevada so'zlashuvchilarning nutqlari ustida ko'zatish ishlari olib borish va ularni yozib borishdan iborat.

Shevashunosning ishi juda og'ir va mas`uliyatlidir. Undan ko'p harakat qilish, ehtiyyotlik bilan ish ko'rish talab qilinadi. U o'ziga ishonch tug'dirishdan tashqari, xalq bilan do'stona munosabatda va mustahkam aloqada bo'lishi lozim. Qishloq faollari orqali keng mahalliy xalq bilan aloqani bog'lanadi. Biroq bu aloqa hali etarli emas. Shevashunos mahalliy xalq bilan aloqani kuchaytirish uchun qishloqning ijtimoiy va ishlab chiqarish hayotidan uzilib qolmasligi lozim.

Tadqiqotching qishloqdagi ishi. tadqiqotchi qishloqqa kelgach, ko'p yozishga o'rinishi shart emas. Aksincha, u bir qapcha vaqt shu shevaning xususiyatlarini tinglashi va kuzatib borishi kerak. Ana shundan so'ng tasodifiy kishilarning nutqiga e'tibor qilmay, shu shevaga oid vakil shaxslarning nutqini o'rgana oladi. Boshlang'ich davning uzoq va qisqaligi shevashunosning yoz oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalari bilan belgilanadi.

Shevashunoslik materiallari to'plash uchun qishloqning tarixi, o'lkashunoslik, ishlab chiqarish va turmushga oid mavzular bo'yicha suhbat qilinadi. Odatda, bir kishi suhbat o'tkazadi, ikkinchi kishi yozib boradi. Materiallar ko'proq butun hayoti shu erda o'tayotgan, ko'p vokealarni boshdan kechirgan kishilarning nutqidan yozib olinadi. Chunki, ularning nutqi bo'zilmagan hamda ularda urganilayotgan shevaga xos xususiyatlar saqlangan bo'ladi. Shuningdek, yoshlar, maktab o'quvchilari, qishloq ziyojilari, jumladan, o'qituvchilarning nutq jarayonini ham ko'zatish va yozib olish maqsadga muvofiqdir.

Sheva vakillarining nutqini kamida 2 – 3 kun k o'zatib boish maqsadga muvofiqdir. Shundan so'nggina yozib olishga kirishiladi. Shevalarning xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi materiallarni yozib olishda 2 – 4 kishidan iborat kichik guruh ishtirok etadi. Ulardan bir-ikkiasi suhbatni boshqarib boradi, qolganlari suhbat materiallarni tezlik bilan yozib olishga harakat qiladi. Shu yo'l bilan ko'plab materiallar yozib olinadi va bu ma'qul usul hisoblanadi.

Materiallarni o'z vaqtida ishlamasdan, safardan so'ng bir necha kundan keyin ishga kirishiladigan bo'lsa, ba`zi materiallarni to'ldirish qiyin bo'ladi, ayrimlari esa uchib ketishi ham mumkin. Bunday vaqtida sheva xususiyatlarini yozib olishga ikkinchi marta borishga to'g'ri keladi.

Sheva materiallari bir kishi tomonidan yozib olingan bo'lsa, uning o'zi tomonidan ishlanadi va ilmiy yozuv bilan ta'minlanadi. Agar bunday materiallar jamoa tomonidan yozib olingan bo'lsa, uning ishlanish jarayoni jamoa tomonidan bajariladi.

TRANSKRIPSIYA HAQIDA UMUMIY MA`LUMOT.

Transkripsiya lotincha so'z (transcriptio) bo'lib, qayta yozish demakdir. Umuman, tarnskripciya ilmiy yozuv bo'lib, bir tildagi hamma nozik tomonlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuzga ko'ra yozib olish degan ma`noni beradi. Geografik va tarixiy nomlarning rejada va xaritada berilganiga moslashtirib yozib olishda ham ilmiy yozuvdan foydalaniladi. Bulardan tashqari xalq og'zaki ijodiyoti materiallarni yozib olishda va biror musiqa asbobi uchun yozilgan asarni boshqa bir musiqa asbobiga moslab qayta yozish ham tushuniladi. Ularning talaffuzini yozuvda berish uchun belgilar sistemasi qo'llaniladi. Shunday qilib, odatda, biror narsaning ilmiy

asosda yozib olinishiga transkripciya deyiladi. Bu mazkur so'zning umumiyligi va keng ma`noda qo'llanilishidir.

Bu atama tor ma`noda ham qo'llaniladi. Uning tor ma`nodagisi faqat lahja va shevalarning o'zlariga xos tomonlari, xususiyatlarini talaffuzga moslab yozib olish tushuniladi. Bunda u yoki bu tilda mavjud bo'lgan alfavitdagi belgilar etarli bo'lmaydi. Shunga ko'ra, lotin, rus va o'zbek tili alfavitlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab qilinadi. Bu belgilar odatda mavjud alfavitdagi harflarning ustidan, yonidan va tagidan shartli belgilar quyish yo'li bilan amalga oshiriladi. Yoki boshqa alfavitdan shartli ravishda belgi (harf) qabul qilinadi. Natijada ilmiy yozuvda belgilar soni asos qilib olingan alfavitdagi belgilar sonidan ko'p bo'lishi mumkin.

Transkripciya bilan transliteraciya o'zaro mustahkam bog'liqdir. Transliteraciya so'zi ham lotincha bo'lib, orqali, vositasi bilan va harf ma`nolarida keladi. Ikki atamani bir-birlari bilan almashtirmaslik kerak. Ular bir-birlariga o'xshash bo'lsa ham, o'z xususiyatlari jihatidan bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Chunki transkripsiya til yoki lahjadagi tovushlarning turli ko'rinishlarini talaffuziga moslab yozish, ya`ni uni yozuvda ifodalash uchun foydalaniladi. Transliteracyada esa tilimizning turli davrlarda yozib qoldirilgan yodgorliklarini, masalan, O'rxun-Enasoy arab yozuvidagi yozma yodgorliklarni hozir amalda bo'lgan yozuv tizimi bilan ifodalash ko'zda tutiladi. Bunda bir yozuv ikkinchi bir yozuv harflari bilan o'quvchilarga tushunarli alfavitga keltiriladi.

Qiyosiy va tarixiy grammatika, filologiya lug'atlar tasvirini izohlab va nashr etishda ham transliteraciya ishlataladi.

TRANSKRIPSIYANING TURLARI.

Transkripsianing bir qapcha turlari bor. Tekshiruvchining vazifasi va maqsadlari bilan bog'liq holda uning turli ko'rinishlari qo'llanilishi mumkin. Masalan, qardosh tillarning fonetikasi, aniq bir tilning fonetikasini tarixiy jihatdan bayon etishda fonetik transkripciyadan foydalaniladi. Lahja va shevalarni yozib olish va ularni tahlil etishda esa faqat transkripsiya bilan ish ko'rildi. Xalq orasida nomi keng tarqalgan dostonlar, ertaklar, termalar va boshqa xalq og'zaki ijodi materiallarini yozib olishda, nashr etishda ham fonetik transkripsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Aks holda ularning qimmatiga putur etadi yoki kamayadi.

Fonetik transkripsiya boshqa maqsadlar uchun ham qo'llaniladi. Masalan, fransuz, ingliz kabi chet tillarni o'rganishda ishlataladi. Bu o'rinda L. V. Shcherbaning «Fonetika franc uzbekskogo yazika» asarini o'tish o'rinnlidir.

Ma'lumki, fonetik transkripsiya keng doirada qo'llaniladi. Lekin fonetik transkripsiya o'z xususiyati nuqtayi nazaridan bir xil emas. Ba`zi bir fonetik transkripsiylar aniq bir til yoki lahja uchun mo'ljallangan bo'lib, u nisbatan tor doiraga ega bo'ladi. chunki undagi shartli belgilar faqat shu tor doira uchun moslab olingan bo'ladi. Ayrim fonetik transkripciyalar keng miqyosda qo'llanilishi mumkin. Ular lotin alfaviti asosida tuzilgan bo'lib, xalqaro fonetik alfavit (XFA) deb yuritiladi. Bunday transkripsiya, so'zsiz, keng doirada qo'llaniladi va uning ahamiyati cheksizdir. Ana shunday transkripsiyalardan biri akademik L. V. Shcherba tomonidan yaratilgan. Uning transkripsiysi boshqalarga nisbatan birmuncha afzalliklarga ega va ommaviy ahamiyat kasb etadi.

Turkiy tillarni o'rganishda turqologlar tomonidan turlicha transkripciyalar qo'llanilgan. Ularning ko'plari lotin alfavitiga asoslanib ishlangan transkripsiyalardir.

Ba`zilari esa har bir aniq tildagi alfavit asosida berilgan. Masalan, G`ozi Olim Yunusov, N. A. Baskakov, S. Ibrohimov, V. V. Reshetov kabilarning bu sohadagi tajribalarini qayd etish kifoyadir. Ulardan V. V. Reshetovning transkriptsiyasi keng doirada ishlataladi. Hozirgi vaqtda oliv o`quv yurtlarida o`tiladigan mashg`ulotlarida, ilmiy tajriba vaqtlarida va har xil ilmiy tekshirishlarda amalda ana shu transkriptsiyalardan foydalanipladi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Lingvistik geografiya nima ?
2. O`zbek shevalari atlasi deganda nimani tushunasiz ?
- 3.O`zbek shevalari kimlar tomondan xaritalashtirilgan?
- 4.Transkriptsiyaning qanday turlarini bilasiz ?
- 5.Fonematik transkriptsiyadan kam ishlatalishining sababini tushuntiring ?
- 6.Fonetik transkriptsiyaning qanday afzalliklari bor ?
- 7.Shevani o`rganishda tadqiqotchi nimalarga e'tibor berishi kerak ?
- 8.Kuzatish ishlarini olib borishda, geografik joyning o`rni ?

Tayanch tushunchalar:

Atlas – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o`quv quroli.

Izoglossa – til,sheva faktlarining teng kelish holatlari.

Lingvistik geografiya – o`zbek shevalarini o`rganishning bir metodi , shevalardagi til faktlarini maxsus o`rganadigan soha.

Birinchi bo`lib dunyoda Jyul Jileron fransuz tilining dialektal xaritasini tuzadi.

Shevaning nozik fonetik tomonlarida o`rganishda transkriptsiyadan foydalanipladi.

4 – MAVZU ShEVALARNING FONETIK XUSUSIYATLARI.

Reja

1. O`zbek shevalaridagi va adabiy tildagi unlilar munosabati.
2. O`zbek xalq shevalarining konsonontizmi.
3. Fonetik qonuniyatlar.

Adabiyotlar.

- 1.Reshetov V V,Shoabdurahmonov Sh . “O`zbek dialektologiyasi” , Toshkent, “O`qituvchi”,1978 -yil
- 2.Mirzayev M M , “O`zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969- yil.
- 3.Ashirboyev S, “O`zbek dialektologiyasi”Toshkent, 2000 -y / ma’ruza matni/
- 4.Rajabov N “O`zbek shevashunosligi” Toshkent, “O`qituvchi” 1996- yil.
- 5.Murodova N “O`zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”,Toshkent , “Fan”2007- yil
- 6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997 -yil.

Adabiy til va shevalarni o'rganish ilmiy - nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham unli tovushlar tarkibi bilan mustahkam bog'langan. Tilshunoslikning hamma bo'limlarini bir - biriga bog'lab o'rgangandagina ularning taraqqiyot qonunlarini to'g'ri tushunish mumkin. Morfologiyadagi egalik kategoriyalari, ularning turlanish, so'z yasash, leksikasida esa so'zlarning ma`nolarini o'rganish, so'zlarning turli – tuman shakllarini aniqlash kabi masalalarni fonetik qonunlarini hisobga olmasdan turib tasavvur etish qiyin. Bu hol, ayniqsa shevalar uchun muhimdir.

Qarluq - chigil – uyg'ur lahjasida unli tovush uyg'unligi yoki ohangdoshlik hodisasi uchramaydi. Shuning uchun ham ulardagи unlilar miqdori ko'p emas, unlilar fonemasining soni 6-8 dan oshmaydi. Jumladan, Toshkent shevalarida oltita (' , e, u, o), Namangan shevasida sakkizta (^, a, o, u, e, `), Marg'ilon shevasida ettita unli (^, a, o, u, e) fonema bor. Bu shevadagi unli fonemalar sifat jihatidan farqlanadi. o'zlariga xos xususiyatlar alohida qayd etiladi. Buxoro, Urgut, Qarshi, Xo'jand, Chust shevalarining unlilar tarkibida ham oltitadan unli fonema bo'lib, ular miqdori jihatdan Toshkent va Samarqand shevalardagi holatga tengdir. Vodiy va Jizzax shevalari, Toshkent atrofidagi ayrim (Parkent, Piskent, Chinoz) va Qarnob shevalarida unlilar Toshkent shevasidagi singaridir, Qo'qon va Marg'ilon shevalarida esa unli fonemalarining soni yuqorida keltirilgan shevalardan bitta ortiqdir. Unda a fonemasi ham ishlatiladi.

Yuqorida qayd etilgan shahar shevalaridagi unlilarning ko'plari g'arbiy Samarqand qarluq – chigil – uyg'ur shevalarida ham qo'llaniladi, ba`zilarida esa uchramaydi.

A) Bu guruh shevalaridagi ... fonemalarining qo'llanilishi Toshkent shevasidagi fonemalarining qo'llanilishiga mos keladi;

B) Yuqoridagi guruhni tashkil etuvhi shevalardagi ikki unli fonema o'rnida Marg'ilon shevasida uch fonema (.. a) qo'llaniladi;

V) ` , e, o, u fonemalari yuqoridagi shevalarning hammasida ham bir xil ishlatiladi.

G) Namangan shevasidagi .. unli fonemasi g'arbiy Samarqand, Toshkent, Marg'ilon shevalarida uchramaydi.

Qipchoq shevalarida 10 ta unli fonema qo'llaniladi:

a - e, o - e, u - u, iu - i, s - e. Bu shevalarda unlilar ohangdoshligi hodisasi saqlangan, lab va qisman ohangdoshligi mavjud. Shunga ko'ra, unli fonemalarining sakkiztasi juft holda qo'llaniladi. Bu o'zbek tilining hamma qipchoq shevalari uchun umumiyl xususiyatga ega. Bunda ularning ba`zilarida hali s fonemasining to'la shakllanib etmaganligini qayd etish mumkin. Natijada s va a unlilarning almashinib qo'llanish holatlari ko'zga tashlanib turadi. Shunday qilib, shevalarning materiallarida tovushlarning o'zgarishi jaranglashish yoki jarangsizlanish, tushib qolish yoki orttirilish, o'rin almashish yoki kuchsizlanish kabi hodisalarning nutq jarayonida hosil bo'lishi, ohangdoshlik, undoshlarning o'rin almashishi, assimilyasiya, dissimilyasiya, qo'sh undosh kabilarni qamrab oladi.

FONETIK JARAYONLAR. PROTEZA

Proteza hodisasi Qarnob, Burgut Uyshun, Ming – Mang'it, Xitoy, Qirq, Saroy, Nayman, usmjniy - turk, Xo'jatug, Ispanza, Yangiravot kabi qarluq- chigil – uyg'ur,

qipchoq hamda o'g'uz guruh shevalari vakillarining talaffuzida ko'plab uchraydi. Ushbu shevalarda ikki yoki undan ortiq undosh tovushlar(r hamda ayrim sirg'aluvchi tovushlar) so'zning boshida kelganda, talaffuz qulaylik tug'dirishi uchun titroq r va boshqa xil sirg'aluvchi undosh tovushlardan oldin iu, i, o, u, y, kabi unli fonemalardan biri orttiriladi. Bunday o'zgarishlar o'zlashtirma so'zlarda ko'proq uchraydi. Masalan, ishkep-shkaf, `r`sk`- rizk, `r`skul- rizkul, stul va stol – ustel, smega – itsmete, sirga – isirga (qipchoq) kabilar. Adabiy tilda ro'mol, r o'zak so'zlari qipchoq shevalarida uramal, oraza tarzida qo'llaniladi. O'g'uz shevalarida bu so'z protezaga uchramaydi, balki sof holda romal, roza tarzida qo'llaniladi.

Rus tili orqali kirib kelgan stol o'zida esa bu qoidaga amal qilinmaydi, ya`ni stol so'zi ham o'g'uz shevasa vakillari talaffuzida proteza hodisasiga uchraydi va uester deb qo'llaniladi.

Demak, boshqa shevalardan farqli o'laroq, o'g'uz lahjasi bu shevani chetlab o'tadi. Qiyqim (Ishtixon tumani), Ming(Urgut tumani), Qipchoq va Burkut (Poyariq tumani) shevalarida ham ikki undosh ketma- ket, qator kelgan har bir so'zning oldida bir unli tovush orttirish hodisasi uchraydi. Bunday xususiyatlar Toshkent, Andijon, Uychi, Vodil, Parkent singari o'zbek shevalari materiallarida ham uchrab turadi.

EPITEZA

Epiteza hodisasi o'zlashtirilgan so'zlarda mavjud bo'lib, ular Qarnob, Ispanza, Baxmal, Saroy, Qirq, Mang'it, Parkent, Vodil, Andijon, Kattaqo'rg'on kabi shevalar vakillarining talaffuzida aniq seziladi.

Masalan, o'zbek adabiy tilidagi bank va propusk so'zlari Urgut va Ispanze shevasida banka, propuska tarzida qo'llaniladi, yoki Qarnobliklar bu so'zlarni benke, proposke deb talaffuz etadilar. Parkent shevasining vakillari bonke hamda propuske tarzida talaffuz etadilar.

O'zbek tilining Mang'it hamda Vodil shevalarida mazkur hodisa bir muncha chegaralangandir. Masalan, Vodil shevasi vakillirining talaffuzida boshqa shevalardagi kabi otpuskege elbete boremen, bonkeden piuld`old`zm` kabi so'zlardagina uchraydi.

Epiteza hodisasi Samarqandda: ucheske - uchastka, otpuske - otpusk, kabi; Qarnobda: `sp`ske - spisok – ruyxat, benke - bank, k`eske - uchastok singari; Urgutda; kiyeska - kiosk, otpuska - otpuk,banka- bank kabi.

Yuqoridagilar kabi epiteza hodisasi Andijon shevasi vakillarining nutqida ham uchraydi. Masalan, otpuk (ad. imloda: ta`til) – etpuska, uchastok – uchestke - uchesteke, kios - k`eske, propusk - p`ropuske.

Epiteza hodisasini qator o'zbek shevalarida uchratganimizdek, o'zbek adabiy talaffuzida ham mayjud ekanligini qayd etmog'imiz lozim. So'z oxirida qatorlashib kelgan ikki undoshdan keyin a unlisini qo'shib talaffuz qilinadi. Bu hol ko'pincha undoshlarning sk, nk.shakllaridan so'ng yuz beradi. Masalan, otpusk - otpuska, blank - blanka, tank - tanka, bank- banka kabi.

Shuni aytish kerakki, 1956-yilgi o'zbek tili imlosi me`yori qonunlashganiga qadar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham epiteza hodisasi hisoblangan so'zlar faqat lahja va shevalar bilan bog'lanar edi. 1956 -yildan boshlab o'zbek adabiy tili qoidasi qabul kilindi va to'la rasmiy tus oldi.

Qisqasi, epiteza hodisasi o'zlashtirilgan so'zlarda ko'proq mavjud bo'lib, o'zbek xalq shevalari vakillarining talaffuzida uchraydi.

EPENTEZA

Epenteza hodisasi o'zbek tilining hamma shevalarida qo'llaniladi. ayniqsa, Qarnob, Xo'jatug', Qang'li, Baxmal, Mang'it, Ming kabi shevalarda esa u yanada oydinlashadi. Masalan, adabiy tilidagi davr so'zi Qarnob shevasida esa duvir shaklida uchraydi.

Qiyos kiling: Qarnobda – dekelet, kerektr, t'renvey; Urgutda – daqolot, tirektir, tiranvoy. Adabiy tilda - doklad, traktor, tramvay.

O'zbek tilining Kattaqo'rg'on va uning atrofidagi shevalarda ham xuddi Qarnob va Urgut shevalaridagi singari epenteza hodisasi kuchli saqlangan. Masalan, `skelet - skalad, kensert - koncert kabi.

Yuqoridagilar singari fonetik hodisalarni G'allaorol tumani Qang'li qishloq shevasida ham ikki undosh o'rtasida bir i unli fonemasining orttirilib talaffuz qilinishini ko'ramiz. Masalan, ilm- ilim, kosib- kasb- kesip, kaft- kepit kabi.

Shuningdek, o'zbek tilining qipchoq shevalari vakillarining talaffuzida ham i, a, u unlilari chetdan qabul qilingan so'zlarda orttirilib talaffuz qilinishi xosdir. Masalan, rus tilidan qabul etilgan traktor - tirektir taraktiur, krovat` – kerevet kerevet, plenum - pilinum pul`num, zveno - zuvine z`v've kabi so'zlarda ko'rindi.

Epenteza hodisasi birgina o'zbek xalq shevalari uchun xos bo'lib qolmasdan, balki boshqa turkiy tillar uchun ham xosdir. Masalan, yoqt tilida birat - mladshiy brat, kilass – klass, kulus – klyuch, kiurabaat – krovat`, yoqt tili shevalarida esa ispiravka – spravka, pumala - smola kabilar uchraydi.

Epinteza bir shevada ko'proq mavjud bo'lsa, ikkinchisida nisbatan kamroq bo'ladi.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tilida yonma - yon kelgan ikki undosh tovush o'rtasida qipchoq shevalarida, ayniqsa, Mang'it shevasida ` , a, u, singari unli tovushlarni qo'shib talaffuz qilinadi. Masalan, aks - ekis, asl-es`l, kasr - kos'r, akl - akiul, krovat` - kerevet kabi.

Biroq, o'zbek tilining Vodil shevasida esa bu hodisa nisbatan kamroq uchraydi. Bori ham so'z o'rtasi va so'z oxirida yonma-yon kelgan undoshlar orasiga bir unli qo'shib talaffuz etish natijasida vujudga keladi. Masalan, o'g'limni konspekt daftari yo'q kabi.

Qisqasi, epenteza hodisasi maktab, maorif va matbuotning ta`siri tufayli o'zbek xalq shevalarida tobora chegaralanib bormoqda. Ular hozirgi kunda keksalar nutqida uchraydi. O'quvchi, talaba va boshqa ma'lumotli kishilar nutqida borgan sari kamayib bormoqda.

SINKOPA

Sinkopa hodisasining hosil bo'lishi bevosita urg'u masalasi bilan bog'langan bo'ladi. Urg'usiz bo'g'inlarda bir unli fonemaning tushib qolishi sinkopa hodisasi hisoblanadi. Masalan, maorif – merup// mer`p, Fotima – petme, silos – sles kabi. O'zbek tilining Kattaqo'rg'on, Qarnob, Parkent, Urgut, Mang'it kabi shevalarini va o'g'uz lahjasini olaylik. Bu shevalar vakillarining talaffuzida ayrim so'zlardagi ba`zi tovushlarni

ishlatmaslik hollari (sinkopa) ko'plab uchraydi. Masalan, Parkent shevasida: kutubxona – biblioteka – bubbleteke, billiard – bil`yart (Sh. Afzalov kuzatishicha) tarzida qo'llaniladi.

Shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'lllarining ikkinchi bo'g'inidagi i, iu, u, u unlilar talaffuzda bevosita tushib qolishi natijasida vujudga keladi. Masalan, chaqiraman – chaqraman, yuguraman – Yugremen, o'tiraman – otraman kabi.

Yuqoridagi kabi buyin, og'iz, egin, burun, korin kabi so'zlarning ikkinchi bo'g'inidagi unli tovush shu so'zlarga yangi bo'g'lnlarga egalik qo'shimchasi qo'shilgach, urg'uning bevosita yangi bo'g'inga ko'chishi bilan kuchsizlanadi va tushib qoladi. Bu adabiy til uchun xosdir. Masalan, buyin – buyni, og'iz – og'zi, egin – egni, burun – burni, o'rini – o'rni, qorin – qorni kabi. O'zbek xalq shevalari materiallarida bu hodisa keng ko'lamda ishlatiladi.

Sinkopa hodisasi o'zbek tilining qipchoq hamda qorluq-chigil- uyg'ur lahjalari materiallarida ko'p hollarda bir xil xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, adabiy tilda «xaridor» so'zi qipchoq shevalarida hardar – hariudar, Toshkent shevasida xerder, Namangan shevasida xerdor shakllariga ega bo'ladi.

Shuningdek, so'z o'rtasida yonma-yon kelgan ikki unlidan biri kuchsizlanadi va ikkinchisi cho'ziq talaffuz qilinadi. Yuqoridagi holatlar turli o'zbek shevalari materiallarida uchraydi. Lekin sinkopa o'zbek adabiy tili tarixi taraqqiyoti bosqichida mayjud bo'lib, adabiy til uchun o'ziga xos xususiyat hisoblanadi.

APOKOPA

So'z oxirida tovushlarning tushib qoldirilishi urg'uning odatdagidan boshqacha bo'lganligi sababli yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda so'z oxirida urg'usiz unli yoki bo'g'in talaffuzda kuchsizlashadi va tushib qoldiriladi. Bu apokopa hodisasıdır.

Ma'lumki, apokopa hodisasi butun o'zbek shevalari uchun xos hodisa sanalib, qisman o'zbekcha, ayniqsa, baynalminal so'zlarda ko'plab uchraydi. Shuningdek, Payshanba, Uyshun, Nayman, Qarnob, Xo'jatug', Chuvallok, Parkent, Mang'it kabi shevalarda bu fikr yanada oydinlashadi.

O'zbek tilining qipchoq shevasida o'zlashtirilgan ayrim so'zlarda unli tovushlar so'z o'rtasida ham, tushib qoladi. Masalan, minuta – minit, gazita – gezit, mashina – mashiun, apteka – aptik kabi. Urgut shevasida ham mino't, gazit, meshin, eptik tarzida ishlatiladi. Masalan, gazetti elli, mashin minan elip kelli kabi. Shuningdek, gazeta – gez't, mino'ta – m'n't, mashina – mesh'n, kvartira – kuvert'r, telegramma – telegram kabi apokopa hodisasi Qarnob, Chuvalloq, Kattaqo'rg'on tumani ayrim jamoa xo'jaliklaridagi qishloq shevalarida hamda Uyshun shevasi vakillari talaffuzida bir a unlisining tushib qolishdan hosil bo'ladigan o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. 1905 – 1917 yillardagi adabiy til materialarini olaylik. Bu davrda ham, tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, apokopa hodisasi yuz bergen. Jumladan, o'sha yillarda rus tili orqali kirib kelgan kvartira, palata, fabrika, granat, kontora, minuta so'zlari kuvartir, palat, pabrik, giranat, kontor, mino't shakllarida qo'llanilgan.

ELIZIYA

Eliziyaning hamma turlari o'zbek lajja va shevalari uchun xos bo'lib, ularning deyarli hammasi uchraydi:

A) eliziyaning bиринчи турига: о’та олмайди – отолмайд`// отелмейду, шу ерда – ше:r, бу yokka – беке, шу yoqqa – sheqe, бу er – be:r кабилар киради;

Men sheqe boremen (Marg’ilon), sen shatte turetur (Jizzax), беке ke, akke kett` – kettene, ettete (Uychi) каби. eliziyalanish hodisasini Urgut va Samarqand shevalarida ham ushratamiz: бора олмай – borolmay, бу yoqdan – baxdan, оlti oy – oltoy, yoza oladi – yozoladu, yozayotgan – yozotkan, kila oladi – k`loladu so’zlarida u va a unlilari to’liq eliziya hodisasiga uchrayapti. Masalan, bizlar kecha borolmay qolduk; she:ga//she:rga bizardi tushurdi, sogra buyozotkan kishi aytти; be:rga kel (Samarqand); oltoygacha moshin xaydamayman; she:k karap kelaverdi. Mardonqul xatti yozoladu (Urgut) каби.

Bu hol Kattaqo’rg’он tumani qipchoq shevalarida ham mavjud. Masalan, shaxta, manaxta, sheke, biyeke, ketuvdii, ekkilevdi, eytkendim кабилар Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi Nayman shevalari vakillarining talaffuzida ham unli tovush bir vaqtda yonma-yon kelsa, бира tushib qoladi. Masalan, бора oladi – baraladi; qola oladi – qalaladi кабилар;

B) ikkinchi turiga: bu erga – bu:rda, u er – u:r, qaysi er – qe:r (Qarnob) кабиларни ko’rsatish mumkin;

V) eliziya hodisasining bu turi ham o’zbek xalq shevalari materiallarida uchrab turadi. Bu to’liqsiz fe’llarning mustaqil so’zlar bilan birikma holda kelishi bilan bog’liqdir: bo’lar ekan – boleyken, bir edi – b`rd`, shuning uchun – shun`ychun, olgan edim – olgend`m кабилар. Shevadagi kelgan edim – kelgend`m, yuvib kel – yubke, o’qir ekan – ak`yken кабилар ham eliziya hodisasiga xosdir.

Yuqoridagi singari xususiyatlar o’zbek tilining Poyariq tumanidagi qipchoq shevalarida ham uchraydi; bunday paytda bиринчи so’zning oxiridagi unli fonema tushib qoladi va har ikki so’z va o’zagi, bir bosh urg’u bilan aytildi. Masalan, to’liq ot, torat – toriat; Solih aka – Soli aka – Salaka, Malla aka – Melleyeke – Meleke кабилар deyarli hamma qipchoq shevalari uchun xosdir.

Bunday xususiyatlar arab tilidan kirgan va birdan ortiq o’zakdan yasalgan kishi otlarida ham uchraydi. Masalan, Abdusattor –Epsetter – Epsettore, Podsho Ali – Poshsheli// Posheli, Abdualim – Abdalim// Ebdelim, Abdulla aka// Ebdelem singari.

Yuqoridagilardan tashqari, o’zlarining paydo bo’lish yo’llari xarakterli bo’lgan eliziya hodisasining mavjudligi ham ko’zga tashlanib turadi. Masalan, Toshkent, Jizzax, Shahrисabz, Qo’qon каби shevalarda ene shu – ensh` tarzida uchraydi. Andijon shevasida esa one shu - ensh`/esh` shakliga ega bo’ladi. O’g’uz guruh shevalari materiallarida ene shu/ enshu deb ishlatalidi. Qipchoq shevalaridagi nimish – nima ish, bag’da ochiugan – bog’da ochilgan, ekqliuniu – ikki qo’lini, shakkarap – shu yokka qarab кабилар ham eliziya hodisasi bilan bevosa bog’liqdir.

V. V. Reshetov o’zbek tilining qipchoq shevalarida eliziya hodisasining bir muncha kengroq qo’llanilishini alohida ta`kidlaydi. Chunonchi: hardar – haridar, Namanganda – xordor, adabiy tilda – xaridor; xemsha – xemishe, adabiy tilda – hamisha. qorluq-chigil-uyg’ur shevalarida esa olt`ov – oltov;

eliziya hodisasi boshqird, turkman, tatar tillari materiallarida ham mavjud. Chunonchi, boshqird tillarida kilgeynom – kelgennem, turkman tilida: meninchun – meninuchin, tatar tilida: nerse – neirse каби. Shuningdek, ozarbayjoncha: abri – abiri, anri – anari, grov – girov; no’g’ay xalq shevalarida: burni – buruni, vaqtı – vaqio’ti; brev – biravi, oturshi – oturushi каби.

UNDOSHLAR TARKIBI.

O'zbek shevalaridagi undosh fonemalar, asosan, adabiy tildagi holatga mos keladi. Unda hozirgi adabiy tildagi ba`zi undoshlar qo'llanil-maydi. Shevadagi c, f, j undoshlari shular jumlasidandir. O'zbek adabiy tilidagi c undosh tovushi bu shevalarda ham ts yoki s undoshlari tarzida ishlatiladi. Shevalarda mustaqil fonema sifatida k o'zga tashlanmaydi va p undoshi bilan almashinib keladi. U ba`zi bir yachiy hamda undov so'zlarda hamda o'zlashtirilgan bir necha so'zlarda ham uchraydi, holos. Samarqand – Buxoro shevalari esa bundan mustasnodir. Adabiy tilimizdagi j undoshi shevada j va j deb ikki xilda qo'llaniladi.

J – undoshi boshqa tillardan fors, arab va rus tili orqali kirib kelgan ba`zi bir so'zlardagina keladi. J undoshi qipchoq guruhi shevalarida ko'proq ishlatiladi. Qipchoq guruhini tashkil etuvchi shevalarning ayrimlarida x tovushi o'rnida k, boshqa bir xildagi shevalarda esa k undoshi o'rnida k undoshi keladi. qolgan undosh tovushlarning hammasini o'zbek adabiy tilidagi holatdan deyarli farq qilmaydi. Ularda uchraydigan ayrim o'zgarishlarga duchor bo'lib turadi.

FONETIK JARAYONLAR.

ANAKOPA.

Anakopa so'z oxirida keluvchi undosh tovushlarning tushib qolish hodisasiidir. Bu fonetik hodisa o'zbek lahja va Shevalarida mavjud. Jumladan, AndijonShevasida ll, ss, mm, zd, st kabi undosh fonemalar o'zaro birikib kelganida, o'sha biriktirilgan undoshlardan biri tushirib talaffuz qilinadi. Masalan, gramm – g'rem, poyezd – poy'z kabi.

Ba`zi Shevalarda bir bo'g'inli so'zlar oxirida ham anokopa hodisasi uchraydi: to'rt – to'r, qasd – qas, rost – ros, kel – ke, do'st – do's, g'isht – g`sh kabi.

O'zbek xalq Shevalari vakillarining talaffuzida qator unlilarning so'z oxirida keladigan t undoshi talaffuzda tushib qolishi xosdir. Samarqand viloyatidagi UyshunShevasida: dust – dos, gusht – gosh, YomShevasida: gusht – gosh, poytaxt – poytax; VodilShevasida: Toshkent – Toshken, juft – jup; Farg'ona, Andijon, Qo'qonShevalarida: kaft – kep; UrgutShevasida: gusht – gosh, payvand – payvan; SamarqandShevasida: Samarkan, posh`s, darax; Bulungur tumani Yangiravot qishloqShevasida: pas – pes, gisht – giush, Toshkent – Teshken, gusht – gosh tarzida talaffuz qilinadi.

ASSIMILYATSIYA. Assimilyatsiya hodisasi undoshlarning yon tovush ta'sirida yumshalishi, jarangli va jarangsiz bo'lismi, paydo bo'lismi o'rniga ko'ra o'zgarishi natijasida yuzaga keladi. Assimilyatsiyani progressiv va regressiv, to'liq va qisman deb farqlarga ajratish mumkin. Assimilyatsiya hodisasini shu tariqa guruhlashtirish odat tusiga kirib kelgan, barcha darslik va qo'llanmalarda shu holga rioya qilinadi.

1. Progressiv assimilyaciya. Bunda so'zlarda oldingi tovushning bevosita ta'siri natijasida keyingi tovush o'z xususiyatini o'zgartiradi va oldingiga o'xshash tovushga aylanadi. Masalan, ld – ll: soldat – sollat, td – tt: o'tdi – o'tti, nd – nn: shundan – shunnan – unnan kabilar.

Ular Toshkent, Namangan, Qarnob, Yom, Nayman, Xorazm, Uychi, Baxmal, Burko't, Qang'li, Urgut, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Ispanza, Yangiravot kabi

shevalarda ishlatalishi bilan ajralib turadi. Biroq mazkur hodisaning tarqalish doirasi bir xil emas.

qorluq-chigil- uyg'ur guruhi shevalarida Kattaqo'rg'on shevasi vakillarining talaffuzida esa mazkur hodisa ko'proq uchraydi. hatto, Shevachilikda eng kam tajribaga ega bo'lgan kishi ham buni tezda farqlay oladi. Masalan, bo'ldi – boll`, oldi – oll`, shunday – shunnayey, nonday – nonney, indamay – innemay, bu yokka – bakka, sandan – sennen, jondan – jonney, sanday – senney kabilar.

Progressiv assimilyatsiya Samarqand viloyati Ming hamda Uyshun shevalari vakillarining talaffuzida ham mavjud. Masalan, aldadi – elledi, soldat – sollat; Saroy, Mang'it, Xitoy, Nayman shevalarida: ishim tuvriu dep mani allama; avkattiu tes – tes jeger; jetti olcheb bir kes degan maqol bor; exmet xemme nerselerni sattiu va boshqalar.

Qiyos qiling:

Urgut shevasi	Burkut shevasi	Adabiy til
Chomma	Choppa	Chopma
Ottiu	Atti	Otni
Ottei	Attei	Otdan
Sotti	Sotti	Sotdi
Etti	Jetti	Etti

Bunday assimilyaciya hodisasi qo'mik, boshqird kabi turkiy tillarga ham xosdir.

DISSIMILYASIYA.

Bu hodisa ham o'zbek shevalarida ma'lum darajada uchrab turadi. Qarnob shevasida: zarur – zaris, kassir – kest'r, amma – embe, zarar – zelel; Urgut shevasida: zarur – zalul, bilan – minen; Parkent shevasida: zarar – zalal kabilar.

Dissimilyasiya hodisasi Yom, Xorazm, Niyozboshi, Ming kabi sheva vakillarida nisbatan kam uchraydi. Masalan, zarar so'zi Xorazmda zelel, Niyozboshi, Ming shevalarida zelel/zerel shakllariga ega bo'ladi.

Qipchoq lahjasida dissimilyasiya hodisasi apcha keng tarqalgan. Masalan, nodon – leden, zarur – zeril, biror – biuran, kassir – kestir, mumkin – munkin kabi.

Dissimilyaciya hodisasi assimilyaciya kabi ikki xil: progressiv va regressiv dissimilyaciya shaklida bo'ladi.

Progressiv dissimilyasiya: zarar – zerel//zelel, zarur – zerul//zeril kabi.

Regressiv dissimilyasiya: cht >sht: uchta – ushte, pochta – poshte (qorluq-chigil- uyg'ur); gu > vu: bugdoy – buvday; gm > ym: tugma – tiyme, tegma – tiyme; gn > yn: igna – iyne, egnim – iynam (qipchoq) kabilar.

METATEZA.

O'zbek tilida metateza u yoki bu so'z tarkibidagi undosh tovushlarni o'zaro o'rinn almashtishidir. Masalan, qarluq-chigil- uyg'ur lahjasida: tuproq – turpok, yomgir – yogm'r, aylanay – eylenay, daryo – deyre//dere, supra – surpe, dunyo – duyne, devor – devol shakllari uchraydi.

Bu fonetik hodisa til taraqqiyotining yaqin davrlari ichida paydo bo'lmasdan, balki juda qadimgidir. Chunonchi, «Devoni lug'otit turk» da ham metateza hodisasi mavjud

bo'lib, uning qadimiyligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Ushbu borada Mahmud Qoshg'ariyning quyidagi so'zlari muhimdir: «Kajo qabilasi bug'doy so'zini budg'oy talaffuz qiladi. U qabila kishisini bilish uchun shu so'zni ayttirib ko'rish ham odat edi» (II, 9 - bet).

Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi o'rgan so'zi «Devoni lug'otit turk» va « Qutadg'u bilig» da ug'ran shaklida ishlatilganligini ko'ramiz. Shuningdek, yomg'ir so'zi XI asr yozma yodgorliklarida yog'mir < yog'mir deb ishlatilganligi aniqdir.

SPIRANTIZASIYA.

Spirantizasiya hodisasi bir portlovchi undosh tovushning portlovchilik xususiyatini yo'qotib, sirg'aluvchi tovushga o'tishi natijasida sodir bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, bu hodisani undoshlarning yumshoqroq talaffuz etilishi deyish o'rinnlidir.

Qipchoq shevalarida: f > p: fabrika – pebrike, fo'tbol – po'tbal; k > x: kunori – kexneri//ke:neri, maktab – mektep; k > y: eshagiga – eshsheyine//eshshegiga; b > v: sabr qildi – sevir kildi; ch >sh: uch – ush, chuchka – choshka, och – ach//ash, kuch – qo'sh; k >x: ekinner gulge kiredigen vax bop kavdiu: erpe talkanniu//talkanniu tuyup mekkege ketedi kabi.

Qorluq-chigil-uyg'ur shevalarida: k > x: k`z eytt`k`, undey mexsed`n`zbose eytt`n; qol`n`z b`len y`n; eltoy saxlan bersay`r ded`; ch >sh: kochdi – kasht`, ichdi – `sht`; t > ch: tish – ch`sh (Marg'ilon); k > x:shoy` koylekt` k`y`p Toshkan bormoxch` voll`m: kal katta akas`ya xurmayi kat`x alip borgan chokka yolga yogmir yokkan (Qarshi); u kishinan meni korketkon jey`m yox; kob don kimesulle; qolini pichox kesip ketipto (Shaxrisabz); men butun bel`xler` podshos` ed`m (Namangan); ishka chixtillama (Urgut); exm`lt`x, korem m`lt`x ot`shem`s yor – yor ; dolege ch`x degende, bezgely kur`sh kiled` (Farg'ona) kabilar.

QO'SH UNDOSHLILIK.

Bu fonetik hodisa so'zlarning o'rtasida ikkita bir xil undoshlarning qo'shaloq holda kelishidan hosil bo'ladi. Bu xususiyatni o'zbek adabiy tilidagi so'zlarda ham, o'zbek xalq shevalaridagi so'zlarda ham uchratish mumkin. Shevalarda ularning hosil bo'lishi turli xil fonetik o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham, o'zbek xalq shevalari materiallarida undoshlarning qo'shaloq holda kelishi adabiy tildagiga qaraganda ko'proq uchraydi. Masalan, cassir, chinni, ittifoq kabi so'zlar qator shevalarning materiallarida kest`r (qorluq-chigil- uyg'ur), chinni, intiupak (qipchoq) deb qo'llaniladi va o'zidagi, ya`ni qo'shaloq kelish xususiyatini yo'qotadi. Shuningdek, adabiy tildagi «tizza» so'zi ko'pincha shevalarda t`z (Qarnob) deb qo'llaniladi. Janubiy Xorazmda dyz deb qo'llaniladi. Demak, adabiy tildagi geminaciya, ya`ni qo'sh undoshlik hodisasi hisoblangani holda, sheva materiallarida o'z xususiyatini yo'qotadi: tok'o – to'qqiz, chaqan – chaqqon, mekejuver` – makkajo'xori, sek`s – sakkiz, onek` – o'n ikki (Farg'ona), dadam ikkovgayam koylayliy optila (Qarshi), koyd`n ushtas`n` soyd` (Marg'ilon).

O'zbek adabiy tili va xalq shevalarida quyidagi grammatik usullar va so'z yasalishlar bilan geminatsiya hodisasi yuzaga keladi:

A) sifatning kuchaytiruv shakli orqali: ok – oppok, sog-sog – soppa sog, (ad. imlo); ak-ak – appak, sag-sag – sappa –sag (qipchoq) kabi;

B) juft so'zlarning yasalishi natijasida: bitta yarimta, opten-soppon, oppon-s`ppon, shartta-shurtta – shertte-shurte (qorluq- chigil- uyg'ur);

V) tasviriy so'zlar vositasida: ukki, kakku, pirra, chippa-chippe, ushshaymok (ad.imlo); ikki, kekki, pirre, chippe-chippe, ishsheymok (qipchoq) va hokazo.

Qo'sh undosh ma`noni farqlash xususiyatining mavjudligini alohida qayd etishga to'g'ri keladi. Masalan, qorluq-chigil- uyg'ur shevalarida: qoteq (kishilar iste`mol qiladigan sut maxsuloti), qatiq/qott`q (yumshoqning aksi, qattiq), kalla (organizmning bir qismi, kele jamlovchi son qo'shimchasi, ikkalamiz), sallox sifat, ism, solox, Xayriddin Salox, oppe sifatning kuchaytiruvchi shakli, oppa-oydin (qarindoshlik atamasi) va boshqalar.

Shunday qilib, qo'sh undoshlarning so'z o'rtasida kelishini kurdik. Ular so'zlarning oxirida ham o'zbek adabiy tili va shevalarida uchramaydi.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Qorluq – chigil –uyg'ur lahjasidagi shevalarda qaysi unlilar qatnashgan ?
- 2.Qipchoq lahjasidagi unlilar qanday sifatlarga ega ?
- 3.O'g'uz lahjasidagi unlilarning xususiyatlarini ko'rsatib bering.
- 4.O'zbek shevalaridagi unlilar qanday xususiyatlarga ega ?
- 5.Singormanizm nima , uning qanday turlari bor ?
- 6.Umlaut qanday xususiyatlarga ega ?
- 7.Unli va undoshlar bilan bog'liq yana qanday qonuniyatlarini bilasiz ?
- 8.Unlilar cho'ziqligining qanday sifat turlari bor ?
- 9.Diftong va diftongoid nima ?
10. Kontrast unlilar deganda nimani tushunasiz ?

Tayanch tushunchalar :

Vokalizm – unlilar tizimi.

Konsonantizm – undoshlar

Fonetik qonuniyat – o'zbek shevalarida amal qilinadigan tovush talaffuzi va u bilan bog'liq aql bilan boshqarilmaydigan fonetik hodisalar.

Singormanizm – unlilar uyg'unligi .

Lingval singormanizm – old qator va orqa qator unlilar uyg'unligi.

Labial singormanizm – lablangan unlilar uyg'unligi.

Assimilyatsiya – unli va undoshlarning o'xshab ketishi yoki bir-birlariga singishi.

Dissimilyatsiya – undosh tovushlarda noo'xhashlik.

Unlilar Cho'ziqligi – unlilarning boshqa tovush ta'sirida va uning ta'sirisiz cho'zilishi.

Diftong va diftongoid – bir tovush xususiyatlarining bo'lishi va shunday tovush .

Kontrast unli –old qator va orqa qator xususiyatlariga ko'ra zidlangan unlilar .

Tovush mosligi – so'z ma'nosiga putur yetkazmaydigan tovush o'zgachaliklari.

Spirantizatsiya – nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg'aluvchi variantga ega bo'lishi.

Sandhi – bunda ikki so’zning talaffuzi jarayonida oldingi so’z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so’z) tovushga moslashadi yoki dastlabki so’zning oxirgi tovushi keyingi so’z unli bilan boshlansa jaranglashadi.

Umlaut – bu qonuniyat fanda unlilarning regressiv assimilyatsiyasi deb ham yuritiladi. Bu qonuniyatga ko’ra affikslardagi old qator unlisini o’z xarakteriga moslab oladi.

Metateza – o’zbek tilida metateza u yoki bu so’z tarkibidagi undosh tovushlarni o’zaro o’rin almashishi .

Anakopa – so’z oxirida keluvchi undosh tovushlarning tushib qolish hodisasiidir.

Proteza – ma’lum fonetik sabablarga ko’ra so’zning boshida tovush orttilishi.

Prokopa – so’z boshidagi tovushning tushishi .

Epenteza – so’z ichida tovush orttirilishi .

Epiteza – ma’lum fonetik sabablarga ko’ra so’zning oxirida tovush orttirilishi .

Eliziya – unli tovush bilan tugagan so’zga unli bilan boshlangan so’zning qo’shilishi natijasida oldingi unlining tushishi .

Sinkopa – so’z tarkibidan tovush yoki tovushlar guruhining tushishi ; singilim-singlim, arslon-aslon.

Apokopa – so’z oxiridagi tovush yoki tovushlarning tushib qolishi; kel-ke, to’rt-to’r .

5 – MAVZU

MORFOLOGIYA.

MORFOLOGIK XUSUSIYATLAR HAQIDA .

Reja

- 1.Kelishik kategoriyasi.
- 2.Egalik kategoriyasi.
3. Fe`l zamonlari.
- 4.SHaxs-son kategoriyasi.

Adabiyotlar.

1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O’zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O’qituvchi”, 1978- yil

2.Mirzayev M M , “O’zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969 -yil.

3.Ashirboyev S, “O’zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000 -y / ma’ruza matni/

4.Rajabov N “O’zbek shevashunosligi” Toshkent, “O’qituvchi” 1996 yil.

5.Murodova N “O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”, Toshkent , “Fan”2007 yil

6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997 yil.

So’z turkumlarini aniqlashda morfologik-leksik va sintaktik belgilar asos qilib olinadi, hamda ular turli xil guruhlarga, kategoriyalarga ajratiladi. So’z turkumlarini tasnif qilishda, bu sohadagi qator noaniqliklarni bartaraf etishda Chuqur mulohaza yuritib, ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va isbotlab berishda E. D. Polivanov, X.

Komilova, U. Tursunov, V, V, Reshetov, A, G'ulomov, Sh. Shoabdurahmonov kabi olimlarning xizmatlari katta bo'lgan.

O'zbek shevalarining morfologiyasini bayon etib berishda mavjud fikrmulohazalarga asoslanib ish ko'rildi. Shunga ko'ra o'zbek shevalarining morfologiysi ham mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari va alohida guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Ushbu sohalarda sheva materiallarida o'zaro umumiyliliklar bilan bir qatorda, o'ziga xos tomonlar ham ko'zga tashlanib turadi. Bu holni kelishiklarning egalik va ko'plik kategoriyalari; fe'l zamonlari, fe'l mayllari hamda fe'lning funkcional shakllarini o'rganish kabi sohalarda aniq tasavvur etish mumkin. Shevalar morfologiyasidagi bunday o'ziga xos tomonlar boshqa so'z turkumlari va kategoriyalarda ham mavjud.

KELISHIK KATEGORIYASI.

Kelishik kategoriyasi otning yoki otlashgan so'zning boshqa gap bo'laklari bilan bo'lgan grammatik bog'lanishini ko'rsatib keladi, ularning gapdagi vazifasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili uchun ham umumiydir.

O'zbek adabiy tilida oltita kelishik, beshta grammatic ko'rsatkiCh mavjud. Chunonchi bosh kelishikning qo'shimchasi bo'lmaydi. O'zbek xalq shevalarining bir qismi adabiy tildagi holat bilan umumiylikka ega boshqa bir qismi esa bu jihatdan farqlanadi. Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi guruhiga kiruvchi shevalarning aksariyatida oltita kelishikning to'rtta ko'rsatkichi bor. Bunda qaratqich va tushum kelishiklari bir shaklda, ya`ni tushum kelishigi shaklida keladi. Samarqand, Buxoro, Urgut, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on va ularga o'xshash shevalarda jo'naliш va o'rin-payt kelishiklari ham aralash holda qo'llanilib, o'zlarining shakli jihatidan jo'naliш- o'rin-payt kelishigiga o'xshaydi. O'g'uz lahjasida ham qaratqich va tushum kelishiklarining ko'rsatkichlari ko'p hollarda bir xil ko'rinishga ega bo'ladi. Faqat ayrim hollardagina farqlanish ko'zga tashlanib turadi.

Qipchoq lahjasi tarkibini tashkil etuvchi shevalarda ham ba`zan qaratqich-tushum kelishigi holida kelishi uchraydi.

Qaratqich va tushum kelishiklari ko'pgina o'zbek shevalarida bir xil ko'rsatkichga ega bo'lishiga qaramasdan, ularning har biri mustaqil kelishik sanaladi. Jo'naliш va o'rin-payt kelishiklari haqida ham xuddi shu fikrni takrorlash lozim. Mazkur kelishiklar qo'llanilishi, vazifalari, ma`no xususiyatlari kabilalar bilan o'zaro farqlanib turadi. Bu, ayniqsa, gap ichida yaqqol ko'zga tashlanadi. Qaratqich birikmada, ya`ni qaratqich kelishigi qaralmishda egalik qo'shimchasining kelishini talab qiladi. Bunga o'xshash xususiyat tushum kelishigida bo'lmaydi va hokazo.

O'zbek adabiy tili va uning lahja va shevalarida quyidagi kelishiklar mavjud: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'naliш kelishigi, o'rin-payt kelishigi, jo'naliш kelishigi, o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.

BOSH KELISHIK.

Bosh kelishik hech qanday qo'shimchaga ega bo'lmaydi. Bu xususiyat o'zbek adabiy tili uchun ham, o'zbek xalq shevalari uchun ham umumiydir. Bosh kelishikda kelgan so'z o'zining shakli jihatidan so'zning o'zak yoki negiziga teng keladi. Demak, bosh kelishikdagi so'z otta ega bo'lib keladi. Masalan, Isrofil narsalarni yig'ip bitta

choynak bilan piyolani olip jonadi (Samarqand), ene b`r odom kelept` (Qo'qon), Ker`m b`zen`k`ge edi (Kattaqo'rg'on) kabi.

Shunday qilib, bosh kelishik shaklidagi so'z gapda kesim bo'lib keladi yoki tarkibli kesimda uning ajralmas qismi sifatida qo'llaniladi. Bunday vaqtida ular egaga bog'lamalar yoki ohang orqali birikadi. Masalan, Joldash okuvch` (qipchoq), dekanchilikdi sakasayam – bugday (Mankent).

Bosh kelishikda kelgan so'z boshqa kelishiklarni hosil qilish uchun boshlang'ich, ya`ni dastlabki shakl deb qabul qilinadi: paxtaniu talasiu, exmetti ishte kordim, choynekte chay damnep chikardi, suvdi mexmannardi ald`ga koydi (Qipchoq).

QARATQICH KELISHIGI.

O'zbek adabiy tili materiallarida qaratqich kelishigi faqat bir qo'shimcha bilan, ya`ni - ning qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. O'zbek xalq shevalarida esa u turlichal qo'shimchalar yordamida kelishini ko'ramiz. Jumladan, qipchoq shevalarida - niun, - nin ko'rsatkichlari bilan bir qatorda - niu, - ni va ularning turli ko'rinishlari bilan yuzaga keladi. Qorluq-chigil- uyg'ur guruh shevalarida qaratqich kelishigi tushum kelishigining shaklin` bilan ishlatiladi . O'g'uz lahjasidagi shevalarda esa qaratqich kelishigi – nin ,

- nin, tushum kelishigining shakli - ni, - ni va qadimiy shakli bo'lган - in, - in bilan ishlatiladi. So'nggi xususiyat qorluq-chigil- uyg'ur va qipchoq lahjalari materiallarida - niu, - ni va uning fonetik k o'rinishlari bo'lган - d', - t` ko'rsatkichlari ham ishlatiladi: Niqolaydi voktiga mani uch min tannaga sortilar (Samarqand); et`yd` `ch` hol (turk), kore kekel ki o'zd`, qo'sht` (Andijon), men` `sh`m bitti (Kattaqo'rg'on) kabi.

Qaratqich kelishigi belgisiz holda ham qo'llaniladi: okuvch`, q`shloq rey`s` (Kattaqo'rg'on, Qarnob), alma guli naparman, men yariumniu taparman (Qorabuloq) kabi.

Shunday qilib qaratqich kelishigida kelgan otlar belgili va belgisiz holda qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, yuqorida shahar va ularga o'xshash bo'lган shevalar uchun xosdir. Bunday vaqtarda otlarning qaratqich yoki tushum kelishigi shaklida ekanligi qaralmishdagi egalik qo'shimchasi yoki shu ot bilan bog'lanib kelgan fe'l orqali aniqlanadi.

Qipchoq lahjasida ham qaratqich kelishigi qo'shimchalari bir qapcha k o'rinishlarga ega bo'ladi. Bu, bir tomondan, so'z o'zaklarining qattiq yoki yumshoqligiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, assimilyativ hodisalar bilan ham bog'lanadi. Masalan, jetmishki o'zniun enesi xeli-xeli kelinche; atamdin kadri otti; attin jilavini mekkem ushledi, besh koydun goshi bomas nexeri kabi.

Qaratqich kelishigining belgisiz holda qo'llanilishi qipchoq shevalarida ham mavjud: tav echkisi, minlise xadiumiu, goza bergi, bexer xevesi kabi.

O'g'uz lahjasida qaratqich kelishigi qo'shimchasining qo'llanilishi o'ziga xos xususiyatga ega. Uning belgilari shartli ravishda uchga bo'lib ko'rsatish mumkin:

A) qaratqich kelishigining qo'shimchasi qattiq- yumshoq ko'rinishlarga ega bo'lib, - niun va - nin deb qo'llaniladi: yanni kishinin, bir qizi bar edi, unin tarjimayi hali;

B) qaratqich kelishigi shakli tushum kelishigi qo'shimchasi - niu, - ni orqali ifoda etiladi: mana uchrangan kishini adiuniu bilmeymen; Shuni bilen birge;

V) Qadimgi yozma yodgorliklarga xos bo'lган - in, - in tarixiy shakllari bilan ishlatiladi. Bu shakllar qattiq va yumshoq undoshlar bilan tugagan so'zlarning o'zak va

negizlari bilan qo'shilib keladi: kerekli dashiun agramiyok, kopin ishi qol bolur (o'g'uz) kabi.

Qorabuloq va Iqon shevalarida ham qaratqich kelishigining shakli - in, - in qo'shimchasi bilan ishlataladi: mene bu uk uzun ketteligi, atiun bashiu kabi.

O'g'uz lahjasida ham qaratqich kelishigi belgisiz qo'llanish xususiyatiga ega: yaxshilik ki o'z yanina girdi, ki o'z xiyoli yarina getken kabi.

Til tarixi materiallarida ham qaratqich kelishigi qo'shimchalari hozirgi adabiy tildagi singari shaklga ega bo'lganligini ko'ramiz. Masalan, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, «Devonu lug'otit turk», Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida - niun, - nin qo'shimchalari qaratqich kelishigini hosil qilgan. Shuning bilan birga, qo'shimchaning - nun, - nun kabi variantlari ham uchrab turadi. O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari materiallarida esa - iun, - in shakllari ham mavjud. So'nggi qo'shimcha qisman XI asr yozma yodgorliklarida ham uchrab turadi.

TUSHUM KELISHIGI.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasiga oid shevalarda tushum kelishigi – n` qo'shimchasi bilan shakllanadi: kiumdakium olse, un` mozorge obor`p koy`shs`n (Toshkent); bu odamlarni kochaga chiqardi (Samarcand); un` kuv`p ch`karvered` (Farg'ona); Ker`mn` bozorga kord`m (Kattaqo'rg'on); n`nen` berver (Jizzax) va boshqalar.

Ayrim hollarda tushum kelishigi - d` , - t` qo'shimChasi bilan qo'llaniladi. Masalan, kore ke:k`l k`zd` , qo'sht` , ott` ote-enesini old`ge obord` (Andijon), `tt` koppas, ott` teppas deb bomayd` (Qarshi), togd` taman bosiptu (Urgut) kabi.

Qorluq-chigil-uyg'ur shevalarida assimilyaciya hodisasi bilan bog'liq holda tushum kelishigining shakli - z` , - m` , - l` , - sh` , - p` , - ch` kabi ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bu ayniqsa, Toshkent, Namangan, Shahrisabz, Urgut, Kattaqo'rg'on kabi shevalarda ko'proq ko'zga tashlanib turadi: u o'z`n chochch` yexsh` kored` (Toshkent); b`zz` mextep okuvchiler` (Kattaqo'rg'on); konullig'am bosiptu (Urgut) kabi.

O'g'uz guruhidagi turkiy tillarda gund uzun, kishin (kishda) kabi so'zlar ham uchraydi. Bular qadimgi yozma yodgorliklar tilida alohida kelishikni, ya`ni qurol kelishigini tashkil etgan bo'lib, hozirgi vaqtida bu xususiyat ayrim turkiy tillarda - n, - in, - un kabi shakllari saqlanib qolganligini ko'ramiz. Ularning ba`zilari hozirgi vaqtida holat va vaqt ravishlarini ifoda etadi.

- in, - in qo'shimchasi O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida ham uchraydi va apcha keng miqyosda ishlataladi. Tarixiy yozma yodgorliklarda hozirgi - niu, - ni ko'rsatkichlari ham to'la ravishda qo'llanilgan. Bulardan tashqari – iug, - ig, - ug, - ug kabi ko'rinishlari ham mavjudligi yodgorliklar materiallarida uchrab turadi.

Qipchoq guruhi shevalarida tushum kelishig quydagicha shakllarga ega bo'ladi: - di, - di, - ti, - ti, - ni, - ni. Bulardan, - ni, - ni qo'shimchasi unli tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shilib keladi: atasiuniu eytip keldi, gav echkisini ushlep aldi kabi.

- di, - di, - tiu, - ti qo'shimchalari undosh tovushlar bilan tamom bo'lgan so'zlarga qo'shiladi. Bulardan - ti, - ti qo'shimchasi assimilyaciya natijasida yuzaga keladigan hodisadir: Kerimdi bazarga jiger; suvdiu miymannardi aldiga koydiu; to'tti jegeni tavush kiyin; hozir atti korish emirmexel; pishekti kuvip ketti kabi.

Yuqorida qayd etilgan qaratqich va tushum kelishiklari materiallarida ularning shakllari jihatidan ham farqlanishi aniq ko'rinib turibdi. Lekin bu chegara hamma vaqt ham qat`iy bo'lib qolavermaydi. Bu shevalarda qorluq-chigil-uyg'ur lajasidagi singari bir xil shakl kelishik- qaratqich va tushum kelishigi shaklida qo'llanilishi va o'zida ularga xos ma`no vazifalarini o'tash hollari uchrab turadi.Qaratqich va tushum kelishiklarining umumiyligi qo'shimchali holati hamma qipchoq shevalari uchun umumiyligi deyish mumkin. Masalan, bovaydi uch uliu boreken; mexmannar suvdi choynig bilen otiup jugerdi, vu qaykini vaxtini xush etsenchi kabilar.

Bulardan tashqari, so'zlarning o'zak-negizlarida lablanish-lablanmaslik, qattiq-yumshoqlik va boshqa fonetik qonuniyatlargacha muvofiq qipchoq shevalari – nu, - nu, - du, - du, - tu, - tu singari bir qapcha tushum kelishigi qo'shimchalari ko'rinishlariga ham ega bo'ladi. Bu, asosan, Yangiqo'rg'on tumanining qipchoq shevalari uchun xosdir.

Qipchoq shevalarida ham tushum kelishigi belgili shakl qo'llanilishi bilan bir qatorda, belgisiz holatda kelishi apcha keng tarqalgan. Masalan, suv ichip ke, ish bajar, ash je kabi.

O'g'uz lajasiga kiruvchi shevalarda so'zlarning o'zak-negizlari qattiq-yumshoqligiga qarab, - ni, - ni qo'shimchasi bilan qo'llaniladi; ... sunnatla:niu bakaredi, u jekleni bakiup yurdi, balalariuniu chaqirdi kabi. Bu lajhada tushum kelishigi vazifasida - iu, - I shakllari ham ishlataladi. Masalan, mallardini kele ekit dedi kabi.

Tushum kelishigining belgisiz holda kelishi o'g'uz lajasida ham uchraydi. Qorluq-chigil- uyg'ur, qipchoq va o'g'uz lajhalarida qaratqich kelishigidagi singari tushum kelishigi ham belgili va belgisiz kelishi mumkin. Har ikkala holatda ham turli xil aniqlovchilik vazifalarini bajaradi. Ular narsaning aniq va noaniq, umumiyligi va xususiy ma`nosiga aloqador bo'lmaydi.

Ba`zan lingistik materiallarda tushum kelishigining belgisiz holati bilan bosh kelishikni aralashtirmaslik lozim. Bunda hech vaqt ikki kelishik shaklini bosh va tushum kelishigining shakli deb qaralmasdan, faqat tushum kelishigining belgili va belgisiz shakli deb karash lozim. Masalan, bitta kitob ko'rsating, xat yozmoq, ish bitilmoq, observatoriyanı tomosha qilmoq kabi to'g'riroq bo'lsa kerak deb o'yaymiz.

So'nggi vaqtarda ayrim manbalarda, o'zbek adabiy tilida oltita kelishik va ularning o'ziga xos oltita shakli bor degan fikr qayta- qayta takrorlanmoqda. Bunda bosh kelishikda ham ko'rsatkich mavjud deb gumon qilinadi. Bizningcha, bu yanglish fikrdir. Chunki o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot yo'llarini belgilovchi materiallar, hatto, qadimgi yozma yodgorliklar, jumladan, O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklarida ham bosh kelishikning ko'rsatkichi borligi tasdiqlanmaydi. Demak, bosh kelishikning qo'shimchasining mavjudligi til tarixi manbalarida ham o'z ifodasini topmagan, hozirgi shevalar ham bu haqda guvohlik bera olmaydi.

JO'NALISH KELISHIGI

Qorluq-chigil-uygur shevalarida jo'naliш kelishigining qo'shimchasi – ge shaklida qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich unli va undoshlar bilan tugagan so'zlarga farqsiz qo'shilib kelaveradi; Murod mexsed`ge yet`pt` (Toshkent); bu odamlarniu bitta-bitta kochaga chikordi (Samarqand); `lon erige shunday dept` (Farg'ona); eyemle delege bored`le (Kattaqo'rg'on) kabi.

Chuqur til orqa k, g undoshlari kabilar bilan bitgan so'zlarga – ge qo'shimchasi qo'shilganda, jo'nalish kelishigining shakli – kelishigiga ega bo'ladi. Masalan, bokke borov o'z, d`yd`le (Toshkent, Qarnob); ochokka ot kele, dept` (Farg'ona); nond` ol`p k`shlokka boremen (Marg'ilon;) yog yokka tomed`, moshavaya jazam yoq (Qarshi) kabi.

So'zlarning oxiri k, p, s, t,sh, x kabi jarangsiz undoshlar bilan tugaganda, jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi - ke holatida qo'llaniladi. Masalan, tagim b'r kiyin `shke yuberemiz (Namangan); oshka polvon, `shka shol (Qarshi); esh`kke surkelmey `chker`ge k`r (Kattaqo'rg'on); pelukke eluk yokov o'z (Qarnob) singari.

Shevalarning ba`zilarida - ge qo'shimchasi g, g undoshlari bilan bitgan so'zlarga qo'shilganda ham o'zgarishsiz qo'llanilish hollari uchrab turadi. Bu Qarnob shevasi uchun xos xususiyatdir. Masalan, toqqe xemmes` bor`shge joned`; bergge borotm`z va boshqalar.

Jo'nalish kelishigining - e qo'shimchasi bilan qo'llanish holati mavjud bo'lib, ko'proq y, m, l, r, p, n sonor undoshlari bilan tugagan so'zlarga qo'shib keladi. Masalan, uye k`r`p k`key (Jizzax); ekeme aytt`; men` depterlerim uye kopt` (Kattaqo'rg'on); men sene n`me ded`m (turk); Baxmale qoy xeydeyb`z, bozorge borov o'z (Qarnob) kabi.

Ushbu shevalarda jo'nalish kelishigining qo'shimchasini qabul qiladigan so'z unli tovush bilan tugagan bo'lsa, bunday holda uning ko'rsatkichi - ye ko'rinishiga ega bo'ladi. Masalan, xovl'e, bedoneye, deleye (Toshkent); odem ko(r)kkан vekke tili kelimeye kemey qoleyken (Shaxrisabz) : tepeye ch`kd`le (Kattaqo'rg'on) va boshqalar.

Bayon etilayotgan guruh shevalarining ayrimlarida - ge va - ye o'mida tushum kelishigining qo'shimchasi qo'llanilishi bu guruh shevalaridagi o'ziga xos tomonlardan sanaladi. Masalan, xojani borip aytin, mani turing, navbat sizniki dedi (Samarqand) kabi.

Qorluq-chigil-uyg'ur shevalarida jo'nalish kelishigining belgisi yashiringan holda kelishi mumkin. Lekin tushirib qoldirilgan shakli, jumladan, aniq anglashilib turadi: ekemle bozor bordile (bodd`le); ule Semerken kett` (Kattaqo'rg'on); yek`nda Toshkon borovo'z, Bumot desh ketgan (Qarnob) singari.

Qipchoq guruhi shevalarida jo'nalish kelishigining qo'shimchasi quyidagicha ko'rinishlarga ega bo'ladi: - ga, - ge, - a, - e, - ka, - ke. Ko'rinib turibdiki, bular qattiqlik va yumshoqlik, til oldi va til orqa unlilari hamda qisman yonma-yon kelgan ayrim undosh tovushlar ta`sirida yuzaga keladi va qo'llaniladi. Bu esa singormonizmning shevalardagi o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi: uyam ishiga jonadi, uniu gevige kirmeni, bu balaga bir jash toldiu, siz bilekke ishemmen, atama massiualdium; atana bar, enene bar, uyime barganium jok kabilar.

Jo'nalish kelishigining ko'rsatkichi kishilik olmoshlarining birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik shakllariga ega bo'ladi. Bu xususiyat qipchoq lahjasini tashkil etuvchi ko'pchilik shevalar uchun umumiyl xususiyatdir. Bu shevalarning ba`zilarida esa boshqacha manzarani ko'ramiz. Ularda kishilik olmoshlarini jo'nalish kelishigida qo'llaganda, magan//megen, sagan//segen, ugan//ogan deb qo'llaniladi. Bu xususiyat Qurama va Bulung'ur, Poyariq, G'allaorol va Ishtixon kabi tumanlardagi qipchoq shevalarining vakillari nutqida ishlatiladi. Ayrim qipchoq shevalaridagi magan, sagan, organ kishilik olmoshlari hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va qo'mik tillarida ham mavjud. O'zbek tilining qipchoq lahjasidagi bu xususiyat bilan yuqoridagi turkiy tillarning qipdhoq guruhiga kiruvchi tillarda bu shakllarning mos kelishi ulardagi o'zaro umumiyliklar bilan izohlanadi.

Jo'nalish kelishigining kishilik olmoshlariga qo'shilib ishlatilishidagi bu shakli boshqa grammatik ko'rsatkichlarga nisbatan shevalar vakillari nutqida apcha mustahkam saqlanib kelmoqda. Natijada ular adabiy til me`yorlarini egallagan ziyolilar va o'qituvchilar, jumladan, filolog o'qituvchilar nutqida ham uchrab turadi. Bunday hollarda sheva vakillarining nutqiga qarab, ular qipchoq shevasining qaysi biriga oidligini osongina aniqlash mumkin.

O'g'uz lahjasida ham jo'nalish kelishigi bir qapcha shakllarga ega bo'ladi: - ge, - k, - a, - e, - na, - ne. Masalan, kirk diyoge yuklep yigitke kop dunya beripti; paxtage, arkasina, muradina etti, shakllari o'g'uz lahjasida apcha faol qo'llanuvchi qo'shimchalardandir. Jo'nalish kelishigida qo'llaniladigan qo'shimchalarining hammasini yuz foiz deb olinsa, Shundan kamida 50 foizini - a, - e qo'shimchalariga ajratishga to'g'ri keladi.

Til tarixining asosiy manbalari hisoblangan O'rxun - Enasoy yozma yodgorliklari, «Devonu lug'otit turk», Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida jo'nalish kelishigi qo'shimchalari o'zbek xalq shevalaridagi qo'shimchalar bilan umumiylik va birlikka ega. Ulardan ba`zilari arxaiklashib, iste`moldan chiqib ketgan. - garu, - geru, - karu, - keru, - ra, - re, - ru kabilar shular jumlasidandir. - ra, - re, - ru, - ru qo'shimchalar - garu, - geru, - karu, - keru ko'rsatkichlariga nisbatan qadimiydir.

Hozirgi turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili materiallarida bu kelishik qo'llanilmydi. Ularning ayrim ko'rinishlari jo'nalish kelishigida ifodalanadi, ba`zan ravishlar va ko'makchilar doirasida ishlatiladi.

O'RIN-PAYT KELISHIGI.

Qorluq-chigil- uyg'ur lahjasi guruhlariga kiruvchi shevalarda o'rin-payt kelishigi - de, - ge qo'shimchasi bilan shakllanadi. - de unli va jarangli undosh tovushlar bilan tugagan so'zlarning o'zak va negizlariga qo'shilib qo'llaniladi. Masalan, keto se iu olde b'r ok dervoze kor`n`pt` (Toshkent); dunyode n`men` et`Sh`r`n tur`pt` (Andijon); odemd` odem seperde b`ledi (Jizzax); men borsem egde hech: k`m yogeken (Kattaqo'rg'on). So'zlarning oxiri jarangli undoshlar bilan tamom bo'lganda esa – te holida ishlatiladi; bizardi zavo'tte ishlaysan dedi (Samarqand); to'tt` xos`l kopu, berekes` yog (Turkiston) kabi.

Ushbu guruhlarga kiruvchi shevalardan Samarqand, Buxoro, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Urgut, Shahrisabz kabilarda o'rin-payt kelishigi bilan jo'nalish kelishigi ko'rsatkichlari bir-biridan kam farq qiladi va aralash holda kelaveradi. Bu xususiyatni mashhur shevashunos olim E. D. Polivanov ham o'zining Samarqand shevalariga bag'ishlangan ishlarida o'z vaqtida alohida qayd qilgan edi: bachala maktabga okuydi; tor kishi yoniya tapponchasi bor (Samarqand); biza qishloqqa turamiz (Buxoro); Samarqandga yashaydi (Qarshi). Bu xususiyat ba`zan, Jizzax Shevasida ham uchraydi. Masalan, oz`nge yoq, olemge yoq; epem delege `shleyd` kabi.

Yuqorida keltirilgan misolardan ko'rinish turibdiki, o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi (-de) vazifasida qo'llanilayotgan - ge oxiri unli va jarangli undosh tovushlar bilan tugagan so'zlarga, - ke esa oxiri jarangsiz undoshlar bilan tamom bo'lgan so'zlarga va - ke qo'shimchasi oxiri chuqur til orqa undoshlari bilan bitgan so'zlarga qo'shilib keladi. Ba`zan - ge qo'shimchasi yumshoq holatga ega bo'lib, - ye shaklida ham ishlatiladi va

uchraydi. Bu ko'proq so'zlarning oxirgi tovushlari unlilardan iborat bo'lganda yuz beradi va Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, Qarshi kabi ayrim guruh shevalarigagina taalluqli bo'ladi: mol kassopt` qoliya halol (Qarshi); ekemle b`zen`k`e tez-tez kep tured`le (Kattaqo'rg'on) kabi.

Ikkala kelishik ham faqat jo'nalish kelishigi shakli bilan ifodalanadi, uning aksincha holati bo'lmaydi. Shahrisabz shevasida esa tojik tili unsurlari va uning ta'siri bo'lmasligiga qaramasdan jo'nalish kelishigining o'rnida o'rinn-payt kelishigi kelishi ko'zga tashlanib turadi. Bu xususiyat ziyoli va o'quvchilar nutqiga xos tomonlardan hisoblanadi. Masalan, kinoda boru:duk, choyxonada kett` kabi.

Qipchoq lahjasini tashkil etuvchi shevalarda o'rinn-payt kelishigi - da, - de, - ta, - te qo'shimchasi bilan qo'llaniladi. So'zlarning oxiri unli va jarangdosh unlilar bilan tugaganda - da, - de qo'shimchasi bilan, ya`ni o'rinn-payt kelishigi bilan hosil qilinadi: qolda bejerish shert emes, deyrede kuriu tosh jok kabi. Agar so'zlarning oxiri jarangsiz undosh tovushlar bilan tamom bo'lsa - ta, - te qo'shimchasi qo'llaniladi: jaz javin chin teshleme, kishta ozun bilesen kabi.

O'g'uz lahjasida ham kelishik qo'shimchasi qipchoq lahjasidagi shevalar singari - da, - de, - ta, - te shakllari bilan keladi. Bu ko'rsatkichlar ham so'zlarning o'zak va negizlariga qo'shilib kelishi jihatidan qipchoq shevasidagi singari bo'lib, qattiq o'zak va negizlarda unli va jarangli undoshlardan so'ng - da va jarangsiz undoshlardan so'ng - ta qo'shimchasi bilan ifodalanadi (ular bazarda yoli ukiuskanda kabi). Yumshoq o'zak va negizlarda esa unli va jarangli undoshlardan so'ng - te qo'shimchasi qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan tashqari O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari materiallarida o'rinn-payt kelishiklari qo'shimchasi sifatida – a, - e, - ya, - ye kabi shakllarning qo'llanganini ham uchratamiz. Masalan, oti o'z yashiuma, biriye kabi.

Demak, o'zbek tili tarixini belgilovchi nodir yozma yodgorliklarda, hozirga vaqtida amalda qo'llaniladigan adabiy til ham o'zbek xalq shevalarida o'rinn-payt kelishigi shakli bir xil yoki umumiyydir. Shu bilan birga, uning o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatuvchi turli xil shakllar ham uchraydi. Lekin baribir o'zak va negizga qo'shilib kelishi jihatidan deyarli farqlanmaydi.

Xalq maqollari, topishmoqlar va ba`zan og'zaki nutqda o'rinn-payt va jo'nalish kelishiklari belgisiz holatga ega bo'lib, bosh kelishik shaklida kelishi mumkin. Lekin bunday vaqtida ularni bosh kelishik deb qaramasdan, o'rinn-payt va jo'nalish kelishiklarining belgisiz shakllari deb izohlash kerak.

CHIQISH KELISHIGI.

Qorluq-chigil-uyg'ur shevalarida chiqish kelishigining qo'shimchasi –dan shaklida qo'llanadi. U so'zlarning o'zak va negizlariga qo'shilib kelishi jihatidan adabiy tildagi holatdan farq qilmaydi: «...borse kemes kocheden ketovurupt»; boriup `lon er`den sorept` (Farg'ona); y`t`nch` osmonden (Namangan) kabi.

So'zlarning jarangsiz o'zak va negizlari oxiriga - gen, - ten qo'shimchasi qo'shilib keladi: itten pas, ltten balan (Buxoro); u s're gepten komeyd` (Andijon); oshatan opkelmed` (Marg'ilon); toshken qattiq , gullan nozuk (Urgut) kabi.

- den, - ten (- tan) ko'rsatkichlaridan tashqari, turli xil fonetik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan - ney, - nen, - len, - dem, - tem kabi k o'rinishlari ham uchraydi: oshtem b'r oshem old`m (Andijon); tunna gullen tegd` (turk) kabilar.

Qipchoq lahjasida chiqish kelishigini hosil qiluvchi shakllar bir necha xil bo'ladi. Bular so'zlarning o'zak va negizlari qattiq yoki yumshoq holatga ega bo'lishi bilan bog'liqidir; seni suygennen aytaman; payi o'zdan tuship qaldium; darak beliden sinedi; ishten ketti; Chumchuqtan qorqqan tari ekmes, xovlisiden bitte non chixmadi.

O'g'uz lahjasida ham so'z o'zak va negizlarning qattiq va yumshoqligiga amal qilgan holda chiqish kelishigining qo'shimchasi qipchoq lahjasidagi singari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: - dan, - den, - tan, - ten, - nan, - nen: Sharqdan geledigan shamal; men gemesten, bu altiunnan saliungan, uch gunen son kabi.

O'zbek tilining Turkiston, Iqon, Mankent va Qorabuloq shevalarida chiqish kelishigining shakli - diun (endin, tamdin); - din: bitidin, ata-enemdin; - tiun: Choqtin; - tin: gettin, ittin kabi qo'shimchalar bilan shakllanadi.

O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari, «Devonu lug'otit turk» kabi o'zbek tiliga oid yozma yodgorliklarda chiqish kelishigini hosil qilish uchun - dan, - den, -tan, - ten, - din, - dun shakllari qo'llaniladi

Chiqish kelishigida kelgan so'zlar adabiy tildagi singari harakatning boshlanish paytini, o'rnini, uning sababini, biron joy yoki narsaning uzoqlashishini bildirib kelgan. Gapda otlar uyushib kelganda, chiqish kelishigi qo'shimchasini ana shu uyushib kelgan otlarda qo'shilish usullari, ularning vazifalari kabilar hamma o'zbek shevalarida ham adabiy tildagi holatga, asosan, to'g'ri keladi.

Chiqish kelishigi shakli tarixiy nuqtayi nazardan boshqa kelishiklarga nisbatan bir müncha keyinroq shakllangandir. Chunki u eng qadimgi yozma manbalarda kam qo'llangan. Uning o'rniga ko'p vaqtida o'rın-payt kelishigi qo'shimhasi ishlatilgan.

Shunday qilib eng qadimgi yozma yodgorliklarda kelishlarning soni apcha ko'p bo'lib, ularning shaklari ham xilma-xil bo'lган. Ularning ko'pchiligi hozirgi o'zbek tili va uning lajhalarida ishlatilmaydi. Yodgorliklardagi – din, - tin, - a. - e, - ye, - n, - in kabi shakllar o'zbek xalq shevalari materialarida, qisman, hozirgi o'zbek adabiy tilida ham (ayniqsa, poyeziyada) uchrab turadi. Ayrim o'zbek shevalarida kelishik qo'shimchalarining miqdor jihatidan ko'p belishi ularda assimilyasiya, ohangdoshlik kabi hodisalarining mavjudligi bilan izohlanadi. Lekin qo'shimchalarning xilma-xil ko'rinishlarga ega bo'lishi ularning miqdoriga ta'sir etmaydi, ya`ni o'zbek lajha va shevalarining hammasida oltita kelishik mavjud.

Fe'l – so'z turkumi.

Fe'l narsa - buyumning harakat va holatini ifodalovchi so'z turkumi sanaladi. Fe'llar shaxslar va narsalar harakatini bildirish bilan birga turli holatni, belgining o'zgarishini ham harakat tarzida anglatadi: bu odamnikida to'rt yildan beri ishlayman; o'zi bir kun jazosi tortar, bir kun izo bo'lar.

So'z turkumlari ichida eng kattasi va murakkablaridan biri fe`ldir. Navoiyshunoslarning statistik ma'lumotlariga ko'ra, Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlrning umumiyligi soni 26 mingdan ko'proq bo'lib, ularning 1000 ga yaqini fe'l va fe'l shakllarini tashkil etadi. Fe'llar gap tuzishda kuchli uyushtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lib, ko'pgina boshqa so'zlarini o'ziga ergashtirib keladi. Otning kelishiklar bilan turlanishi, asosan, fe`lda ifodalangan ma`no talabiga qarab bo'ladi. Masalan, Bahor keldi, gullar ochila boshladi, men ishdan kelyapman, bu yil mifik tabnini tamomlayman. Gap bo'lak-laridan hol va to'ldiruvchi, asosan, fe`lga bog'lanadi. Ular fe`lda nutq qismlarini birlashtiruvchilik xususiyati – sintaktik holatning kuchli ekanligini ko'rsatishdan iborat.

Otda turlanish, fe`lda esa tuslanish asosiy morfologik belgilardan biridir. Bunda leksik jihatdan o'zgarish yuz bermaydi, faqat shaxs - son, zamon singari ma`nolarni ifodalaydi, kesimlik ham ko'rsatilidi. Fe`lning asosiy sintaktik vazifasi kesimlik bo'lib, o'zining turli vazifalarida (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi) gapning boshqa bo'laklari – ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida ham kela oladi.

Fe`l zamon, mayl,shaxs - son, nisbat, bo'lishli - bo'lishsiz kategoriyalari, vazifadoshlik shakllariga ega bo'lib, ularning aksariyati fe`lning ma`nosini bilan bog'liq va faqat unga xos kategoriyalardir.

Fe`l zamonlari.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida fe`l zamonlarining tasnif qilinishi, zamonlarin belgilash va qo'llashda xilma - xil qarashlar mavjudligiga qaramasdan, fe`l zamonlari uchga bo'linadi. va quyidagi nomlar bilan ishlataladi: o'tgan zamon fe`li, hozirgi zamon fe`li, va kelasi zamon fe`li.

O'tgan zamon fe`lini besh guruhga bo'lib o'rganish an`anaga aylanib qolgan. Bu o'qitish jarayoni uchun ham, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ham qulaydir:

1. Yfqin o'tgan zamon fe`li: somsepezz` don`den top`b opkeld`m; Chekuruvd`m kemed`n. Oz`m yep qoyd`m, d`pti (Toshkent); hamma `sht` qip qoydim, ekemner ketti (Qipchoq); u `shtekke k`rd`, bold`m men sen`k` (Jizzax).

2. Uzoq o'tgan zamon fe`li; olt` kun turip yaan keytip ketamman (Qarshi); men bu k`topt` oko'p ch`kken; ulelrd` one t`l`s` toj`y t`l` bogeyeken (Jizzax); Cherek yovup koygandim (Shimoliy Xorazm); b`r poden` `shk` shu k`zge tushup qolgen ed` (Namangan).

3. O'tgan zamon xikoya fe`li: men koy`md` yoqatibdim, dedi; manav korgen eken; bir qoyimni bergey debidim (Qorabuloq).

4. O'tgan zamon davom fe`li: to olgun`m`z yaxsh`l`k kiul`rd`m (Andijon); ule (r) `shlerd`ler (Payshanba).

5. O'tgan zamon eshitilganlik fe`li: Kore ke:k`l»etten yshl`k k`ppen» dep xapa bold` (Andijon); karga pichenchige baripti (Turkiston).

O'tgan zamonni hosil qiluvchi fe`l shakllari bilan hosil bo'lgan fe`llarning ma`nolarida umumiylar xususiyat, ya`ni ma`no umumiyligi mavjud. Shunga ko'ra, ular ikki guruhga jamlanadi. Lekin ushbu fe`l shakllari har biri o'ziga xos ma`no nozikliklilari bilan ajralib turadi. Bu farqlarni yuzaga keltirish uchun har guruhda boshqa - boshqa qo'shimchalar qo'llaniladi. Ularning ayrimlari o'zaro xususiyatlari ega. Ana shularni hisobga olgan holda fe`l zamonlariga, ayniqsa, fe`lning aniq o'tgan zamon, aniq hozirgi zamon, aniq kelasi zamon fe`li shakllariga alohida - alohida to'xtalib o'tamiz.

Yaqin o'tgan zamon fe`li.

Yaqin o'tgan zamon fe`li ma`no jihatidan harakatining nutq so'zlanib turgan paytdan oldin bajarilganini anglatib keladi. Bunda so'zlovchi uning bajarilganligini ko'rgandek yoki shu harakatning guvohi bo'lgandek xabar qiladi. Yaqin o'tgan zamon fe`llari o'zlaridagi qo'shimchalarning turli - tumanligi bilan ajralib turadi va bu jihatdan o'tgan zamon fe`llarining boshqa turlaridan farq qiladi.

O'zbek xalq shevalarida yaqin o'tgan zamon fe`lining qo'llanishi, hosil bo'lish yo'llari, ma`no xususiyatlari vazifalarini o'zbek adabiy tilidagi holatdan deyarli farq

qilmaydi. Lekin har bir ayrim yoki bir guruh shevalarda adabiy til bilan umumiylid dan tashqari, ulardan har birining o'zigi xos tomonlari mavjud.

Shevalardagi ayrim o'zigi xos xususiyatlarni aniqlashtirish maqsadida O'rxun – Enasoy yozma yodgorliklari, »Devonu lug'otit turk» va Alisher Navoiy asarlaridagi ba`zi fe'l shakllarini chog'ishtirish ularni aniqroq va to'laroq tasavvur etishga yordam beradi.

Yaqin o'tgan zamon fe'lida fe'l shakllarining xilma – xilligi uning o'zak va negizlarida jarangli va jarangsiz undosh tovushlvrning kelishi va qadimgi fe'l hosil qiluvchi qo'shimchalarining saqlanib qolganligi bilan izohlanadi. Bunday fe'llarni hosil qilish uchun fe'l o'zaklariga – di zamon yasovchi qo'shimchasi va tegishli shaxs - son ko'rsatkichlari qo'shiladi. Umumiy tasavvur hosil qilish uchun namuna sifatida bir - ikkita misollarni keltirib, har uchala shaxsning birlik va ko'pliklari buyicha tuslab ko'raylik. Masalan, Toshkent shevasida:

	Birlik.	
I shaxs	keld`m	kord`m
II shaxs	keld`n	kord`n
III shaxs	kel`d	kord`
Ko'plik.		
I shaxs	kelduk//kelduv// kelduv o'ze, keld`m`z, kelduv o'z, keld o'z kord`m`z, korduv o'z, kord o'z	
II shaxs	keld`n`z, keld`y`z, keld`z keld`yle, kord`n`z, kord`y`z kord`z, kord`yle	
III shaxs	kel`sht`, kor`sht`.	

O'tgan va kelasi zamon fe'llarining hosil qilinishi bo'yicha shevalar bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Ma'lumki , bunday fe'llar ravishdosh va sifatdosh shakllari va tuslovchi affikslarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Hozirgi zamon fe'llarida tuslovchi affiksdan oldin qo'llaniladigan zamon ko'rsatkichlari shevalarda turlicha bo'ladi. Masalan, bu shaklda Toshkent shevasida - vot (keyingi "t" undoshi regressiv assimilyatsiyaga uchraydi. Buxoro shevalarida – op, "j" lovchi shevalarda -djatir , - vatir, Xorazm shevalarida –yatir , Qorabuloq shevasida – ayt kabilarni keltirishimiz mumkin

Takrorlash uchun savollar :

- 1.O'zbek shevalaridagi morfologik xususiyatlar qaysi turkum va kategoriyalarda namoyon bo'ladi ?
- 2.Ko'plik affiksining adabiy tildan farq qiladigan o'rirlarini aytib bera olasizmi ?
- 3.Egalik affislardagi adabiy tildan farq qiladigan o'rirlarni aytib bering ?
- 4.Shevada turlovchi qo'shimchalarining qo'llanish doirasini ko'rsatib bering ?
- 5.O'zbek shevalaridan qaysi biri to'rt kelishikli, qaysi biri besh kelishikli holatda hisoblanadi ?
- 6.Shevalardagi tuslovchi affikslarning tiplarini izohlab bering.
- 7.Sifatdosh, ravishdosh, va harakat nomi shakllarining hosil qilinishini izohlab bering.

Tayanch tushunchalar :

Egalik affikslari – ot va otlashgan so’zlarning nutqdagi 3 shaxsdan biriga taalluqligini ko’rsatuvchi affikslar .

Turlanish – so’zlarning kelishik affikslarni qabul qilishi.

Tuslanish – fe’llarning shaxs-son affikslarini qabul qilishi .

Yasalish – yangi so’z yasash jarayoni .

6 - MAVZU Leksika haqida umumiylumot.

Reja

- 1.O’zbek adabiy tiliga sheva leksikasining ta’siri.
- 2.Ma’nodosh so’zlar.
- 3.Shakldosh so’zlar.
- 4.Zid ma’noli so’zlar.
- 5.Ko’p ma’noli so’zlar.

Adabiyotlar.

- 1.Reshetov V V, Shoabdurahmonov Sh . “O’zbek dialektologiyasi”, Toshkent, “O’qituvchi”, 1978- yil
- 2.Mirzayev M M , “O’zbek tilining Buxoro guruh shevalari” ,Toshkent, 1969- yil.
- 3.Ashirboyev S, “O’zbek dialektologiyasi” Toshkent, 2000-y / ma’ruza matni/
- 4.Rajabov N “O’zbek shevashunosligi” Toshkent, “O’qituvchi” 1996 -yil.
- 5.Murodova N “O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini”, Toshkent , “Fan”2007- yil
- 6.Doniyorov X “Qipchoq dialektlarining leksikasi”, Toshkent, “Fan”, 1997- yil.
7. “O’zbek xalq shevalarining lug’ati”, Toshkent, “Fan”, 1971- yil.

O’zbek tili leksikasining o’zining qadimiyligi va boy tarixiga egadir. U bir qapcha asrlar mobaynida rivojlanib kelgan. Tilimizdagi so’zlarning ayrimlari eng qadimgi davrlardan beri turmush talablarini qondirib kelgan bo’lsa, boshqa xillari nisbatan keyin paydo bo’lgani davr o’tishi bilan mavjud so’zlardagi ma`no va ma`no noziklarida o’zgarishlar ham yuz berib turgan.

Ma`lumki, so’zlar bir qapcha ma`nolarni anglatadi. Ularning qaysi ma`nosi qachon yuzaga kelganligini o’rganish tilshunoslar uchun zarur bo’lsa, bu so’zlarning necha xil ma`noda qo’llanilishini o’rganish ushbu tilda so’zlashuvchilarining hammasi uchun zarurdir. Bu, ayniqsa, yozuvchilar va shoirlar, san`at va madaniyat xodimlari, olimlar uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. So’zlarning biror ma`nosidan xabarsizlik ayrim ilmiy asarlar, maqolalar va nutqlardagi so’zlarni to’la va to’g’ri tushunishga halaqt beradi.

So’zlarning qo’llash va ularning ma`nolaridan foydalanishda shoir – yozuvchilarining imkoniyatlari g’oyat kattadir. Chunki ular adabiy tilimiz leksikasidan tashqari,sheva imoniyatlaridan ham keng foydalanadilar. Natijada shevalardagi ayrim so’zlar

ommalashib, adabiy normalarga aylanib boradi. Lekin ularning asosiy qismi lajhalar va shevalarga xos bo'lib, adabiy til doirasiga kirmaydi hamda shevalardagi shakl, ulardag'i o'ziga xos xususiyat bo'lib qolaveradi. Adabiy til nuqtayi nazaridan kam qo'llaniladigan so'zlar ayrim hollarda faollashib ham qoladi. Bu hol shevalar chegarasi bilan bog'lanadi. U so'zlar shevada gapiruvchilar nutqida faol hisoblanib, adabiy tildagi so'zlar bilan birgalikda bir shakldoshlik qatorini tashkil etadi.

Shevalar eng qadimiy bo'lib, odamzod tilga kirgandan boshlab, iste`molda bo'lib kelmoqda. Bunday o'zigi xoslikni hozirgi vaqtida osonlik bilan farqlash mumkin: bineyi (tuzuk), pisip (yashirib), talli(tez), heyde(yur), bavir (jigar) singarilar qipchoq lajhasi shevasida: zep (juda vaqtida), peqqos (butunlay), pochche (aka amaki), unemog (kunmoq) moxovat//vey`me (mubolaga), diltan bolmoq (xafa bo'lmoq) singarilar qarluq – chigil – uyg'ur lajhasidagi shevalarda; atiz (paykal), morche (chumoli), dovdi (beparvo), pelpis (iflos), arna (anxor), yap (katta ariq) petik (ship), teykek (bolaxona),meyin (miya), kort (bura) va boshqalar o'g'uz guruhi shevalarida uchraydi.

Yuqoridagi shevalargi xos turli – tumanlik badiiy va ilmiy asarlarda o'z aksini topib kelishi qonuniy bir holdir. Jumladan, «Qutadg'u bilig», «Devoni lug'otit turk», «Xamsa», «Xazoyinul maoniy», «Muhokamatul lug'otayn», «O'tgan kunlar», «Mehrobdan Chayon», «Qullar», «Navoiy», «Qutlug qon», «Qo'shchinor chiroqlari», «Farg'ona tong otguncha», «Xorazm», «O'qituvchi», «Opa – singillar», kabi ko'plab asarlar fikrimizga dalil bo'la oladi.

Shoir – yozuvchilar asarlaridagi ayrim so'zlar hozirgi vaqtida ham shevalarda turli ko'rinish va shakkarda ishlataladi. Masalan, qipchoq shevasiga xos bo'lgan kevenek // kebenek// kepenek (chakmon), eturik// (yolg'on), qalpaq// qalpoq (do'ppi), urt// uvuro't// ovuro't (lunj), manlay (peshona), xoqon - qoon// qan (xon), ne // ne// ni (nima), vusma – osma (usma) singari so'zlardan Navoiy asarlarida ham keng foydalanilgan.

Yuqoridagi singari hollar, ulardag'i ma`nolar hozirgi paytda adabiy til birga,shevalarda ham mavjuddir. Adabiy tildagi ona so'zi Toshkent shevasida oyi, Farg'ona shevasida aya, buvi, o'g'uz shevalarida ene kabi shaklda faol ishlataladi. Ular adabiy tilidagi ona so'zi bilan birgalikda bir uslubiy shakldoshlikni tashkil etadi.

Yoki boshqa misollarni ham keltirish mumkin:

Qalampir (adabiy tilda), germdor` (Toshkent shevasida), qalamfur (Samarqand , Buxoro shevalarida); xomak (adabiy tilda), sapcha (Toshkent shevasida); izlamak, istamok, qidirmoq ma`nodosh so'zlari shevalar nuqtayi nazaridan quyidagicha; `stemok (Farg'ona va Ush shevalarida), q`d`rmoq (Toshkent shevasida), izlamak, qidirmoq, istemak (Qipchoq va o'g'uz shevalarida)

O'zbek shevalarining leksikasini o'rganish masalasi bir muncha kengroq miqyosga ega bo'lib bormoqda. Ayniqsa ushbu sohaga bagishlangan «O'zbek shevalari leksikasi»(1966) ilmiy to'plami va «O'zbek xalq shevalari lug'ati»(1971) ning nashr etilishi o'zbek shevalarining leksikasini o'rganishda qimmatli materiallar bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shu tarzdagi qimmatli shevashunoslik materiallari «O'zbek shevalar leksikasi» nomi bilan 1991-yilda ham nashr etildi.

O'zbek xalq shevalari leksikasini, jumladan,shakldosh, ma`nodosh, ko'p ma`noli, yangi so'zlar xususiyatlarini o'rganish shevashunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.Chunki ma`lum bir sheva yoki bir qancha shevalar leksikasini o'rganish, bir tomondan, til tarixi, etnografiya, tarix singari fanlar uchun qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, adabiy tilni rivojlantirish uchun ham ahamiyatlidir. O'zbek xalq shevalari

fonetik va morforlogik jihatdan ma`lum darajada o'rganilmagan. O'zbek lahjalarining leksik qatlamlarini o'rganish uchun tahlil etish o'zbek adabiy tili leksikasi uchun ham g'oyat foydalidir.

O'zbek lahjalarini leksikasini ko'zdan kechirar ekanmiz, har uchala lahjaning o'ziga xos leksik qatlamlarini ko'ramiz. Shu umumiylardan tashqari, ularning har birida o'ziga xos leksik qatlamlar ham mavjud. Jumladan, qipchoq shevalarida ham bunday xususiyatlar uchraydi. Bu, hatto, Samarqand viloyati zamirida mavjud bo'lган shevalar materiallarida ham ko'rish mumkin. Samarqand viloyatidagi shevalarni shartli ravishda sharqiy va g'arbiy guruhlarga bo'lib o'rganish an`ana tusiga kirib qolgan:

Sharqiy guruh	g'arbiy guruh	Adabiy tilda
chal	babay	chol
kempir	memey	kampir
burchek	konjek	burchak
bala	bechche	bola
orik	zerdeli	urik
konishi	xemseye	qo'shni
bo'zav	gesele	buzoq

Shevalar umumxalq o'zbek tilining bir tarmog'i bo'lish bilan birga, adabiy til bilan o'zaro umumiylardan leksik qatlamlarga ega. Bu shevalardagi so'zlar shakldosh, ma`nodosh, ko'p ma`noli va zid ma`noli kabi munosabatlar jihatidan bir- birlaridan hamda adabiy tildan farq qiladi. Shevalardagi tabu va evfemizmlar esa deyarli o'rganilmagandir. Shularni hisobga olib, ularning har biri haqida alohida – alohida to'xtalib o'tishni lozim topamiz.

Ma`nodosh so'zlar

Ma`nodosh so'zlar o'zaro birlashtiruvchi ma`noga va turli shakllarga ega bo'lган bir guruh so'zlarning o'z nominativ ma`nolari bilan bir xil yoki o'xshash bo'lib, talaffuz va yozuvda farqlanishi, qo'shimcha ma`no noziklari hamda turlicha uslubiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Nutqimizni rang – barang qilishga ma`nodosh so'zlarning ahamiyati kattadir. O'zbek tili ham o'zining katta leksik qatlamiga egadir. Bu qatlama kiruvchi sinonim so'zlar tilimizning lug'at tarkibini boyitadi, uni yanada kengaytirish uchun xizmat qiladi, o'zbek tilining boyligini ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Tildagi ma`nodosh so'zlarni yaxshi egallash va undan to'g'ri foydalana olish esa nutq uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Ma`nodosh so'zlar, ayniqsa, dramaturg, shoir – yozuvchilar tomonidan mohirlik bilan qo'llanib, ularning fikrlarini ruyobga chiqarish, tasvirlanayotgan davr xususiyatlarini to'laroq aks ettirish, tur mush voqe`alarini aniqroq ifodalab berish, ulardagи ma`noning eng nozik tomonlari va ohangini ko'rsatib o'tishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma`nodosh so'zlar xalq og'zaki ijodida – matallar, topishmoqlar, ashula - qo'shiqlar kabilarda apcha keng tarqalgan bo'ladi.

O'zbek tilida bo'lgani kabi, uning lahja va shevalarida ham ma`nodosh so'zlar nihoyatda ko'p. Lahja va shevalardagi ayrim so'zlar esa adabiy tilimizning leksik qatlamini to'ldirish va boyitish uchun xizmat qiladi. Masalan, hozirgi adabiy tilimizdagi izlamok, qidirmoq, axtarmoq, istamoq sinonimik qatorlaridagi turli sheva materiallaridan

olinganini isbot qilish qiyin emas. Chunki Farg'ona, O'sh kabi shevalarda istamoq, qipchoq shevalarida izlamoq, Toshkent va Samarcand shevalarida qidirmoq (q'd'rmoq) deb qo'llaniladi. O'g'uz lahjasida ham qidirmaq va istemaq ko'rinishlariga egadir. Axtarmoq shaklida qo'llanilishi apcha chegaralangan. Bu shakl qipchoq shevalarida axtarmaq//aktarmaq deb ishlatiladi.

O'zbek shevalarida ham ma`nodosh so'zlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu shevalarda ba`zi bir ma`nodosh so'zlar adabiy tildagiga nisbatan ko'proq ko'rinishlarga ega bo'ladi.

Qipchoq lahjasida: tuzuv// tuziv// duris// yaxshi// miqtay// ejep// ejeptevir// evle// qiamat// bineyi (yaxshi);shipira// jevlik// jappa// hemmesi// tamamam// bagamam// po'tunney// (barcha);shakillamaq// kichirlamaq// baqirmaq// ulumak (qattiq gapirmoq).

Qarluq – chigil-uyg'ur lahjasida: morcha (Samarcand – Buxoro - Urgut), chumel` (Toshkent), chumel`k (Farg'ona guruhi) chepchek (Iqon, Sayram),buv` (Farg'ona shevalari), biyi (Samarcand-Urgut), oy` (Toshkent) kabi. Yoki erkaklar beligi boglaydigan, chetiga gullar solingan materialni, ya`ni belbogni Andijon, Qarnob va Qorabuloq shevalarida chors`// chorus deb qo'llanilsa, Toshkent shevasida k`ykche deb ishlatiladi.

O'g'uz lahjasida: gen// dilsiz// gemlemes// indemes// lol// genelek// sollemes// vorsiz// vedesiz// oldoqchi// yolg'onchi// to'triqsiz// noxoq; buchimi// solovoti / gorunishi// simmoti// siloyoti// qomati; derrev// darhol /Shuv yetib//zimpildep; solmo // yep// arik// terme; zrevek// isirg'a// xalqa// ulli// iri.

U yoki bu ma`nodoshlar qatoriga kirgan so'zlarning ba`zilari adabiy tilda va lahjalarda uchramasligi mumkin.Shevadagi bunday ma`nodoshlar ma`no va talaffuzlari jihatidan o'ziga xos xususiyatlari ega bo'ladi. Masalan, o'zaro mustahkam bog'langanlik, tug'ishganlik ma`nolarini ifodalash uchun o'zbek adabiy tilidagi qarindosh, urug' avlod singari sinonimlarni qo'llasa, qipchoq shevalariga kiruvchi shevalarda bu so'zlarning keng qo'llanilishi bilan bir qatorda tamir, zat agayni, tuvishqan kabi so'zlarning ham keng iste`molda bo'lganligini uchratishimiz mumkin.

Ba`zan qipchoq shevalari materiallari ma`nodosh so'zlarning ma`nosini farqlashga yordam beradi. Masalan, ozuqa turlaridan biri – yonishqa //jonihka deb yuritilib, uning quritilgan holatiga bede deyiladi. Hali uning avj olib usayotgan, lekin pishib etmagan holati esa kara korpe deb ataladi. Qipchoq shevalarida joniuchka so'zi korlik – chigil – o'g'uz shevalaridan Andijon shevasida yon`chka, Toshkentda esa bede deb qo'llaniladi.

Qipchoq shevalaridagi ma`nodosh so'zlar tuzilishi jihatidan sodda, juft va birikmali ma`nodosh so'zlariga bo'linadi.:

1. Sodda sinonimlar o'zbek shevalari leksikasining talaygina qismini tashkil etadi. Misollar: otirlik // yalgan; kichalan//kistalan //shoshilinch; jolikdi// daridi; kichap // derrev, xava// javin// kilamik// jika, satkak// avriv, talli//shiret, takran// kuri// boltacha; zor// kuchli; shona// taroq kallaposh//barcha, oftob// quyosh (Buxoro) kabilar.

2. Ba`zi ma`nodosh so'zlar juft holda qo'llaniladi, turli ma`nolarni (jamlik, to'dalik, bo'rttirish, umumiylit ma`nolarini) ifodalash uchun xizmat qiladi: sevir- taqat, urp- edet, kir- iplas, jaxshi – diris (qipchoq).

Ba`zi fonetik o'zgarishlarni hisobga olmaganda, bu xususiyat qorluq – chigil – uyg'ur va o'g'uz lahjalari materiallari uchun ham xosdir. Hali turmush qurmagan, bolasiz, bo'ydoq kishiga nisbatan Qo'qon va O'shda selt – suvey,Shahrisabzda selt – suveyt deyilsa, Forishda emizikli bolasi bo'limgan xotinlarga nisbatan suvey – seltan deb

qo'llaniladi. Selt – suveyt yurgen bashqa, rozgolli bashqa. Boshinne tushse bilesen, `shge ch`qsun (Forish)

Yana: xesh – tavar (Samarqand - Buxoro) urug'-eymoq (Kattaqo'rg'on - Payshanba), chol – buva (Pop), a: lat – ajdat (o'g'uz).

3. Birikmali ma`nodosh so'zlar uchrab turadi. Misol: qashqara. Ma`nodosh so'zlar ushbuShevalarda, asosan, ikki yo'l bilan hosil bo'lgan:

1. So'zlarning ma`no jihatidan bir – biriga o'xshash va yaqinlashuvi natijasida. Masalan, dos // ag'ayni// jore// qadrdan// orteq (qipchoq), uy// xone // kvert`re, duxt`r// vrech// tev`p (qorluq – chigil - uyg'ur) kabi.

2. Boshqa tillardan shevalarga so'zlarning o'tishi natijasida arabcha, forscha, tojikcha, ruscha, so'zlar va shevalarda so'zlashuvchi aholining leksikasidagi so'zlar bilan bir yoki yaqin ma`noda juft holda ishlatilib, ma`nodoshlik munosabatiga kirishgan. Masalan, kuch// qudrat, godek// chaqalaq, esker// sollat (qipchoq), jedvel // tebl`tse (qorluq – chigil - uyg'ur). Shaxrisabz shevasidagi yelke// kip, tekis// revon, boboy// chol// moysapit ma`nodosh so'zlarni o'zida aks ettiruvchi so'zlar bir – birlari bilan ma'lum darajada uslubiy maqsad va ma`no nozikliklari bilan farqlanib turishini qayd etish mumkin.

Umuman ma`nodosh so'zlarni tashkil etishda son va olmosh qatnashmaydi (ba`zan olmoshlarda bu holni kuzatish mumkin), yordam chi so'zlar esa, asosan uslubiy qimmatga ega bo'ladi.

Bu xususiyat turli shevalarda so'zlashuvchi ko'pchilik uchun xos bo'lsa - da, ayrim hollarda adabiy tilni yaxshi egallagan kishilar nutqida ham bunday hollar vaqt - vaqt bilan yuz berib turadi. Bunday hollardan qutulish har qanday madaniy kishining vazifasidir. Chunki tilning tozaligi, uning sofligi, ma`no jihatidan ko'rish til madaniyatni uchun kurashdir. Chunki bir tilning madaniyatining mukammalligi qadimiy ona tilimiz, ko'p asrlik madaniyatimiz, tarixiy taraqqiyotimiz, ko'p qirrali va jozibali san`atimizni ko'z – ko'z qiluvchi yagona o'lchovlarning asosidir.

Shunday ekan, so'z va atamalardan to'g'ri va o'rini foydalanish, ularning tub mohiyatini chuqur tushungan holda qo'llash hamda ohib berish burchimizdir. So'z va so'z ma'nolarini bilib ishlatmaslik ko'pgina yuzakiliklarni, hatto chalkashliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunday qilib, ma`nodosh so'zlar o'zbek shevalari materiallarida kattagina qismini tashkil etadi va turli ma`nolarni ifodalash uchun material bo'lib xizmat qiladi. Shevalardagi ma`nodosh so'zlarni atroflicha o'rganish o'zbek adabiy tilining boyib va rivojlanib borishiga ijobiy ta`sir ko'rsatadi.

Shakldosh so'zlar

Tildagi shakldosh so'zlar ko'pgina olimlarning diqqatini tortgan qiziqarli leksik qatlamlardan sanaladi. U adabiy tilni, jumladan, badiiy asar tilini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda shakldoshlik masalasiga baho berishda ikki xil qarash mavjuddir. Ba`zi olimlar shakldoshlikni ijobiy baholasalar, ba`zilar unga qarshi «urush» elon qilishadi. Biz birinchi fikr tarafomiz va uni to'laligicha qo'llab - quvvatlaymiz. Chunki shakldosh so'zlarga ijodiy yondoshish tilshunoslikdagi bir – bir to'g'ri yo'ldir. Buni tilimizning tarixiy taraqqiyot yo'llarini belgilovchi yodgorliklar ham to'la tasdiqlaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiy va uning zamondoshlarining asarlari bu sohada yuksak namunadir.

Agar turkiy tillar tarixiy taraqqiyotiga nazar solinsa, tilda ularning hosil bo'lishi umumiy leksika qonuniyatlaridan biri ekanligi ma'lum bo'ladi. Demak, shakldosh so'zlarning mavjudligi tilning so'z jihatidan, ayrim kishilar uylagandek, kambag'alligini ko'rsatmasdan, balki ular tilni boyitish, yangi so'zlar yasash uchun baza bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili shakldosh so'zlarga nihoyatda boy. Tilimizning bu xususiyati adabiyotda yangi janr – tuyuk janrining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Shakldoshlik so'zlar aytishi va eshitilishi bir xil, ammo ma'nolarning boshqa – boshqa bo'lganligi tufayli jumla ichida aniqlanadi va uning xilma – xillagini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbek tili lahja va shevalarida shakldosh so'zlarning o'zaro ma'nolarini farqlash, ularning vujudga kelishi va ma'nolari o'ziga xos xususiyatga ega. Bundagi o'ziga xos xususiyatlardan biri shuki, shevalarda u yoki bu omonim adabiy tildagiga nisbatan ko'proq ma'nolarga ega. Masalan, ich so'zi adabiy tilda ikki xil ma'noda qo'llansa, qipchoq shevalarida besh xil ma'noda keladi: ich (uch - son), ich (biror narsanig ichi), ich (ichmoq), ich - a`zo, qorin ma'nolarida qo'llaniladi. Yoki qirq so'zini olib ko'raylik: qirq (fe'l) qirq (marxum o'lgan kuniga qirq kun to'lgan kun, marosim) qirq (urug'ning nomi) kabi.

Lahjalardagi shakldoshlik so'zlarning adabiy tilda uchrashishi va uchrashmasligi nuqtayi nazaridan ularni ikki guruhg'a bo'lish mumkin:

1. Adabiy tilda va lahjalarda uchrovchi shakldosh so'zlar. Adabiy tilda: oyoq, bosh, ko'z, bet, yoz, ko'k, qanot kabilar. Masalan, odamning oyog'i, stolning oyog'i, karovotning oyog'i; odamning ko'zi, buloqning ko'zi, derazaning ko'zi; odamning boshi, ishning boshi, suvning boshi, ernig boshi va h. k.

Qipchoq hevalarida: ayag', bash, koz, bet, kok, qanat, adamdi ayag'i, usteldi ayag'i, kerevetti ayag'i, qo'shti ayag'i, bo'lakti kozi, tirezeni kozi, adamdi bashi, suvdi bashi, yerdi bashi singari.

2. O'zbek shevalari uchun xos bo'lgan shakldosh so'zlar. qorluq – chigil – uyg'ur lahjasida: choro>// chersu so'zi Farg'ona, Qarnob va Qorabuloq shevalarida adabiy tilda belbog' so'zi o'rnida keladi. Masalan, Nev` chors'n` el`b keld`, chors'n` bel`ge ma'nosini bildiradi. Masalan, Chorsuga odam kep edi. Chorsu Registonga kabi. Yana quyidagilarga diqqat kiling: morcha – chumoli (Samarqand – Buxoro shevalarida), oye (Kattaqo'rg'on va Payshanba shevalarida), Namangan, Chartoq O'sh kabi shevalarda oye eye so'zi o'qituvchi umuman xotin – qizlarga murojaat qilganda qo'llaniladi: oyemle ekzem`nn` ette etgemen d`d`le oye, kentten b`em k`lots: t`p be'n kabi. Shot` so'zi Toshkent shevasida aravaning bir qismi, Farg'ona shevasida narvon, toke so'zi ko'pgina o'zbek shevalarida qipchoqda bosh kiyimi, ya`ni duppi ma'nosida kelsa, Qarnob shevasida u yostiq ma'nosida qo'llaniladi, «pochche» so'zi o'zbek adabiy tili va ayrim o'zbek shevalarida «kuyov», «pochcha» deb ishlatsa, Qarnob shevasida «aka», «amaki» ma'nosini bildiradi.

O'g'uz lahjasida belkurak – odamlar ishlatadigan ish quroli (lopata), toy – otning bolasi va biror narsani taxt qilib, jamlab quyish. Qilish – kishi nomi, atoqli ot, quroq, turdosh ot; Alma – kishining nomi, atokli ot, mevaning nomi, turdosh ot va buyruq fe'li ma'nolarida qo'llanilib, omonimiyani tashkil etadi. Bu so'zlar boshqa o'zbek shevalarida ham xuddi shunday yoki shunga o'xshash ma'nolarda ishlatiladi.

Bu guruhg'a kiruvchi omonimlar asosan ikki undosh tovushning bir tovush bilan talaffuz qilinishi, ya`ni fonetik o'zgarish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbek lajja va shevalarida shakldosh so'zlar ikki yo'l bilan, ya`ni birinchidan, o'z ichki taraqqiyot qonunlari asosida, o'z imkoniyatlari bilan va ikkinchidan, boshqa tildan o'tgan so'zlarning shevalardagi so'zlar bilan omonimik munosabatga kirishuvi natijasida vujudga kelgan.

Shakldosh so'zlar asosan quyidagi usullar bilan paydo bo'ladi:

1. Fonetik o'zgarishlar natijasida: dayra – doira, daryo (qipchoq), deyro yokes` – daryo yokasi – kifti ob (qorluq-chigil- uyg'ur), k`tep – o'quv quroli, kitob (qorluq-chigil-uyg'ur), Kitep – joyning nomi, atokli ot (qipchoq).

2. So'z ma`nolarining taraqqiyoti zaminida kun, quyosh, bir sutkaning yarmi (qipchoq), yoldosh – hamroh, suhbatdosh, kosmik kema, erning yo'ldoshi (qorluq-chigil-uyg'ur) kabi.

Shuningdek, oy, ashiq, ot, bel, qalay kabi ham o'zbek lajhalarining har birida shakldoshlik xususiyatiga ega bo'ladi.

Boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarning mos kelishi tufayli, ular ko'proq rus tilidan o'zlashtirilgan aloqador bo'lib, ular shevalar fonetikasiga buysundirilgan holda talaffuz etiladi. Bunday shakldoshlarga misol sifatida quyidagi misollarni keltirish mumkin. Masalan, qorluq-chigil- uyg'ur lajjasida: tok (elektr toki, o'simlik nomi), tol (tal, daraxt, «tolmoq» fe`lining ikkinchi shaxs birligi, imoratlar uchun ishlataladigan qog'oz), tam (uy, kitoblar tomi - jild) kabi.

3. So'zlarning o'zak va negizlariga turli xil qo'shimchalar qo'shilishi orqali. Bunday shakldoshlarda urg'u ma`no anglatuvchilik rolini uynaydi.

Shakldosh so'zlar muhim leksik-uslubiy vosita bo'lib, ular yordamida chiroqli so'z o'yinlari yuzaga keladi. Bunday holat yozma adabiyotda ham og'zaki nutqda ham teztez uchrab turadi. Buning dalili sifatida Samarqand viloyatidagi qipchoq lajjasining vakili, xalq og'zaki ijodining mashhur namoyondasi Fozil Yo'ldosh ug'lidan keltirilgan tuyuqni ko'ramiz:

Qolindan keguncha chikar yaxshi at,
Yaxshilik qi, balam, jamanlikdi at.
Nesiyetim yot qibal, parzantim,
Yalg'iz yurse nam chiqarmas yaxshi at.

Shuni aytish kerakki, o'zbek adabiy tilidagi va boshqa qator o'zbek shevalaridagi shakldosh so'zlarning aksariyati qipchoq shevalarida bunday xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Bu esa unilar uyg'unligi hodisasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, ot (o't) so'zi alanga, olov va tirik organizmdagi o't ma`nolarida kelib, ot deb ikki xil ko'rinishda qo'llanadi.

Ko'p ma`noli so'zlar.

Ko'p ma`nolilik o'zbek tili leksikasining o'ziga xos belgilaridan biridir. Asosan, o'zbekcha so'zlar ko'p ma`noli xususiyatga ega bo'ladi. Chunki bunday so'zlar hayotimizda uzoq yillar davomida ko'p qo'llana berib, Shu holatga kelib qolgandir. Muhim ilmiy-nazariy fikrlar aytilib o'tilgan o'zbek adabiy tilidagi bosh, yuz, ko'z, oyok, qanot, bel, til, burun, lab kabilar lajja va shevalar materialida ham turli ko'rinschlarda qo'llaniladi va ko'p ma`nolik xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, bash, koz, ayak, qanat, bel, til, murun, leb kabi.

So'zlarning ko'p ma`nolilik holati, asosan, gap ichida namoyon bo'ladi. alohida olib qaralganda, monosemantik xususiyat yoki o'z ma`no yaqinligiga ega bo'ladi. Har bir

so'z, odatda, ma`lum narsa, belgi kabilarning atamasi sifatida paydo bo'ladi, so'ngra u boshqa turdag'i narsa, belgilarga tadbik qilinadi. Natijada so'zning leksik ma`nosida siljish yuz beradi.

Qipchoq shevalarida: oziyem bash dep kedini koterip jurgenekeň-de, uni ekinChi birgetke bashliq qip qoydi; bir bash juzum, jezzem ishti kozini biledi, bul kozli kundey ken, uzukti kozi tuship kapti kabi.

Ko'p ma`nolilik hodisasi vokelikdagi bir narsa buyum xususiyatini, nomini boshqasiga ko'chirish, o'tkazish orqali sodir bo'ladi. Nomini ko'chirish quyidagi holatlar natijasida yuz beradi. Bu o'xshashlik asosida yuzaga keladi. O'xshashlik shakli, rangi, ichki xususiyati va sifati tomonidan bo'lishi mumkin, masalan, chekmek, suvga chegulti (suvga cho'kupti). Eshmet chog'ipti (qarib qolibdi) kabi.

Bog'likliq asosida paydo bo'ladi. Bog'liqlik vaqt, payt, makon va mantiq nuqtayi nazaridan yuzaga keladi. Masalan, uchmak>ushmak: qush ushti, semelo't ushti, xelginchek ushti kabi.

Nomini ko'chirish vazifasi jihatidan. Masalan, bash: insandin bashi, suvdin bashi; qanat: qushtin qanati uzilip tushti, semelo'tti qanati mekkem // mekkem ishlennen; lev: adamdi levi, xovizdi levi, arakti levi, saydi levi kabi. So'z ma`nolarining yaqinlashishi natijasida ko'p ma`nolilik hosil qiladi:til; tili chuchi, tilini biladi kabi.

Ko'p ma`noli so'zlarning qanday shaklda bo'lishi va qaysi yo'l bilan yuzaga kelishdan qat'i nazar, ularning har birida asosiy boshlang'ich ma`no, asl ma`nosi mavjud bo'ladi. Shu ma`no asosida boshqa ma`nolar kelib chikadi. Buni uchmoq so'zi misolida ko'rish mumkin. Uning ma`nosi qanot silkish bilan havoda harakatlanish sanaladi. Bu ma`no qushlarga qarata aytilgan bo'lib, keyinchalik uning ma`nosi o'zgarib va taraqqiy etib borgan. Natijada parrandadan boshqa narsa-buyum va hodisalarga tadbiq etila borgan. Afsonalardan esa uchmak so'zining otga (ucher at – tez chopar ma`nosida), gilamga (ucher gilem), samolyotga (semelo't uchip ketti), er yo'ldoshiga (jerdin joldashi uchi) ko'chirilganini ko'rsatish mumkin.

Demak, uchishlarning hammasi hozirgi vaqtida umumiyligi bo'lgan ma`noni bildiradi. Lakin baribir qushning uchishi birinchi harakat, samolyot va arning yo'ldoshi kabilarning uchishi esa keyingi harakat hisoblanadi.

Ma`no taraqqiyoti tufayli uchip ketti (tez boradi ma`nosida), xelginchak uchmaq kabi qator ma`nolar yuzaga kelganligini ko'rsatib o'tish kifoyadir.

Ko'p ma`nolilik sohasidagi o'ziga xos namunalarni qorluq-chigil- uyg'ur shevalaridan tik so'zini keltirish mumkin. Jumladan, Shahrisabz, Kitob shevalarida adabiy tildagi asl ma`nosi bilan bir qatorda kishilarning buyiga ishlatalib, uning uzunligini balandligini anglatadi: Xelim metten tikrog'. Shuningdek «choynak» so'zini ham olish mumkin, suyuqlik soladigan idish va simyog'ochlardagi chinnidan qilingan izolyatorlarni ham choyn`k deb qo'llaniladi.

Yoki Toshkent shevasida t`1 so'zining qo'llanilishini olib ko'raylik. T`1 – kishi yoki hayvon organizmining nomi, t`1 – ikkinchi shaxs birlik shakldosh buyruq fe`li, t`1 top`sh – kelishilish, t`1den qol`sh – kasallikning og'irlashishi natijasida gapira olmay qolishi, t`1n` b`l`sh – biror sohada yaxshi, mukammal tushunchaga ega bo'lish.

So'zlarning ko'p ma`noliligi o'g'uz lajjasida ham qo'llaniladi: xu: rlika kaptar volip uchib (p) geledi-de, bir silkinib adam voladi. Navi dusan, it kustagda bit qistag eteverme, qirsildab uchib gursildeb chushkiysan (kargish ma`nosida).

O'zining xususiyatlari va ma`nosi bilan ko'p ma`noli shakldosh so'zlarga yaqin va o'xshashdir. Lekin ularni ajratib turadigan farqlar ham mavjud. Bunday farqlarning asosiyalaridan biri so'z ma`nolarining ichki bog'lanishga egaligi yoki ega emasligidir. Agar so'zlar o'zaro bir-birlari bilan ichki bog'lanishga ega bo'lsa, ko'p ma`noli hisoblanadi bash, tish, koz, til, yer kabilar. Aksincha, ularning ma`nolari bir-biri bilan ichki bog'lanishga ega bo'lsa, shakldosh sanaladi: at, juz, tur, yosh, och kabi.

Zid ma`noli so'zlar

Lahja va sheva materiallaridagi leksika ham ma`lum o'rinni egallaydi. Bu so'zlar ma`nolari jihatidan bir- birlariga qarama – qarshi bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlardan tashkil topgan bo'lib, narsa, hodisa va ularning belgilarini solishtirib ko'rish, bir – birga qarama – qarshi ko'rsatish, fikrlarni ta`sirchan ifodalash vazifalarini bajaradi. Zid ma`noli so'zlar lahja va shevalarda ham bir – biriga qarama – qarshi tushunchalar birligini ifoda etish bilan uslubiy vosita sifatida qo'llanadi.

Qorluq – chigil – uyg'ur lahjasida: yexsh` – yomon; kel`n – yuke: uzun - k`ske; oz – kop, dos – dushman; togriu – egr`; boy – kembegel; sh`r`n – achch`k; sem`z – ar`k; kunduz – kecha; xursadl`k – xeyepelik

Namunalar: yosh kel`se `shke, ker` kelse oshge, degen ote – buvelerm`zn nekl` (gep`) bo: oxshem kel`n kor yogd`, k o'z mexeller` kunduz` `ss`q, keches` sovuq bop tured` (Kattaqo'rg'on ,Payshanba).

O'g'uz lahjasida: suji – aji, oq – qara, yaxshi – yaman, alis – yaqin, ulli – genje, kari – yosh, uzun – qisqa.

Misolar: aji bilen sujini datkam biledi, alis bilen yakinni yurem biledi, aji volipti, bashimda rolmalim eylen, gulleri boshim eylentirdi suji tillari.

Qipchoq lahjasida: kette – kichchi: qalin – qilamik, belen (t) – pes: keche – kunduz achchi – chuchchi: alis – jaqin, uzun – qisqi, issiq – suvuq, kunchig'ish – kunbatish: qatti – bosh.

Misollar: uni qoli balan keldi biyil hava pes – boldi, kar kalin javupti, kilamik qirav tushken va boshqalar.

Juft holda qo'llanilib, qarama – qarshi ma`noli so'zlar umumiylar tushuncha va tasavvurni ham ifodalab keladi. Bunday holda bir so'zdek qo'llaniladi. Zid ma`noli so'zlardagi bunday xususiyatlar ulardagisi so'zlarning ko'chma ma`noda qo'llanishi bilan izohlanadi.

Qipchoq guruhi shevalarida ham bu xususiyat yaqqol ko'zga tashlanib turadi: belen – pes geperme – uylab gapir, yaxshi gapir kishin – jazin ishler edik – yil buyi ishlar edik erte kesh xabar aliptur//aptur – har doim xabar olib tur, issiq – suviq kildiripti – dori – darmon bilan davolanibdi, berdi – keldimiz o'zildi – aloqamiz uzildi.

Zid ma`noli so'zlar kategoriya sifatida katta ahamiyatga egadir. Ularni ko'proq qo'llash borasida shevalar, jumladan, qipchoq shevalarining o'rni kattadir.

Eski so'zlar

So'z ifodalaydigan buyum va tushuncha hayotda yuqolishi bilan, so'zning o'zi ham asta – sekin uno'tila boradi, ya`ni eskirib qoladi. eskirgan so'zlar ikki turda bo'ladi; qadimiy so'zlar, tarixiy so'zlar

Qadimiy so'zlar. Qadimiy so'zlarning hozirgi vaqtida faol so'zlar qatoridagi shakldoshlari ham mavjud bo'ladi. Bunda hozirgi hayotda mavjud bo'lgan narsani anglatadigan kamida ikki so'z bo'lib, biri faol qo'llaniladi, boshqasi esa eskirib qolgan so'z bo'lidanligi uchun, ayrim uslubiy maqsadlar – tarixiy davrni to'la tasvirlab berish, o'sha davrni ohib berishda nutqka ko'tarinki ruh bag'ishlash kabi maqsadlar uchun ishlataladi. Masalan, adabiy tilimizidagi so'zlar o'zbek lajha va shevalarida ham turlicha shakllarda ishlataladi: g'ovo – g'ovot – g'ovovot – (urush); Shoro – qishloq kengashi raisi; erch – aravaning bir qismi shoti; tovushxon – quyon, tosken – qung'iroq; tokke – do'ppi; chorsu – belbog' (Qarnob shevasida).

Bunday so'zlarning lug'at birligi biror jihatdan eskirib, o'z o'rnini boshqa bir lug'at birligiga bo'shata borishi natijasida paydo bo'ladi. Bu – jarayonning voqe bo'lishiga, turli – tuman sabablarga olib keladi.

Shuni aytish kerakki, ba`zan ijtimoiy taraqqiyoti va tarixiy sharoit davrida ayrim so'zlarning ma`nolari bir – birlariga juda yaqin yoki bir necha vaqt ularning ma`nolari bir xil bo'lib qoladi. Lekin bunday hollarda ma`nolari bir xil bo'lib qolgan, so'zlarning biri iste`moldan chiqib ketadi. Masalan, inqilap va revelo'tsiye, shora va sevet, muhr va pechet, deklet kabi so'zlar bir xil ma`noni ifoda qilganlari holda qo'llanib kelinadi. So'ngra 90 – yillargacha revelo'tsiye, sevit, pechet, deklet so'zlarini deyarli shakldosh so'zlar sifatida qo'llanadigan bo'lib qoldi. Shora, inqilap, muhr so'zlarini o'zbek tilining faol so'z boyligidan chiqib ketdi va ma'lum davrda eskirgan so'zlarga aylanib qoldi. Hozirgi paytda esa, aksincha, 90 – yillargacha eskirgan so'zlar qatoridagi so'zlar yana faollahish ketdi. Demak, majburiylik siyosati ham, vaqtincha bo'lsa-da tilning lug'at boyligiga ta`sir etar ekan.

Tarixiy so'zlar o'tmishda mavjud bo'lgan narsa va tushunchalarning nomini bildirgan, ammo hozir eskirib qolgan tilimizda ishlatalmay qolgan so'zlar hisoblanadi. Chunki jamiyatda ilm – fan, madaniyat, san`at, adabiyot kabilarning taraqqiyoti, umuman hayot talabi bilan bog'liq o'zgarishlarni aks ettirish vazifasini ado eta olmagan so'zlar iste`moldan chiqib keta boshlaydi. Bunday so'zlar o'rnini esa yaqin so'zlar va tushunchalar egallaydi.

Tarixiy so'zlar yo'q bo'lib ketgan narsa – hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun ishlataladi. Chunki hozirgi o'zbek adabiy tilida ularning shakldoshlari bo'limgan, Masalan, klz`, demle, rey`s, elem, mup`, `mom (Qarnob shevasi) so'zlarini eskirib qolib, ishlatishdan chiqib ketgan. Bunday so'zlarning ba`zi birlari esa yangi ma`noga ega bo'lgan. Masalan, ilgarigi vaqtida odamlar orasida musulmon dinining qonun – qoidalirini targ'ib qiluvchi kishi demelle (qipchoq), domullo – domle (Toshkent, Qarnob, Samarqand, Kattaqo'rg'on) deb ishlatalgan va adabiy tilda domla deb bir muncha olinadigan bo'lgan. Shunday qilib, domle shaklida bu so'z hozirgi paytda fanning ma'lum bir sohasini egallagan mutaxassis olim, ilmiy xodim va ba`zan o'rta maktabda dars beruvchi o'qituvchi ma`nolarida qo'llaniladi.

Tarixiy so'zlar o'zi anglatgan voqe`likning yagona atamasi bo'lib, hozirgi vaqtida lajha va shevalarda ham, adabiy tilda ham, o'sha narsani tushunchani, dunyoqarashni aniq anglatuvchi so'z hozirgi davrda bo'limgan, o'tmishni tasvirlashda tarixiy so'zlarga murojaat qilish o'z – o'zidan zarur bo'lib qoladi. Bunday holni turli lajha va shevalardan yozib olingan tarixiy namunalarda ochik ko'rish mumkin. Shoир-yozuvchilarimizning tarixiy asarlarida ham istorizmlarni ham ko'plab uchratamiz. Buni ochiqroq tasavvur etish uchun A. Qodiriyning «Mehrobdan chayon», O'tgan kunlar», Oybekning «Qutlug'

qon», S. Ayniyning «Qullar», G'. G'ulomning «Ko'kan» kabi asarlarini misol qilish mumkin.

Yangi so'zlar

Yangi so'zlar tilda paydo bo'lgan yangi so'z yangilik bo'yog'i hisoblanadi. Jamiyatda, hayotda bo'layotgan o'zgarishlar, yangi voqealari hodisalar fan va texnika, san`at iqtisod, qishloq xo'jaligi sohasidagi yangiliklar yangi so'z va tushunchalarini ham maydonga keltiradi. Bunday so'zlar har bir tilda jumladan, o'zbek tilida va uning lahja hamda shevalarida ham o'z so'z boyligi asosida yuzaga keladi. Yangi so'zlar deb atash nisbiy tushuncha bo'lib, ma'lum vaqt ichida davrda paydo bo'lgan so'zlar faqat o'sha davr sharoitida yangi so'z hisoblanadi, ma'lum vaqtidan so'ng esa o'zidagi ana shunday xususiyatni yo'qotadi. Masalan, shanbalik, aeroplan, yo'qsil, sho'ro, kolxoz, sovxozi so'zlari 20 – yillarda; 5-yillik, shpal, seyalka 30 – yillarda; staxanovchi, traktor, mashina 30- yillarida; katyusha, raketa, front orqasi kabi so'zlar 40 – yillarda; cho'lquvarlar, ko'p ko'p mingkilogrammchi, vizit, cho'l lochini, zangori kema, havo kemasi, dala malikasi va boshqalar 50 – yillarda; kosmonavt, kosmodrom, zangori ekran singarilar 60 – yillarda yangi so'zlar sifatida qabul qilingan va o'sha davrlar uchun neologizm vazifasini bajargan edi. Hozirgi vaqtda ularning aksariyati odatdagi zamonaviy so'zlarga aylandi, hatto, bir qismi eskirib ham qoldi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra, turli davrlarda yozib olingan shevashunoslik materiallarini aniqlash apcha murakkabdir. Ularni belgilashda yana u yoki bu so'zning paydo bo'lgan materialining yozib olingan vaqtini alohida hisobga olinishi zarur. Masalan, 10 – yillar uchun poyiz (poyezd), mardikor zavo't, fabrika, ishchi singarilar yangi so'z hisoblanadi: Maskav tomon mardikorlikka yubordilar, bizardi zavo'tga ishlaysan deb bir joyga etip qoydi (Samarkand).

Diputat, saylov, agintpunkt kabilari 30 – yillar uchun yangi so'zlar hisoblanardi.

Ayrim qishloq shevalari uchun semelyut, depeletsiye, zanori keme kabilari hozirgi vaqtda ham yangi so'zlar qatoriga kirishi mumkin.

Xuddi yuqoridagi o'xshash misollarni o'g'uz shevalaridan ham keltirish mumkin;

Ulli yoldan gelishinni aynaniyi
Velesipit minishinni aylanaiyi . (Shovot)
Baxmal kastinimni chelde qoyaman,
Her gun min metire chapik uraman. (Qo'shko'pir)
Birisi isapchi, biri tevilchi,
Isapchidin tevilchisi zor hiqar. (Qo'shko'pir)
Tabu va efemizmlar

Ma'lumki hozirgi tilimizda ishlatiladigan evfemizmistik so'z va iboralarning ildizi ma'no jihatidan eng qadimgi davrlarga borib takaladi. evfemizmlar eng qadimgi ibtidoiy odamlar tilida bo'lgan va hozir ham ayrim qoldiqlari saqlanib qolgan tabu hodisasi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Evfemizm ibtidoiy xalqlarning diniy taqiqlar (tabular), jumladan, til tabulari bilan, ya`ni ibtidoiy kishilarning diniy taqiqlarga asoslangan va shunga binoan ayrim so'zlarni talaffuz etish qo'rinchli bo'lgan hodisalar bilan bog'liqidir.

Bu etnografiyada xalqlarning urf – odatlarida taqiq etilishi sistemasini anglatuvchi atama sifatida qabul qilingan. Ammo tilshunoslikda bu atama urf – odat natijasida

qo'llanishi mumkin bo'limgan, aytib bo'lmaydigan diniy tushuncha so'zlarini bildiradigan atamalardir.

Tabu etnografik atama bo'lib, Poleniziya xalqlari orasida bid`at, irim sifatida namoyon bo'lib kelgan. Umuman aytganda, tabu – taqiq, qo'l tegizib bo'lmaydigan demakdir.

Tabu so'zi ayrim vaqtarda qarama – qarshi ma`noga, ya`ni «la`nat», «qarg'ish» kabi ma`nolarga ham ega bo'lismumkin. Bu ikki xil ma`noda ishlataladi. Birinchi ma`nosida, u jamiyatda ba`zi bir narsalar harakatlarni man etishni ifodalasa, ikkinchi ma`nosida lingvistik atama sifatida tilda ba`zi bir so`zlarni ma`lum sharoitlarda man qilish hodisasini ifodalaydi.

Tabu so'zlarining kelib chiqishida u yoki bu xalqning iqtisodiy sharoiti, urf – odatlari, e`tiqodining ahamiyati katta bo'lganligini ta`kidlaydi. Masalan, Hali fan texnika rivojlanmagan jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida, to'g'rirog'i, ibtidoiy jamoa va feodalizm davrida ba`zi xalqlar jin, arvoj va shunga o'xshash ilohiyashtirilgan narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvochlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki narsa – buyumlarni tilga olmasa, ulardan salanish mumkin, aks holda boshiga ko'p balolar, ofatlar yopiriladi, arvoj va jinlar urib ketadi, deb uylaganlar. Shuning natijasida yarim ilohiy sanalgan qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning shaxsiy narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish qat`iyan man etilgan.

Tabu hodisasi qipchoq shevalarida ham qadim zamonlardan uchrab turadi. Ayrim yirtqich hayvonlarning nomini tilga olish (aksar xoda kechalari) man etilgan. Qariyalar bu narsani quyidagicha izohlaydilar. ularning aytishlaricha, agar bunday hayvonlarning nomi tilga olinsa, ular zarar etkazishi mumkin emish. Masalan, «bo'ri» so'zini kechalari aytish man etilgan. Aftidan, xalqimizning o'rtasida tez – tez ishlatilib, turiladigan bo'rini yo'klasang, qulog'i ko'rindi, degan maqol dastlab shu tabu hodisasining natijasi o'laroq vujudga kelgan bo'lsa kerak yoki kechalari ayniqsa, yotish oldidan qipchoq lahjasida so'zlashuvchi qishloqlarda «ilon» so'zini aytish tamom ila man qilingan. Agar bu nom tilga olinsa ilon qo'yninga kirib chiqishi, chaqishi mumkin emish. Bordi – Yu, buvi nevarasiga ertak aytib berayotgan bo'lib, «ilon» so'zini aytish extiyoji tug'ilib qolsa, «ilon» demasdan, uning o'rniga «apg'amcha», «qamchi dasta yoki chilvir, chilbir» ramziy ma`noda qo'llanib, ilonga o'xshab ketishligi sababli shu so'z vujudga kelgan. Bunday tabu so'zlarda «chayon», «uvullak» kabilarni ham misol keltirish mumkin.

Tabu so'zlar oilada er – xotin, qaynona – kelin o'rtasida ham har qadamda uchrab turadi. Ma`lumki, musulmon sharqida xotinlarning erlarini o'z ismlari bilan chaqirish man etilgan. Chunki o'z ismi bilan chaqirish erga nisbatan hurmatsizlikni bildiradi, deb hisoblangan. Oqibatda, tabu so'z vujudga kelib, xotinlar erini o'z katta bolalarining nomi bilan atab chaqirganlar.

Bu hol urf – odatga aylanib ketgan. Kelinchaklar erini «enamning uli», «bayim», «erim» chaqiradilar, murojaat qiladilar. Yoshi keksalik sari yuz to'tgach, «chirim» deb ataydilar. So'nggi yillarda «xo'jaynim» deb qo'llash hollari uchraydi.

Erlar esa o'cta yosh paytlarida «xatin» deb chaqirgan bo'lsa, ayrim vaqtarda «xonim», «enasi» deyish hollari ham uchrab turadi. Ko'p vaqtarda ug'li yoki qizining ismi bilan chaqirish hollari mavjud. Yoshi qarilik sari qadam qo'ygach, esa «kampir» deb chaqiradilar.

Kelin bo'lib tushgan qiz oilaning a`zolari nomini atamaydi. O'zidan katta erkaklarni aka, qaynog'a deb ataydilar. Kichiklarga esa uka, ini, qayn beka deb murojaat etadilar.

Shuningdek, kuyovning ota – onasi qaynota, qaynona deb ataydilar.

Ba`zi hollar ham uchrab turadi, ya`ni boshqa bir kishining bolasining ismi biror ayol erining ismi bilan otdosh bo`lsa, uni begin, to`ram deb chaqiradi.

Qarluq – chigil - uyg’ur lahjasida ham tabu so’zlarning uchrashini ko’ramiz. Bu shevalarda ham qipchoq shevalariga o’xshash ba`zi nomlarni boshqacha atash mavjud. Masalan, ergemch` (ilon), adasi, qaynona, xotin, biyi, kempir, kennoy`, domot, pochcha kabilar.

Misollar: biyisi, buyax qara, mehmonla keldila (Samarqand), edes`kevottila (Toshkent), Ey xotin, mang bir oz non topib be: (Urgut) va boshqalar.

O’g’uz lahjasi materiallarida ham tabuning qo’llanishi o’g’uz lahjasi materiallarida ham uchrab turadi: buyun erim ba: sem meni, hech sennen qorqmayman, hava diydixatini kabi.

Evfemizmlarning tilimiz lug’at tarkibini boyitishda, so’z ma`nolarini kengaytirishda, so’zlardan turli uslubiy maqsadlarda foydalanishda katta ahamiyatga egadir. Evfemizmlardan foydalanishning ahamiyati shundaki, shoir va yozuvchilarimiz, umuman so’z san`atkorlari ular orqali chiroyli uslubiy holatlarni yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, evfemizmlardan foydalanish nutq madaniyatini o’stirishga yordam beradi. Chunki hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biri nutq madaniyatidir. Usiz tafakkur madaniyati ham bo’lmaydi.

Demak, evfemizmlar masalasi so’z ma`nolarining kengayishi, boyishi va ma`no taraqqiyoti, so’z hosil qilinishi bilan lug’at boyligi hamda ulardagi o’zgarishlar bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchidan, madaniy nutq so’zlash uslubi sifatida nutq madaniyatini vazifasi bilan ham bog’liq hodisadir.

«Evfemizm» so’zining lug’aviy ma`nosi yaxshi gapiraman, xushmuomalalik bilan gapiraman, bir narsa yoki hodisa to’g’risida yumshoq, silliqlab va pardalab gapiraman degan ma`noni bildiradi. Tilda evfemizmlarning paydo bo’lishi ma`lum sabablarga bog’liqidir. evfemizm, aftidan, so’zlarni ishlatilishdagi ta`sir doirasi (darajasi) qonuning natijasi o’laroq vujudga kelgan bo’lishi mumkin. Biz bu erda so’zlarning ta`sir etish doirasi deganda, ma`lum darajada ijobiy ta`sir etuvchi so’zlarni qo’llashni ko’zda tutamiz, keng ma`noda esa bu qonun qisman shakldoshlar, vul`garizmlar, evfemizmlarni ishlatishni ham o’z ichiga oladi.

Chunki har bir so’z o’zining ma`no nozikligiga egadir. Bunga atama kirmaydi. Shuning uchun ham, xalqimiz « so’zda so’zning farqi bor, o’ttiz ikki ma`no bor» deb bejiz aytmagan. Binobarin, nutqda mana shu leksik qatlam so’zlovchining ruhiy holati, fe`l – atvori va narsa – hodisalarga munosabati bilan bog’liq holda so’zlarni ishlatishni taqozo etadi. Demak, evfemizm har qanday vaziyatda, har kimga har narsaga nisbatan qo’llanilmaydi. Evfemizmlar badiiy adabiyotda muhim uslubiy vosita sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ba`zi fanlarda, masalan, tibbiyotda evfemizmlarni qo’llash faktlari tez – tez uchrab turadi.

Qipchoq shevalarida evfemizmlar ahloq – odob normalarini ifodalash. Madaniy so’zlash va hokazo sabablarga ko’ra qo’llanishini ko’ramiz. Masalan, «o’lish» «o’ldi» dilga xanjardek botadi. Bu sovuq xabarlarni kishilar shevalarda tamam bo’ldi – uzildi – jan berdi – kaza qildi – dunyadan otti – napayt boldi tarzdagi evfemizlar bilan ifoda etadilar. Bulardan napayt bodli, ko’pincha, bolalarga nisbatan ishlatiladi.

«Bo’g’oz bo’lmoq» birikmasi o’rnida lahja homilador bomoq – avur ayaqli bo’mak – avur jukli bomak – ekkat singari so’zlar ishlatiladi.

Quyidagi evfemizmlar ham tez – tez ishlatilib turadi: qojardi – badan qutuldi – jan illedi (tug'di); tabi joq – mazzasi joq (kasal); kuyovi, dostigdash – turmush ortag'i (xotini)

Evfemizmlar tuzilish jihatidan quyidagicha bo'ladi: 1. Yakka evfemizmlar. 2. Birikmali evfemizmlar.

1. Yakka evfemizmlar bitta so'zdan hosil bo'lgan evfemizmlardir: lapashang – bo'sh, uzuldi – o'ldi.

2. Birikmali evfemizmlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikishidan hosil bo'ladi: xaqorat qildi – so'kdi, turmush o'rtog'i – xotini.

Evfemizmlar shakldoshlik qatorini ham tashkil etishi mumkin. Quyida biz qipchoq shevalarida uchratuvchi ba`zi evfemizm iboralariga misollar keltiramiz: nomusiga tegmoq. Bu ibora qizlarga zo'rlik qilingan paytda ishlatilib, shu majburlashni pardalash natijasida kelib chiqqandir. Tuyog'inni shiqillatib ko – bu ibora tur, yo'qol, bu erdan ket so'zlarining evfemistik ko'rinishidir: radiyosini koyip juvarmak – bu ibora so'zlovchining suhbatdoshi kamchiligi ochib tashlab, «sharmandangni chiqaraman» degan pisandasining evfemistik shaklga kirgan ko'rinishidir. Tipnakka//tinakka zar – bu ibora farzandsiz kishilarga nisbatan ishlatilib, bolasiz, bolasiz yo'q ma'nolarida qo'llaniladi.

Shunday qilib, tabu va evfemizmlar o'zbek tilining bir qismi bo'lgan lahjalar va shevalar taraqqiyotining uzoq davom etgan natijasi bo'lib shevalarda hozirgi paytda tabularning yo'qolib borayotganligi ko'zga tashlansa, evfemizmlar ko'payib boryapti. Ular gaplarni chiroylı, silliq, ta'sirchan qilish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qalam ahli uchun ham umuman har bir madaniyatli kishi uchun ham muhim leksik uslubiy vosita vazifasini bajaradi.

Takrorlash uchun savollar:

1.O'zbek shevalarining lug'at tarkibi deganda nimani tushunasiz ?

2.O'zbek shevalaridagi dialektal so'zlar fonetik xususiyatlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi ?

3.Dialektal so'zlarni ma'no xususiyatlariga ko'ra qanday guruhlash mumkin ?

4.Shevada uchraydigan shakldosh so'zlarga misollar keltiring ?

5.Shevada ishlatiladigan ma'nodosh so'zlarining xususiyatlari haqida to'xtaling?

6.Tabu va evfemizmlarning shevada qo'llanish doirasi to'g'risida to'xtaling ?

7. O'zbek adabiy tilida uchramaydigan o'zlashma so'zlar haqida ma'lumot bering?

8.Fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar haqida ma'lumot bering.

9.Rus tili va u orqali o'zga tillardan o'zlashgan so'zlarining sheva ta'siri.

10.Shevadan o'zbek adabiy tiliga so'zlarining o'zlashishi misollar orqali tushuntiring .

Tayanch tushunchalar :

Dialektal so'z – ma'lum shevagina xos bo'lgan so'z .

Shevalarning lug'at tarkibi – ma'lum bir shevadagi barcha so'zlar yig'indisi .

Jargon – ijtimoiy guruhlarning o'ziga xos so'zlari.masalan,tartibot, savdo xodimlari .

Leksik qatlam – tildagi (shevadagi) tub va o'zlashgan so'zlarining guruhlari

.

